Kalit so'zlar: axloqiy qoida, tarbiya, Turkiy guliston yoxud axloq, fikr tarbiyasi, barkamol inson, pedagogika, insonparvarlik, xulq tarbiyasi. Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri – Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro tarixlari ichida eng qobiliyatli va fozillardan edi.

Sadriddin Ayniy

Asrimiz boshlarida xalqimiz tarixida yangi davr – Milliy uyg'onish, o'zlikni anglash boshlanadi. Bu harakatni boshida jadidlar turdilar. Jadidlar yangilik tarafdorlari va targ'ibotchilari sifatida maydonga chiqdilar. Turkiston jadidchilik harakatining namoyondalari ma'rifatparvar kishilar edi. Ma'rifatparvar keng ma'noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik millatni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Shuning uchun xalqni ozodlikka ozodlikka eltuvchi yo'l bu – xalqni ma'rifatli qilish deb bildi. Shu jumladan, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy singari jadidlar ijodiga nazar tashlasak, ularning o'z asarlari bilan mustamlaka sharoitida yashayotgan millatga nima kerakligini baland ovoz bilan aytganlarini ko'ramiz. Ular qoloqlik va nodonlikka, zulm va zo'ravonlikka qarshi, milliy birlik va taraqqiyot, erk va hurriyat uchun kurashning qudratli quroli ma'rifat ekanini anglab yetganiga guvoh bo'lamiz. Jadid mutafakkiri Fitratning shu davrlarda yaratilgan va XX asr boshi publisistikasining, dramachiligining nodir namunalaridan bo'lib qolgan «Rahbari najot», «Oila», «Begijon», «Mavludi sharif», Abo Muslim «Munozara» kabi asarlari yuqoridagi fikrizmiga namuna bo'la oladi. aks etgan. Bu asarlar ichida eng durdonasi va o'sha davrda usuli jadid maktablarining zarurati hamda buxorolik islohotchilar bilan qadimchilar o'rtasidagi tortishuvlarga nuqta qo'yitish uchun adib tomonidan yozilgan asar «Munozara» edi. U 1909- yilda nashr qilingan. Bu asarda tarixiy taraqqiyotning ikki pog'onasida turib qolgan din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqida ikki xil qarashga ega bo'lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan



edi. “Munozara” asari Buxoro amirligida ta’qiqlab qo’yilishiga qaramasdan, turli yo’llar bilan Buxoroga olib kelinib, keng tarqaladi. Dastlab “Munozara” asari 1911-yilda Hoji Muin Shukrulloh o’g’li tarjimasida “Turkiston viloyatining gazetasi” da, bosib chiqilgan, keyinchalik esa, 1913- yilda Behbudiy so’zboshisi bilan alohida kitob holda nashr qilingan. . Bu asarning ilk tadqiqotchisi va nashr etuvchisi Mahmudxo’ja Behbudiy bo’lgan. Behbudiy bu asarning o’sha paytdagi zamon uchun eng muhim bo’lgan xususiyatlarini ta’kidlab, shunday deydi: “Usuli jadida maktablarni nafli va fununi zamoniya tahsilining buxoriylar uchun luzumi to’g’risida farangi afandi ila mudarris buxoriy janoblarini oralarida bo’lgan bahs va suhbat- “Munozara” isminda bir risola shaklinda forsiy tilg’a tab’ va nashr bo’lubdur. Bizda ko’zdun kechurdukki, haqiqatan buxoriylar uchun nofe’dir. Farangiy va mudarris tilidan bu muhim bahslik risolani tahrir etuvchi vahmi zoing’a arzi tashakkur qilarman, inshoollo, bu risola buxoriylarni uyg’onmoqig’a bois bo’lub, “Munozara” muharririni rahmat ila yod etarlar”¹.

“Ulug’ yunon faylasufi Aflotun asarlari uslubida ya’ni suhbat-bahs uslubida yozilgan ya’ni suhbat-bahs tarzida yozilgan bu asarda faqatgina buxoro emas balki butun Sharq xalqlari shu jumladan Turkistindagi ta’lim tizimiga e’tibor berilib o’tiladi. Asarning nomlanishidan ham anglashilganidek, farangi va buxorolik mudarris bahs-munozara qiladi. Munozara “usuli qadim” va “usuli jadid” maktablari xususida ketsa ham, asarda Buxoro amirligining ma’naviy- ma’rifiy, ta’limiy-tarbiyaviy ahvolidan tashqari, ziyoli ulamolar qatlamining jaholat botqog’iga botganligi, amirlik aholisining naqadar nochor, qashshoqlikda kun kechirishi, amirlikning mustamlakaga aylanib qolganligi va bularga Buxorodagi amirlik tuzumi va Rossiya hukumatining zulmi sabab bo’layotganligi farangi va mudarrisning munozarasi asosida ochib berilgan. Diniy va dunyoviy bilimga ega bo’lgan, dunyo ko’rgan, hattoki, musulmon dinidan xabardor bo’lgan farangi mudarrisning ilmsizligi, johilligidan hayratga tushib, musulmon farzandlarining taqdiri shunday mudarrislar qo’liga tushib qolganligidan afsuslanadi. Mudarrisning oddiy dunyoviy bilimlardan ham xabarsiz kishi ekanligini farangining “Sizning yurtingizda jug’rofiyo o’qimaylarmi?”²- deb bergan savoliga mudarris: “Men bir mudarris bo’lsam, kechalari kitob ko’raman, kunduzlari dars aytaman. Qachon qo’lim tegibdiki, munday hikoyat kitoblarni o’qisam” – deb bergan javobidan ham bilish mumkin. Mudarris dunyo svilizatsiyasidan, taraqqiyotidan xabarsiz, hatto jug’rofiya ilmi haqida ham tasavvurga ega emas. Mudarrisning fikricha: “Hamma ilimli bo’lishi

¹ Mahmudxo’ja Behbudiy “Munozara” haqida. – Turkiston viloyati gazetasi- 1911- y, 29-sentyabr, 73-son

² Fitrat. Tanlangan asarlari. I jild. - T., Ma’naviyat. 2000 – 47-95 b



mumkin emas. Agar hamma olim bo‘lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi.” Demak, hamma ilm bilan mashg‘ul bo‘lsa, boshqa kasblar qolib ketadi va dunyo xarob bo‘ladi. Fitrat farangi tilidan ilmning qudratini, katta kuchga ega ekanligini ta’kidlaydi: “Ilmdirki, Amriqo vahshiylarining qaynashini ushbu darajadagi takomul va buyuklik martabasiga yetkazgan. Ilmdirki, Eron zaminida ziyolilarni yo‘q qilmoqchi bo‘lg‘an ikki otni tanazzul va zillat chohiga qulatg‘an...” Farangi Buxoro o‘tmishda mustaqil, ikki million aholiga ega ekanligini, Amir Muzaffarning mag‘lubiyatidan so‘ng, xalqi uch baravar, yer maydoni o‘n baravarga kamayib ketganligini va Rossiya mustamlakasiga aylanib qolganini, bu jaholat, g‘aflat, ilmsizlik davom davom etaversa, Buxoranoning ahvoli xarob bo‘lishini aytib o‘tadi. Farangining bu so‘zlari mudarrisni ham vahimaga soladi. “Birodar, meni vahimaga qo‘ydingiz, so‘zlaringizning haybatidan jonim tan qolibidan chiqib, parvoz etib ketishiga oz qoldi. Azbaroyi xudo, ayting, bizning ilojimiz nima? Bu dardi bedavoning chorasi qaysi? Qayerg‘a boraylik? Nima qilaylik? Qaysi tuproqni boshimizga sochaylik? Qachon bu falokat holatidan va istiqbol mushkulliklaridan dimog‘imizga xalos bo‘lishlik bo‘yi yetib keladi”. Mudarrisning bunday savollariga javoban, farangi bu jaholat, ilm-ma‘rifatsizlik, g‘aflat, qaramlikdan qutilishning birdan bir yo‘li “usuli jadid” maktablarini ochish ekanligini aytadi. Farangi “usuli jadid” maktabi “usuli qadim”dan keskin farq qilishini, ular o‘rtasidagi farqlarni birma bir sanab o‘tadi. “Usuli jadid” maktablarining afzalliklarini, vaqt kam sarf etilishini, binobarin, ayollar tahsil olishi uchun ham ayni muddao ekanligini, ayollar ta‘lim olsagina, ularning qo‘lida tarbiya topayotgan yosh avlod ham ilmi bo‘lib yetishishini aytib o‘tadi. Buxoroning jaholat botqog‘iga botib, ilmsizlik, zulm avj olib ketgan bu ahvolidan qutulishning yagona yo‘li, najot yo‘li- yangi jadid maktablarini ochib, yangi tahsil usulini joriy qilish edi. Fitrat yurtdoshlarini g‘aflat uyqusidan uyg‘onishga chaqiradi, yevropaliklar yangi-yangi kashfiyotlar qilayotganda, ular bilan qadambaqadam harakat qilishga chorlaydi. Bularga erishish uchun ilm-ma‘rifatga keng yo‘l ochish va yangi jadid maktablarini kengaytirish zarur ekanligini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniy-ma‘naviy saviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan



yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyatboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. "Munozara" asarida ham, yangi jadid maktablarining eski tahsil usulidan farqlarini, afzalliklarini, mamlakat taraqqiyoti, xalq ravnaqi uchun naqadar zarur ekanligini, Buxoro amirligini jaholat botqog'idan qutulishi, bahs-munozaralari yordamida ochib beradi. Bu asar Buxoro uchun chuqur ahamiyat kasb etdi va yangi usuldagi jaded maktablarining yana ochilishiga turtki bo'li.

Yosh avlod haqida tarbiyasi haqida gapirganimizda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istar edim: "Xalqning aniq maqsadi sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq"-deya ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy "Munozara" haqida. – Turkiston viloyati gazetasi-1911-y, 29-sentyabr, 73-son
2. Fitrat. Tanlangan asarlari. I jild. - T., Ma'naviyat. 2000 – 47-95 b
3. A.Z.Validiy To'g'on, Bugungi turk eli Turkiston va yaqin tarixi, 1-jildi, 2-nashri, Istanbul, 1981,586-bet.
4. Abdurauf Fitrat. Chin sevish, T, 1996, 44-46-betlar.
5. "Turkiston viloyatining gazetasi", 1910, 39 son.



PEADAGOGIK SOHADA TEATRNING ZARURLIGI MAHMUDXO'JA BEHBUDIY NIGOHIDA

Mirzaliyeva Zarinabonu Jahongir qizi

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatni ma'rifatli qilish uchun birgina maktab kifoya qilmasligi, balki zamon va dunyo voqealari bilan tanishib borishlik uchun millatimizga teatr zarurligini Behbudiy atroflicha ochib beradi.

Kalit so'zlar: teatr, milliy fojia, Turkiston, padarkush, spektakl, xalq, mafkura, Taraqqiyot, 1911, Tiflis, senzura.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerakligi haqida alohida to'xtalib o'tdi. Xususan, "...2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlandi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"¹, deya alohida ta'kidladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ulkan ilmiy va adabiy merosi, hikmatli o'gitlari bir asrdan oshdiki, xalqimizning ma'naviy hayot yo'lini yoritib kelayotgan mayoqlardandir. Ayniqsa, bu durdonalar yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega.

Masalan, ulug' ma'rifatparvarning **"Teatr – bu ibratxonadir"** degan fikrini olaylik. Chindan ham teatr inson tafakkurini yuksaltirishda, xususan, yoshlarni ezgulikka chorlash, ularda Vatanni sevish, ota-ona, oila va do'stlikni qadrlash, o'z kasbiga fidoiylilik tuyg'ularini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ya'ni u insonga hayotiy saboq beradi. Binobarin, joylarda yoshlarni teatrlarga ko'proq jalb qilish, zamon qahramoni obrazi aks etgan spektakllarni ko'proq yaratish, qolaversa, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning ayanchli oqibatlarini kelajagimiz sohiblariga sahna asarlari orqali yetkazishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Negaki, hamma yoshlar

¹ Shavkat Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.: 2020.



ham qonunchilik normalarini o'qish yoki eshitish bilan qaysidir noqonuniy hatti-harakatning mohiyatini teran anglamasligi mumkin. Ammo real voqealarga asoslangan spektakllarda ilgari surilgan g'oyalar nafaqat yoshlar, balki kattalarning ham qalb tubiga yetib boradi.

Behbudiyning fikricha, ma'rifat uchun faqat maktab kifoya qilmaydi. Millat uchun oyna kerak, toki unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsun. Mana shu haqiqat u kishini teatr tashkil etish, ular uchun asarlar yaratishga undagan. Jadid teatri va dramaturgiyasining muhim xususiyati - uning oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, uni ma'rifiy tarbiyalash va shu orqali jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg'onish g'oyalarini tarannum etishda ko'ringan edi. XX asr o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisalardandir. Shu o'rinda Behbudiyning "Taraqqiy qilgan millatlar teatrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teatrlardur deyurlar. Teatrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof va munaqqidi derlar. Umumiy odatlarni naf'i va zararidan paydo bo'laturgon natijalarni teatrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur²." so'zlari o'rirlidir.

"Padarkush" ning birinchi marta namoyish etilishi o'zbek xalqining madaniy h ayot-ida ulkan voqea sifatida baholash mumkin. Shu kuni o'zbek milliy teatri dunyoga keldi. Behbudiyn birinchi o'zbek dramasi muallifigina bo'lib qolmay, uni sahnalashtirishda ikkinchi rejissyor sifatida ham ishtirok etdi. Asarda o'qimagan bolaning padarkush (ota qotili) ga aylanish jarayoi tasvirlanar ekan, Behbudiyn ilm-fanning shaxsning qanday inson bo'lib shakllanishidagi rolini ko'rsatib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Behbudiyn 1911-yilda "Padarkush" dramasi yozdi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi. Drama tuzilishi 3 parda, 4 manzaradan iborat. Milliy fojiaga asoslangan bu asarni dastlab nashr qilish biroz cheklanadi. Bunga esa o'sha zamondagi davlat tuzumi sabab bo'lgan. Asar mazmuni o'qimagan va johil farzandning o'z otasini o'ldirishi haqida edi. Padarkush so'zining ma'nosi "ota qotili" degan ma'noni beradi. Dramada Boy, uning o'g'li Toshmurod, yangi fikrli Domla, ruscha tahsil olgan Ziyoli, boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili bo'lgan Tangriqul va boshqa obrazlar qatnashadi. Dramaturg ilgari surgan ma'rifatparvarlik g'oyasi shu

² Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Sunnat Axmedov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti:..T – Ma'naviyat, 2004



obrazlarning o‘zaro suhbatlari, bahs-munozaralari jarayonida namoyon bo‘ladi. Behbudiy Boy obrazi orqali pul, mol-dunyoga ega bo‘lgan, ammo farzand tarbiyasi va ilmiga e‘tibor bermagan kimsa sifatida aks ettiradi. Dramadagi boyning eng katta xatosi Ziyoli va Domlaning gapiga quloq solmaganligidadir. Asardagi domla va Ziyolining hayot yo‘llari bir-biriga yaqin. Dramada ikki obraz xususiyatlari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Domla va Ziyoli Boy, Toshmurod, Tangriqul, Toshmurod, Artun obrazlariga qarama-qarshi zidlangan tarzda ifodalanadi. Dramatik asar voqealarini o‘zaro ziddiyat shakllantiradi. Bu vaziyatni ilmlilar va ilmsizlar o‘rtasidagi kurash bilan izohlanadi. Ushbu asar 1911-yilda yozilgan. Oradan ikki yil o‘tgach, ushbu asar kitob holatda chop etiladi. “Turon truppsi 1914-1916 yillarda bu spektakl bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqdi. “Padarkush” Turkistonni junbushga keltirgan qirg‘inbarot inqilob yillarda ham sahnada tushmadi. Bir tomondan, millatni ma‘rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o‘ynagan bo‘lsa, ikkinchi yoqdan professional o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi”³.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu sohadagi ilmiy va adabiy merosi, hikmatli o‘gitlari bir asrdan oshdiki, xalqimizning ma‘naviy hayot yo‘lini yoritib kelayotgan mayoqlardandir. Behbudiy turli davlatlarda yurib tajriba orttirdi. Yangi usul maktablari ochilgani, jadid gazetalari nashri, teatrlar ochilgani, darsliklar yaratilgani, Turkistondagi aql-zakovatli kuchlarning uning g‘oyasi atrofida uyusha boshlashi, madaniyat va adabiyotda yangi tamoyillar, ilg‘or yo‘nalish va oqimning paydo bo‘lgani Mahmudxo‘ja Behbudiyning yanada shijoat bilan faoliyat yuritishga da‘vat etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Sunnat Axmedov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti: T – Ma‘naviyat, 2004
2. Shavkat Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz: 2020.
3. “Turkiston viloyatining gazetasi”, 1910, 39 son.
4. 10. Siddiqiy. Miroti ibrat, Samarqand, 1914.

³ Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Sunnat Axmedov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti: T – Ma‘naviyat, 2004



УЎК:634.9

ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИДАГИ *CRATAEGUS PONTICA* МЕВА ЎЛЧАМЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Б.Н.Райимов

Тошкент давлат аграр университети

rayimovbehruz94@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада сариқ дўлана мева ўлчамларининг ўзгариши бўйича тадқиқотлар натижалари келтириб ўтилган. Тадқиқот ишлари Понтика дўланаси (*Crataegus pontica* С.Коч) да олиб борилиб, унинг танланган шакли назорат варианты ва бошқа шакллардан мева диаметри бўйича 11,8-18,7%, мева узунлиги бўйича 13,3%, мева оғирлиги бўйича 33,3-45,4%, уруғ оғирлиги бўйича 14,3-33,3%, мағиз чиқиш кўрсаткичи бўйича 2,0-4,6% га тенг бўлди.

Калит сўзлар: Понтика дўланаси (*Crataegus pontica* С.Коч), уруғ оғирлиги, мева оғирлиги, мева диаметри, мева узунлиги, мағиз чиқиш кўрсаткичи, қизил дўлана, интродукциялаш, тоғ ёнбағирлари, назорат варианты.

АННОТАЦИЯ

В статье упоминаются результаты исследований по изменению размеров плодов боярышника желтого. Исследования проведены на боярышнике понтийском (*Crataegus pontica* С. Koch), выделенная форма которого составила 11,8-18,7 % диаметра плода, 13,3 % длины плода и 33,3 % массы плода, 45,4 %, 14,3-33,3 % по массе семян, 2,0-4,6% по выходу ядра.

Ключевые слова: боярышник понтийский (*Crataegus pontica* С. Koch), масса семян, масса плода, диаметр плода, длина плода, индекс урожайности плода, боярышник красный, интродукция, склоны холмов, вариант контроля.

ANNOTATION

In the article, the results of research on changes in the size of yellow hawthorn fruits are mentioned. The research work was carried out on Pontic hawthorn (*Crataegus pontica* С. Koch), and its selected form was 11.8-18.7% of fruit diameter, 13.3% of fruit length, and 33.3% of fruit weight. 45.4%, 14.3-33.3% by seed weight, the core was equal to 2.0-4.6% in terms of the output seed indicator.



Key words: Pontic hawthorn (*Crataegus pontica* C. Koch), seed weight, fruit weight, fruit diameter, fruit length, fruit yield index, red hawthorn, introduction, mountain slopes, control variant.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2017 йил 11 майда тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси ўрмон хўжалиги давлат кўмитасини ташкил этиш тўғрисида” ги 5041 сонли фармонида манзарали, мевали дарахтлар ва бута кўчатлари етиштириш, доривор ўсимликлар плантацияларини яратиш, тоғ ёнбағирларида, чўл ва лалми ерларда етиштириладиган, қурғоқчиликка, касаллик ва зараркунандаларга чидамли бўлган ўсимликлар селекцияси ва уруғчилиги бўйича илмий-тадқиқотлар олиб боришга алоҳида эътибор қаратилган [1].

Ўзбекистондаги тоғолди лалмикор текисликларининг катта қисми табиий-географик шароити туфайли ўрмонсиздир. Бу майдонни ўрмонлаштириш муаммосини хал этишда маданий ўрмонлар яратишга катта аҳамият берилмоқда.

Барча давлатлардаги каби Ўзбекистонда ҳам аҳолининг формацевтика махсулотларига эҳтиёжи бор. Бу борадаги эҳтиёжи айниқса мустақилликни дастлабки йилларида яққол сезилади. Шу сабабли ҳукуматимиз раҳбарияти бу соҳада чет эл билан ҳамкорликда турли дори дармон ишлаб чиқарувчи кўшма корхоналар бунёд этила бошлади. Формацевтика саноати ривожланиб дори дармон билан савдо қилиш ишлари йўлга қўйилди. Табиийки бу нарсалар четдан катта валюта эвазига олиб келинадиган дори дармонларнинг қисқаришига сабаб бўлиши билан бирга, ҳам ашёга бўлган эҳтиёжини орттиришга сабаб бўлди. Бизга маълумки Ўзбекистоннинг чўл даштлари ва тоғларида жуда қимматбаҳо бўлган кучли хил дарахт ва буталар, гиёхлар ўсади. Буларни ўз вақтида териб, қайта ишлаб, қадоқлаб, дори дармон ишлаб чиқарувчиларга этказиш, ҳамда чет элда ўсадиган доривор ўсимликларни маҳаллий шароитларда интродукциялаш ва етиштиришни турли йўллари илмий асосланган ҳолда амалга ошириш лозим. Маълумки инсон қўли билан экилиб, парваришлаб етиштирилган ўрмонлар ва ўрмон махсулотлари табиий ва яхши сифат белгилари билан ҳам ажралиб туради. Шунинг учун саноат даражасида доривор ва озиқ овқат ўсимликларини етиштиришда парваришлаш ўстириш ва агротехник тадбирларни амалга оширишда дала тажрибасини билган ҳолда илмий асосланиб барча ишларни амалга ошириш мумкин.



Шундагина олдинга қўйилган вазифаларни бажариб Янги Ўзбекистонни янада ривожлантиришга ўз хиссамизни қўшган бўламиз.

Республикада дўлана табиий тарқалган ҳудудларни аниқлаш, туркум таркибидаги турлар биохилмаҳиллиги ва дўланазорларнинг табиий тикланиш кўрсаткичлари бўйича тадқиқотлар натижалари келтириб ўтилган. Ўрганиш натижасига кўра, Республикада ҳудудидаги дўланазорлар асосан жанубий вилоятларда тарқалган бўлиб, ушбу майдонларда Понтика (*Crataegus pontica* С.Коч) ва қизил дўлана (*Crataegus turkestanica* Ројарк.) турлари мавжуд [4].

Тадқиқот объекти ва услубияти. Тажриба ишлари Ўзбекистон ҳудудининг жанубида жойлашган Ҳисор тоғ тизмасида олиб борилди. Дўлананинг тавсифи, биологик, экологик хусусиятлари ва табиий тарқалиш ареали адабий манбаларни таҳлил этилган ҳолда ўрганилади. Бунда ушбу дарахтнинг баландлиги, диаметри, вегетатив ва генератив органларининг тузилиши бўйича маълумотлар келтириб ўтилади. Шу билан бирга унинг ташқи муҳит омилларига муносабати ўрганилган ҳолда дарахтнинг экологик хусусиятларига тавсиф берилди.

Ҳисор тоғ тизмасидаги дўланазорлар тоғли ҳудудларида асосан, Сиёб, Мингчинор, Матмон ўрмончилик бўлимида кенг тарқалган. Ўрмончилик бўлимида бўйича таҳлил этилганда, Матмон ўрмончилик бўлимида сариқ дўлана (*Crataegus pontica* С.Коч), Мингчинор ўрмончилик бўлимида Туркистон ёки қизил дўлана (*Crataegus turkestanica* Ројарк.), Сиёб ўрмончилик бўлимида эса сариқ ва қизил дўлана турлари тарқалган [2-3]. Ўрганиш натижасида меваларининг оғирлиги диаметри бўйича 1,6-1,9 см, узунлиги бўйича 1,3-1,5 см, мева оғирлиги 2,2-3,2 гр, уруғ оғирлиги 0,6-0,8 г, ҳамда мағиз чиқиш кўрсаткичи 71,3-75,9% ни ташкил этди.

Ўзбекистон жанубидаги сариқ дўлана мева ўлчамларининг ўзгариш кўрсаткичлари

№	Тажриба вариантлари	Мева диаметри, см	Мева узунлиги, см	Мева оғирлиги, гр	Уруғ оғирлиги, гр	Мағиз чиқиш кўрсаткичи, %
1	1 (назорат)	1,6±0,01	1,3±0,01	2,2±0,05	0,6±0,01	73,9±0,58
2	2	1,9±0,01	1,5±0,01	3,2±0,05	0,8±0,01	75,9±0,26
3	3	1,7±0,01	1,5±0,01	2,4±0,05	0,7±0,01	71,3±0,41
4	4	1,7±0,01	1,5±0,01	2,5±0,04	0,7±0,01	72,9±0,37
4	4	1,7±0,01	1,5±0,01	2,5±0,04	0,7±0,01	72,9±0,37



Тажриба вариантларидаги сариқ дўлана меваларининг диаметри $1,6 \pm 0,01$ дан $1,9 \pm 0,01$ см гача ўзгариб, 2 – тажриба вариантыдаги кўрсаткич назорат вариантыдан 18,7% га, мева оғирлиги 45,4%, мағиз чиқиш даражаси эса 2,0% га юқори бўлди.

Хулоса. Олиб борилган кузатувлар таҳлили шуни кўрсатадики, Китоб давлат ўрмон хўжалиги ҳудудидаги танлаб олинган шакллар орасидаги 2 – тажриба вариантыдаги кўрсаткич назорат вариантыдан 18,7% га, мева оғирлиги 45,4%, мағиз чиқиш даражаси эса 2,0% га юқори бўлди. Илмий изланишларимиз натижасида сариқ дўлана ўсимлиги ҳозирги кунда долзарб ўсимлик эканлига ва кенг миқёда кўпайтириш кераклигини ўргандик. Шу жумладан бу ўсимлик Қизил китобга киритилганлиги бунга яққол мисол бўлаолади.

Фойдаланилган Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 11 майдаги “Ўзбекистон республикаси ўрмон хўжалиги давлат кўмитасини ташкил этиш тўғрисида” ПФ-5041 сонли фармони.
2. Шайматов О.А., Холиқов Д.М. Китоб ўрмон хўжалигидаги сариқ ва қизил дўлана турларининг тарқалиши. // Жанубий Оролбўйи биологик хилма-хиллигини сақлаш, қайта тиклаш ва муҳофаза қилишнинг экологик масалалари номли халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Нукус 2018. 285-286 б.
3. Ҳамроев Ҳ.Ф., Холиқов Д.М. Ўзбекистон жанубидаги сариқ дўлана биохилмахиллиги ва унинг меваларининг морфологик кўрсаткичлари // Сборник материалов научно-практической конференции «Инновационные подходы в использовании агробιοразнообразия в устойчивом развитии сельского хозяйства» 25-26 сентября. 2019. Ташкент 2019, 117-121 б.
4. Khamroyev Kh.F., Rayimov B.N. Indicators Of Natural Recovery Of Hawthorn In Southern Uzbekistan. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119 2021 Vol. 25 No. 2 March 2021, pp. 266-270
5. Bexruz Ne'mat o'g'li, R. (2022, oktyabr). HISOR TOG' TIZZASIDAGI QIZIL DOLANA (CRATAEGUS TURKESTANICA POJARK.) TABIIY TAYTALANISH KO'RSATMALARI. *Konferentsiyalar arxivida* (244-248-betlar).
6. Rayimov, B. N. (2023). Hawthorn (Crataegus) jinsi vakillarining yashash joylarini va ularning taksonomik xususiyatlarini aniqlash.



DATA MININGDA SEMMA METODOLIGIYASI TASNIFI

Sanayev Mashrab Eshquvvat o'g'li

E-mail: sanayevmashrab@gmail.com

O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti, Assistent

Buriyev Zayniddin Elmurza o'g'li

E-mail: buriyevzayniddin5@gmail.com

O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti, Talaba

Alisherov Boburjon Anvar o'g'li

E-mail: alisherovbobur@gmail.com

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, Talaba

Annotatsiya

Bu maqola, ma'lumotlar tahlili va data mining sohasida SEMMA (Sample, Explore, Modify, Model, Assess) metodologiyasini ta'riflash va tavsiflashga bag'ishlangan. SEMMA metodologiyasi, ma'lumotlarni sinovdan o'tkazishdan boshlab, ulardan model yaratish va baho olish jarayonlarini tuzishda qo'llaniladi. Maqola, bu metodologiyani tushuntirib, har bir bosqichning ahamiyatini, faoliyatlarini va bu usulning ma'lumotlar tahlilida qanday yordam bera olishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: SEMMA, Namuna olish, Tahlil qilish, O'zgartirish, Model, Baholash

KIRISH

Semma (SEMMA) metodologiyasi, ma'lumotlarni sinovdan o'tkazish va ma'lumotlar tahlil qilish jarayonlarini tuzish uchun ishlatiladigan tizimli va tartiblangan usuldir. SEMMA, SAS (Statistical Analysis System) kompaniyasi tomonidan rivojlantirilgan va boshqa statistik tahlil va ma'lumotlar tahlili vositalarining ishlatilishi orqali yirik ma'lumotlar tizimlarini tahlil qilish uchun mo'ljallangan. Metodologiyada "SEMMA" so'zi, quyidagi tartibda foydalanilgan jarayonlarni anglatadi:

Sample (Namuna olish): Boshlanishi esa ma'lumotlar tahlili uchun namuna (sample) olishni talab qiladi. Bu jarayon, umumiy ma'lumotlardan olinadigan namunani tuzish va uni tahlil qilishda yordam bera olish uchun muhimdir.



Explore (Tahlil qilish): Ushbu bosqichda, olingan namuna orqali ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan ana shu paytdagi ma'lumotlarni olish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda, ma'lumotlar o'zining asosiy xususiyatlarini va xususiyatlarni o'rganish uchun amaliyotlar bajariladi.

Modify (O'zgartirish): Bu bosqichda, tahlil qilingan ma'lumotlar asosida ana shu paytdagi qiyosiy va qat'iy natijalarga yetishish uchun ma'lumotlarni o'zgartirishlar kiritish mumkin. Bu, ma'lumotlar ustida aniqroq tahlil qilish, ma'lumotlar qo'llashning yaxshi usullari, yoki ma'lumotlarni ilgari tuzilgan ma'lumotlar bilan bog'liqligini aniqlash uchun amaliyotlar tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Model (Model): Ushbu bosqichda, tahlil qilingan ma'lumotlar asosida model yaratiladi. Model, ma'lumotlar o'rtasidagi munosabatlarni, qonunlarini yoki tartiblanganligini tasavvur qiladi. Bu, prognoslash va sinflandirish, olingan natijalarga ko'ra boshqa ma'lumotlar olish uchun yorliq bo'ladi.

Assess (Baholash): Modelni baholash bosqichida, yaratilgan modelning ishlashiga o'xshashligini baholash uchun yordam bera olish maqsadga muvofiq sinovlarni o'tkazishni talab qiladi. Bu, modelning taxminiy natijalari bilan amal qilishining samarali bo'lishini ta'minlashda yordam bera oladi.

SEMMA metodologiyasi ma'lumotlar tahlili va dataming sohasida umumlashtirilgan usullardan biri bo'lib, shuningdek, bir nechta tahlil vositalarining ishlatilishini o'z ichiga oladi. U, ma'lumotlar ustida qo'llaniladigan bir nechta modellarni yaratishda va ularni baholashda yordam bera olishda samarali bo'lishi sababli ommabopdir. SEMMA metodologiyasining har bir bosqichining ma'lumotlar tahlili jarayonida qanday qo'llanilishi, bu bosqichlardan olingan natijalar, va bu metodologiyani muvofiq tuzishda nima qanday maslahatlar berishning ahamiyatini ko'rsatadi. SEMMA, ma'lumotlar tahlili va datamingda muvaffaqiyatli ishlovchi va yorliq metodologiyasi sifatida ommalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Naim o'g'li M. D., Abdishukur o'g'li S. A. THE NUMPY LIBRARY OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IS AN OPTIMAL SOLUTION FOR WORKING WITH ARRAYS //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 195-197.
2. Naim o'g'li M. D., Baxtiyor o'g'li E. S. DATA SCIENCE METHODOLOGY IN LEARNING PROGRAMMING //JOURNAL OF INNOVATIONS IN



- SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 207-210.
3. Amanbayevna A. S., Naim o'g'li M. D. GEOMETRIC MODELING AND VISUALIZATION OF SELF-SIMILAR STRUCTURES BASED ON FRACTAL THEORY //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 187-188.
 4. Naim o'g'li M. D., Baxtiyor o'g'li E. S. KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHDA CRISP-DM USULLARINI QO'LLASH //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 211-216.
 5. Baxtiyor o'g'li E. S., Naim o'g'li M. D. YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALNING TRANSPORT BO'LIMINI IDF0, DFD VA IDF3 SATANDART DIAGRAMMARI YORDAMIDA YARATILGAN LOYIHASI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 198-206.
 6. Doston M., Abdulatif S. SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI SOHALARDA QO 'LLANILISHI //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 144-147.
 7. Javlon X. et al. Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 6. – С. 352-357.
 8. Naim o'g'li M. D., Xasan o'g'li A. M. CLASSIFICATION OF CRISP-DM METHODOLOGY IN DATA ANALYSIS //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 220-222.
 9. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, and Qudratov Akbar Akmal o'g'li. "ROLAP VA DATA MINING INTEGRATSIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 1.1 (2023): 233-236.
 10. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, and RASHIDOV BOYSARI TO'RA O'G. "STREAM DATA MINING VA REAL VAQT TAHLILI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 1.1 (2023): 217-222.
 11. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, ALISHEROV BOBURJON ANVAR O'G'LI, and SAFAROV ULUG'BEK ANORBOY O'G. "OLAP VA DATA MINING INTEGRATSIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 1.1 (2023): 229-232.
 12. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, SAFAROV ULUG'BEK ANORBOY O'G, and G'ANIYEV SOBIR QODIR O'G. "DATA MINING KLASSIFIKATSIYA VA KLAUSTERIZATSIYA." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 1.1 (2023): 223-228.



13. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, and Shermuhammedov Abdulatif Abdishukur o'g'li. "THE NUMPY LIBRARY OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IS AN OPTIMAL SOLUTION FOR WORKING WITH ARRAYS." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 5.4 (2022): 195-197.
14. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, and Ergashev Sirojiddin Baxtiyor o'g'li. "KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHDA CRISPR-USULLARINI QO'LLASH." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 5.4 (2022): 211-216.
15. Baxtiyor o'g'li, Ergashev Sirojiddin, and Muxtorov Doston Naim o'g'li. "YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALNING TRANSPORT BO'LIMINI IDF0, DFD VA IDF3 SATANDART DIAGRAMMARI YORDAMIDA YARATILGAN LOYIHASI." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 5.4 (2022): 198-206.
16. Yusupovich X. J. BEMORLARNING SHIFOKOR YOZGAN RETSEPTI BOYICHA DORILARNI QABUL QILGANLIK DARAJASINI ANIQLASH AVTOMATIK TIZIMNI YARATISH //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 223-234.
17. Бурнашев В. Ф., Холматов Ж. Ю. МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ГИДРОДИНАМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ МНОГОФАЗНОЙ ФИЛЬТРАЦИИ В НЕФТЯНОМ ПЛАСТЕ ПРИ ЕГО ЗАВОДНЕНИИ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 137-154.
18. Kholmatov Javlon, & Mustafoyev Erali. (2023). STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 136–141.



MA'LUMOTLARNI SINFLASHTIRISHDA BIRCH ALGORITMI AHAMIYATI

Sanayev Mashrab Eshquvvat o'g'li

E-mail: sanayevmashrab@gmail.com

O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti

Aniq fanlar kafedrası assistenti

Jalilov Shavkat Shodiyor o'g'li

E-mail: shavkatjalilov6465@gmail.com

O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti

Toshtemirov Abdumalik Raxmonqul o'g'li

E-mail: abdumaliktoshtemirov@gmail.com

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, Talaba

Annotatsiya

Bu maqola BIRCH (Balanced Iterative Reducing and Clustering using Hierarchies) algoritmini ma'lumotlarni sinflashtirish uchun qanday qo'llanishni va uning ahamiyatini tahlil qiladi. Ma'lumotlar tizimlari kundalik hayotimizda o'rnatilgan vaqtincha ma'lumotlarning ko'plab qismini o'z ichiga oladi. Bu ko'plab ma'lumotlar bilan ishlashda, ularni tuzish va sinflashtirish muhimdir. BIRCH algoritmi, massiv ma'lumotlarini avlodlarga bo'lish va sinflashtirishda yaxshi natijalar olish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: BIRCH, cluster feature, clusters, Cluster Feature Tree, Dendrogramma, Ballar soni, Chiziqli summalar, Kvadrat qiymatlar yig'indisi

KIRISH

BIRCH (Balanced Iterative Reducing and Clustering using Hierarchies) algoritmi, massiv ma'lumotlarini tezkor va samarali ravishda sinflashtirish uchun mo'ljallangan algoritm bo'lib, avlodlarga bo'lish va ma'lumotlarni tuzishda yuqori samarali natijalar olishga xizmat qiladi. BIRCH algoritmi avlodlarni tuzishda "qavs" (cluster feature) va "qavslar" (clusters) deb nomlangan asosiy qo'llaniladigan elementlardan foydalanadi. Qavs, ma'lumotlar o'rtasidagi o'lcham va joylashuvi haqida umumiy ma'lumotlar to'plamini ifodalaydi. Avlodlar esa ma'lumotlar tuzilishini avtomatik ravishda ifodalaydi. Algoritm avlodlarni tuzishda "CF Tree" (Cluster Feature Tree) dan foydalanadi. Bu daraxt, boshlang'ich ma'lumotlarni RCC (root cluster feature) ga bog'lab, keyinchalik qavs va qavslarning qo'shimcha



ma'lumotlarini bog'lash orqali hosil qilinadi. Dendrogramma, avlodlarning bir-biri bilan o'zaro bog'lanishini va ma'lumotlar o'lchami va joylashuvi haqida ma'lumotlarni ko'rsatadi.

BIRCH algoritmi avlodlarni yaxshi taxlashda muhim ma'lumotlarni saqlaydi. Qavs va qavslarning o'lcham va joylashuvi xususiyatlari, avlodlarni ideal ravishda tuzishda yordam beradi. Algoritmdan olingan natijalar esa avlodlar va ma'lumotlar o'lchami bo'yicha o'zaro aloqani yaxshi aniqlashga imkon beradi. Shuningdek yirik ma'lumotlar bilan ishlashda samarali bo'lishi sababli, katta miqdordagi ma'lumotlar bilan ishlovchi. Bu esa masofaviy tashqaridagi ma'lumotlar, yozuvlar va avlodlar uchun idealdir. Algoritm ayni paytda tezkor va kichik xotira talabini bajaradi. BIRCH, ishtirokchi algoritmlar bilan hamqadam bo'lishi mumkin. Bu esa avlodlarni yaxshi tuzishda va sinflashtirishda yordam beradi. Algoritm, ma'lumotlarni tezkor va samarali ravishda sinflashtirishda muhim vazifalarni bajaradi. BIRCH algoritmi, massiv ma'lumotlarni sinflashtirishda avtomatik tuzish va yaxshi taxlash imkoniyatlarini ta'minlashda o'zini ko'rsatadi. U, yirik ma'lumotlar bilan ishlash, ishtirokchi algoritmlar bilan qo'llanish va kichik xotira talabini bajarish kabi asosiy qo'llaniladigan elementlarga ega bo'lib, masofaviy tashqaridagi ma'lumotlarni boshqarishda samarali yechimdir.

BIRCH algoritmidagi CF ning ahamiyati nimada?

BIRCH zich hududlarda joylashgan ma'lumotlarni Klasterlash xususiyati (CF) yozuvlari sifatida umumlashtirish orqali katta ma'lumotlar to'plamining xotira talablarini minimallashtirishga harakat qiladi. CF daraxti ma'lumotlar to'plamining juda ixcham tasviridir, chunki barg tugunidagi har bir yozuv bitta ma'lumot nuqtasi emas, balki kichik klasterdir. Har bir barg bo'lmagan tugunda eng ko'p B yozuvlari mavjud. Shu nuqtai nazardan, bitta yozuvda bola tuguniga ko'rsatgich va boladagi CF lar yig'indisidan tashkil topgan CF (kichik klasterlarning kichik guruhleri) mavjud. Boshqa tomondan, barg tugunida eng ko'p L yozuvlar mavjud va har bir yozuv CF (ma'lumotlar nuqtalarining kichik guruhleri) hisoblanadi. Barg tugunidagi barcha yozuvlar chegara talabini qondirishi kerak. Ya'ni, har bir barg kirishining diametri Eshik qiymatidan kichik bo'lishi kerak. Bundan tashqari, har bir barg tugunida oldingi va keyingi ikkita ko'rsatkich mavjud bo'lib, ular samarali skanerlash uchun barcha barg tugunlarini bir-biriga bog'lash uchun ishlatiladi.

BIRCH klasterlashda qanday statistik ma'lumotlardan foydalaniladi?

BIRCH tomonidan qo'llaniladigan klasterlash xususiyatlari - bu yangi ma'lumotlar bilan osongina yangilanishi mumkin bo'lgan oddiy umumiy statistika:

Ballar soni,



Chiziqli summalar,
Kvadrat qiymatlar yig'indisi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Naim o'g'li M. D., Abdishukur o'g'li S. A. THE NUMPY LIBRARY OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IS AN OPTIMAL SOLUTION FOR WORKING WITH ARRAYS //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 195-197.
2. Naim o'g'li M. D., Baxtiyor o'g'li E. S. DATA SCIENCE METHODOLOGY IN LEARNING PROGRAMMING //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 207-210.
3. Amanbayevna A. S., Naim o'g'li M. D. GEOMETRIC MODELING AND VISUALIZATION OF SELF-SIMILAR STRUCTURES BASED ON FRACTAL THEORY //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 187-188.
4. Naim o'g'li M. D., Baxtiyor o'g'li E. S. KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHDA CRISP-DM USULLARINI QO'LLASH //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 211-216.
5. Baxtiyor o'g'li E. S., Naim o'g'li M. D. YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALNING TRANSPORT BO'LIMINI IDF0, DFD VA IDF3 SATANDART DIAGRAMMARI YORDAMIDA YARATILGAN LOYIHASI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 198-206.
6. Doston M., Abdulatif S. SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI SOHALARDA QO'LLANILISHI //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 144-147.
7. Javlon X. et al. Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 6. – С. 352-357.
8. Naim o'g'li M. D., Xasan o'g'li A. M. CLASSIFICATION OF CRISP-DM METHODOLOGY IN DATA ANALYSIS //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 220-222.
9. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, and Qudratov Akbar Akmal o'g'li. "ROLAP VA DATA MINING INTEGRATSIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 1.1 (2023): 233-236.



10. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, and RASHIDOV BOYSARI TO'RA O'G. "STREAM DATA MINING VA REAL VAQT TAHLILI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 1.1 (2023): 217-222.
11. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, ALISHEROV BOBURJON ANVAR O'G'LI, and SAFAROV ULUG'BEK ANORBOY O'G. "OLAP VA DATA MINING INTEGRATSIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 1.1 (2023): 229-232.
12. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, SAFAROV ULUG'BEK ANORBOY O'G, and G'ANIYEV SOBIR QODIR O'G. "DATA MINING KLASSIFIKATSIYA VA KLASTERIZATSIYA." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 1.1 (2023): 223-228.
13. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, and Shermuhammedov Abdulatif Abdishukur o'g'li. "THE NUMPY LIBRARY OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IS AN OPTIMAL SOLUTION FOR WORKING WITH ARRAYS." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 5.4 (2022): 195-197.
14. Naim o'g'li, Muxtorov Doston, and Ergashev Sirojiddin Baxtiyor o'g'li. "KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHDA CRISP-DM USULLARINI QO'LLASH." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 5.4 (2022): 211-216.
15. Baxtiyor o'g'li, Ergashev Sirojiddin, and Muxtorov Doston Naim o'g'li. "YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALNING TRANSPORT BO'LIMINI IDF0, DFD VA IDF3 SATANDART DIAGRAMMARI YORDAMIDA YARATILGAN LOYIHASI." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 5.4 (2022): 198-206.
16. Yusupovich X. J. BEMORLARNING SHIFOKOR YOZGAN RETSEPTI BOYICHA DORILARNI QABUL QILGANLIK DARAJASINI ANIQLASH AVTOMATIK TIZIMNI YARATISH //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 223-234.
17. Бурнашев В. Ф., Холматов Ж. Ю. МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ГИДРОДИНАМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ МНОГОФАЗНОЙ ФИЛЬТРАЦИИ В НЕФТЯНОМ ПЛАСТЕ ПРИ ЕГО ЗАВОДНЕНИИ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 137-154.
18. Kholmatov Javlon, & Mustafoyev Erali. (2023). STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 136–141.



DATA MININGDA CRISP-DM METODOLIGIYASI TASNIFI

Muxtorov Doston Naim o'g'li

E-mail: dmuxtorov062@gmail.com

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, Talaba

Sanayev Mashrab Eshquvvat o'g'li

E-mail: sanayevmashrab@gmail.com

O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti, Assistent

Narzikulov Nodirbek Xamrobek o'g'li

E-mail: narzikulovnodir@gmail.com

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, Talaba

Annotatsiya

"CRISP-DM" (Cross-Industry Standard Process for Data Mining) – bu ma'lumotlar chiqarishda amal qilingan tizimli usulni tashkil etuvchi metodologiya. Bu metodologiya tashkil etish, tahlil qilish va ma'lumotlar chiqarish jarayonlari uchun yagona standartni taqdim etadi

Kalit so'zlar: Modeling, Namuna olish, Ma'lumotlarni aniqlash, Ma'lumotlar Modelini Baholash,

KIRISH

CRISP-DM (Cross-Industry Standard Process for Data Mining), ma'lumotlar do'koni tahlilini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan bo'lgan standart metodologiya tizimidir. Bu metodologiya, ma'lumotlar tahlili loyihalari uchun boshqaruvning har bir bosqichini belgilab chiqadi. CRISP-DM yoki ma'lumotlar do'koni tahlili jarayoni quyidagi besh bosqichdan iborat:

Ma'lumotlar Tahlilining Tushunchalari (Business Understanding): Bu bosqichda loyihaning mohiyati, maqsadi, ma'lumotlar tahlilini olib chiqishga qaratilgan maqsadlar va boshqa biznes va ma'lumotlar bilan bog'liq tushunchalar aniqlanadi.

Ma'lumotlarni aniqlash (Data Understanding): Bu bosqichda mavjud ma'lumotlar, ularning manzili, shakli, qanday olinishlari, omborlanish shakllari va xususiyatlari to'g'risida tushunchalar, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun qo'llaniladigan muhim ma'lumotlarni aniqlash shart.

Ma'lumotlar Tuzilishi (Data Preparation): Bu bosqichda olingan ma'lumotlarni tahlil uchun tayyorlash jarayoni o'tkaziladi. Bu, ma'lumotlarni



to'plangan, to'plangan ma'lumotlarni o'chirish, ma'lumotlarni ishlash, tuzatish, birlashtirish va boshqa amallarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlar Modelini Tuzilishi (Modeling): Bu bosqichda ma'lumotlar analitik modellarga o'zgaradi. Bu modellar ma'lumotlarni tahlil etishda va maqsadga muvofiq topilgan ma'lumotlarni qisqa muddat ichida tushunarli natijaga olib chiqishda qo'llaniladi.

Ma'lumotlar Modelini Baholash (Evaluation): Bu bosqichda olingan modelni sinovdan o'tkazish, natijalarni baholash va aniqlangan natijalarning maqsadga muvofiqligini tekshirish jarayoni o'tkaziladi. Agar natijalar maqsadlarni bajarib chiqmasa, modelni qayta tuzatish va baholash lozim bo'ladi.

Ma'lumotlar Modelini Amalga Oshirish (Deployment): Agar ma'lumotlar modeli muvofiq baholangan bo'lsa, uni amalga oshirish bosqichi o'tkaziladi. Model odatda real hayotda ishlash uchun boshqa ilovalar yoki tizimlar bilan integratsiya qilinadi. CRISP-DM metodologiyasi tahlilchi va modelni tuzish bosqichlari orasida amaliy ishlarni tashkil etish, muvofiq miqdordagi ma'lumotlarni olish va ularni tuzatish, modelni o'rganish va tuzilish, natijalarni baholash, va so'ng modelni amalga oshirish bosqichlarini tizimga olib kiradi. "Ma'lumotlar Tahlilining Tushunchalari" (Business Understanding) - bu CRISP-DM metodologiyasining birinchi bosqichi. Bu bosqichda, ma'lumotlar tahlili loyihasi uchun asosiy maqsadlar va talablar aniqlanadi. Asosiy mazmuni quyidagicha: Biznesda muammolar va talablar: Loyiha boshlashdan oldin, shuningdek, o'tkazmoqchi bo'lgan biznes muammolarini tushunish lozim. Bu muammolar qanday ma'lumotlardan foydalanilishi orqali yechilishi mumkinligini bilishni talab qiladi. Maqsadlar va o'zgarishlarni aniqlash: Loyiha uchun aniq maqsadlar belgilanadi. Bu maqsadlar biznes muammolari yoki biznes bosqichlari yechishga qaratilgan. Ma'lumotlar tahlili loyihasi bu maqsadlarni qanday bajarishi kerakligini aniqlaydi.

Ma'lumotlardan olingan foyda: Ma'lumotlar tahlili natijasida olinadigan foyda va farqni tushunish. Bu, ma'lumotlar tahlili natijalari orqali nima o'rganish va qanday qadamda ishlaydigan bo'lishi kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Resurslar va cheklovlar: Ma'lumotlar tahlili loyihasi uchun kerakli resurslar va cheklovlar (finans, odam resurslari, vaqt, ma'lumotlar resurslari) belgilanadi. Bu, loyihaning amalga oshirilishi uchun kerakli imkoniyatlarni va qo'llaniladigan voqealarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Boshqa shartlar: Boshqa talablar va shartlar, masalan, ma'lumotlar xavfsizligi, qonunchilikni saqlash, yashirin ma'lumotlarni saqlash shartlari va boshqalar kabi muhim ko'nikmalarni qamrab oladi.



"Ma'lumotlarni aniqlash" (Data Understanding) - bu CRISP-DM metodologiyasining ikkinchi bosqichi. Bu bosqichda tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlarni tuzish, tahlil qilish va natijalarni olish uchun ma'lumotlar bilan tanishish jarayoni o'tkaziladi. Quyidagi nuqtalarni o'z ichiga oladi: Ma'lumotlar tuzilishi: Bu qismatda loyihaning maqsadlariga qarab ma'lumotlar tuzilishi va ko'rsatkichlari tavsiflanadi. Ma'lumotlar qanday formatda saqlanmoqda, ular qanday olinmoqda, va ularning umumiy miqdori qancha ekanligi haqida to'liq ma'lumot beriladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun tayyorlash: Bu bosqichda, kerakli ma'lumotlarni olish, yig'ish, va o'rganish jarayonlari tavsiflanadi. Bu jarayonlar orqali tahlilchi, tahlil qilish uchun ma'lumotlarni tayyorlashga va ulardan olingan ma'lumotlarni aniqlashga tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Naim o'g'li M. D., Abdishukur o'g'li S. A. THE NUMPY LIBRARY OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IS AN OPTIMAL SOLUTION FOR WORKING WITH ARRAYS //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 195-197.
2. Naim o'g'li M. D., Baxtiyor o'g'li E. S. DATA SCIENCE METHODOLOGY IN LEARNING PROGRAMMING //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 207-210.
3. Amanbayevna A. S., Naim o'g'li M. D. GEOMETRIC MODELING AND VISUALIZATION OF SELF-SIMILAR STRUCTURES BASED ON FRACTAL THEORY //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 187-188.
4. Naim o'g'li M. D., Baxtiyor o'g'li E. S. KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHDA CRISP-DM USULLARINI QO'LLASH //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 211-216.
5. Baxtiyor o'g'li E. S., Naim o'g'li M. D. YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALNING TRANSPORT BO'LIMINI IDF0, DFD VA IDF3 SATANDART DIAGRAMMARI YORDAMIDA YARATILGAN LOYIHASI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 198-206.
6. Doston M., Abdulatif S. SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI SOHALARDA QO'LLANILISHI //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 144-147.
7. Javlon X. et al. Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 19. – №. 6. – C. 352-357.



8. Naim o'g'li M. D., Xasan o'g'li A. M. CLASSIFICATION OF CRISP-DM METHODOLOGY IN DATA ANALYSIS //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 220-222.
Bu davrda ilm-fan sohasida ham katta ishlar amalga oshirilgan. Har qanday jamiyat va davlat taraqqiyoti va kelajagini fan va madaniyat ravnaqisiz tasavvur qilib bo'lmashligini Amir Temur yaxshi tushungan. Shuningdek iste'dod egalari maxsus va doimiy e'tiborga muhtoj va loyiq bo'lishlari, noyob qobiliyat egalarini muhofaza qilish, ijodlari uchun sharoit yaratish, turmushlarini ta'minlash zarurligini yaxshi anglagan. Amir Temur olimu fozillar o'z maslakhatlari va dunyoqarashi yuzasidan jamiyat va davlat taraqqiyoti, zamonaviy ahvoli xususida boshqa ijtimoiy tabaqalarga nisbatan ko'proq bosh qotirishlari va bu orqali tegishli tajriba va bilimlarga ega bo'lib borishlarini yodda tutgan. Shu ma'noda Ibn Arabshohning quyidagi bayoni e'tiborli: "Amir Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, o'z ikromi hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bu bahsida insofu hashamat bo'lardi"[4:69]

Biroq shu bilan birga mazkur omillarni yuzaga chiqarish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun yana bir muhim omil mavjud bo'lishini ham Sohibqiron yaxshi bilardi. Iqtisodiy va siyosiy jihatlardan qudratli davlatgina tilga olingan omillarni yuzaga chiqarish imkonini berish mumkin. O'z o'rnida, javob tariqasida, ilm va madaniyat rivoji davlat qudratiga qudrat, obro'siga obro' qo'shgan. Shuning uchun Amir Temur buyrug'iga ko'ra oliy o'quv yurtlari bo'lmish madrasalar va ularning o'quvchilarini moddiy jihatdan ta'minlab, stipendiyalar oshirilishi haqida farmonlar bergan. Bu haqda Mu'iniddin Natanziy shunday yozadi: "Faqirlar va ilm toliblari nafaqalari vaqf mulklari va madrasalarga, har birining holiga yarasha va voqif shartiga muvofiq belgilangan. (Ana shunday) vaqflarga hech ham va mutlaqo soliq solinmagan. (Amir Temur) o'z vazirlariga vaqf mulklaridan biron tanga mening xazinamga tushmasin deya ko'rsatma bergandi. (Sohibqiron) ilm, hikmat ahli va donishmand kishilar bilan (tezda) kirishib ketardi "[5:279-280]

Amir Temurning ilm-fanga bo'lgan munosabati haqida rus olimi Mixail Ivanin o'zining "Ikki buyuk sarkarda" asarida shunday ma'lumot keltiradi: "Amir Temur ilm-fanga homiylik qilar, olimlar bilan xalqlar tarixi va buyuk hukmdorlar tarjimai holi haqida suhbatlar o'tkazishni xush ko'rar, o'tgan davrdagi buyuk shaxslarning



ishlariga taqlid qilar xatolarini qaytarmaslik uchun ularning muvaffaqiyatsizliklarini qunt bilan o'rganar edi".[6:222]

Ilm va madaniyatga bunday munosabatni Sohibqiron umrining oxirigacha saqlab qoldi. Bu yo'ldan uning avlodlari ham yurdilar. Natijada temuriylar zamonida ko'plab madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Ularda o'qish va o'qitish uchun dunyoning turli burchaklaridan yetuk olimlar taklif etildi

Fan va madaniyatning gullab-yashnashi temuriylar namoyandalarining barchalarida ko'rish mumkin. Ular o'z ona tillaridan tashqari fors, arab tillarini mukammal bilar, tarix, astronomiya, matematika, tibbiyot, she'riyat, husnixat, me'morchilik, diniy bilimlar borasida katta salohiyat sohibi edilar. Ular kitobga, ya'ni bilim va bilish manbaiga katta hurmat bilan qaraganlar. Shuning uchun ham Amir Temur, Shohruh, Boysung'ur, Ulug'bek, Pir Muhammad, Xalil Sulton, Sulton Xusayn, Badiuzzamon, Fariuddin Husayn Mirzo, Bobur Mirzo kabi podshohu shahzodalarning boy kutubxonalari kishilar og'ziga tushgan. Ulardan ko'pchilik bahramand bo'lgan. Amir Temur, Shoxrux, Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqaro, Qutlug' Turkon Og'o, Malikat Og'o, Gavharshodbegim kabi temuriy hukmdorlar va malikalar hamda temuriylar xizmatida bo'lgan bir qator amirlar tomonidan Samarqand, Buxoro, G'ijduvon, Marv, Xirot, Yazd, Balh, Mashhad, Sheroz va boshqa shaharlarda o'nlab madrasalar barpo etildi. Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek, Iskandar Mirzo, Abu Bakr Mirzo, G'iyosiddin Boysung'ur Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Fariuddin Husayn Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo va boshqa temuriylar nozik didli shoir ham bo'lib, turkiy va forsiyda she'r bitganlar. Tabiiy ravishda, katta-kichik shoirlarga homiylik qilganlar, iste'dodli qalamkashlarni parvarish aylaganlar. Shuning uchun ham temuriylar davri o'zbek va fors adabiyoti rivojida muhim bosqich sanaladi. O'zbek, umuman turkiy tilli adabiyot va forsiy adabiyot ravnaqida ulkan hissa kasb etgan Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy, Sakkokiy, Lutfiy, Atoiy kabi turkiyzabon shoirlar, Burundiq, Xo'jandiy, Ismat Buxoriy, Humoyun, Isfaroniy, Badriddin Chig'atoiy, Riyoziy Samarqandiy, Halokiy kabi forsiyzabon shoirlar hamda Eron, Ozarbayjon, Xuroson, Kichik Osiyoda ijod qilgan o'nlab nazm ustalari xuddi shu davrda yashaganlar va u yoki bu ma'noda temuriylar himmatidan bahramand bo'lganlar. Bu davra Abdulhay Pirahmad Bog'ishamoliy, Muhammad Halimiy, Sulton Ali Bovardiy, Shahobiddin Abdullo, Kamoliddin Behzod kabi naqqoshlar ham, Ahmad Rumi, Shomiy, Sulton Ali Mashhadiy, Abduxalil kotib kabi o'nlab xattotlar ham nom chiqarganlar



Temuriylarning ilm-fan va madaniyatga rag‘bati shu qadar bo‘lganki, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari Hindistonda hukmronlik qilgan yillari bu mamlakat madaniy taraqqiyotida juda katta iz qoldiradi. Aniq fanlar rivojida ham temuriylar zamoni alohida o‘rin egallaydi. Birgina Ulug‘bek akademiyasi va unda olib borilgan fundamental tadqiqotlar Yevropo va jahon ilm-fanining yangi bosqichda rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Bu vaqtda Samarqandda o‘nlab mo‘tabar olimlar, astronomlar, matematiklar faoliyat ko‘rsatganlar. Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Jaloliddin Astrobodiy, Nizomiddin Birjondiy, Mirim Chalabiy, Mansur Koshiy, Abdulqodir Lohijiy, Muhammad Husayniy va boshqalar mazkur maktab nomoyondalari, izdoshlari edilar. Lekin eng iqtidorlisi Mirzo Ulug‘bek bo‘ldi. U Samarqandda o‘z davri va muayyan ma‘noda keyingi asrlar uchun ham katta ahamiyat kasb etgan fundamental fanlar rivoji uchun keng yo‘l ochib berdi. Ayniqsa Samarqandda rasadxonaning barpo etilishi olamshumul voqeaga aylandi. Yigirma yil atrofida olib borilgan yulduzlar harakatini uzluksiz kuzatish ishlari natijasida 1018 ta yulduzning ekliptik sistemadagi vaziyati aniqlandi. Rasadxona bosh o‘lchov asbobining aniqlik darajasi bir yoy sekundigacha bo‘lganligini hisobga olsak, yaratilgan yulduzlar jadvali to 17 asrga qadar optik asboblar kashf etilguncha, eng mukammal hisoblanganligini asossiz bo‘lmaganini bilamiz.

Qozizoda Rumiyning birinchi asari “Sharx ashkol at-ta‘sis” bo‘lib, unda Rumi samarqandlik olim Shamsiddin ibn Muhammad as-Samarqandiyning (XIII asr) geometrik risolasiga izohlar bergan. Bu risola Movarounnahr madrasalarida geometriya bo‘yicha darslik vazifasini o‘tardi. Mazkur izoh yuzasidan ko‘plab qo‘lyozmalar saqlanib qolgan. Uning ikkinchi asari “Sharh al-mulaxxas fi-l-hay‘a va-nujum”-xorazmlik olim Mahmud ibn Umar al-Chag‘miniy risolasiga yozilgan sharhdir. Qozizoda shu asar asosida Ulug‘bek madrasasida astronomiyadan dars berardi. Mazkur asar keng tarqalgan bo‘lib, dunyoning ko‘pgina kitob xazinalarida saqlanmoqda.

Amir Temur va temuriylar davrida madrasa oliy ma‘lumot beradigan markaz vazifasini bajargan. Musulmoln olamida birinchi madrasa X asrda Buxoroda barpo etilgan. Madrasa ilohiyat bilan bir qatorda dunyoviy fanlar: qounshunoslik, mantiq, matematika, geometriya, falakkiyot, tibbiyot, tarix, jo‘g‘rofiya, adabiyot, she‘riyat, arab tili va boshqa fanlar ham o‘qitilgan. Madrasada eng yetuk mutaxassislar ta‘lim bergan. Ularga alohida ish haqi to‘lanar edi. 1404 yilda Amir Temurning xotini Saroymulxonim eridan ruxsat olib o‘z otasi – Qozonxondan qolgan mablag‘ga Samarqandda madrasa qurdirgan. Tarixchi Xondamirning ma‘lumotiga ko‘ra, Xirot



hududining o‘zidagina 36 ta madrasa bo‘lib, bu madrasalarda ta’lim olish uchun turli mamlakatlardan o‘quvchilar kelar edi. Xirof tevaragida joylashgan amir Feruzshoh madarsasi va honaqohi ayniqsa shuhrat qozongan edi. Injil kanali bo‘ylab, Dorushshifo shifoxonasining ro‘parasida joylashgan Ixlosiya madrasasi va Xalosiya xonaqohi Xusayn Boyqaro hukmronligi davrida barpo etilgan. Bu madrasa dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan tolibi ilmlar ta’lim olishar edi. O‘sha davrning yetuk mudarrislari bo‘lgan amir Burhoniddin Atoullloh Nishopuriy, qozi Ihtiyoruddin Hasan Jurobiy, Amir Murjoz va Fasihuddin Muhammad Nizomiy shu madrasada o‘qishgan. O‘qitish tanlov asosida olib borilib, har oylik tanlovda bo‘shbayov o‘quvchilar tushirib qoldirilib, o‘qishni faqat kuchlilari davom ettirishgan. Ulug‘bek 4 madrasa – Buxoro va G‘ijduvonda bittadan, Samarqandda ikkita madrasa qurdirgan

Temuriylar davrida tibbiyot ilmiga, davolash, orastalik ishlariga, bu sohadagi qurilishlarga katta ahamiyat berilgan. Manbalarda, shu jumladan, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihiy”, Xondamirning “Xulosat al-axbor” va boshqa asarlarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘sha davr shifoxonalarda madrasa va boshqa o‘quv yurtlarida bilim olgan yuzlab tabiblar ishlar edi. Tibbiyot olamida mashhur bo‘lgan asarlar, chunonchi Burhoniddin Nafisning “Kasalliklarning sabablari va alomatlari sharhi”, “Mo‘jaz al-qonun sharhi”, G‘iyos Mutabibning “Kasalliklar shifosi”, Mansur ibn Muhammadning “Inson tanasi va uning a‘zolari holatining sharhi”, “Kifoyatiy Mansuriy”, kabi yana boshqa qator tibbiyot borasidagi risolalar temuriylar davrida yozildi. Burhoniddin Nafis esa olimlik bilan bir qatorda Ulug‘bekning shaxsiy tabibi ham edi

Xirotda Umarshayxning xotini Mahdi ulyo Milkat oqa qurdirgan “Dorushshifo” mashhur bo‘lgan. Yuksak did va makhorat bilan bunyod etilgan mazkur shifoxona bilan uning shimol tarafida qurilgan Doral-huffoz orasida hovuz bo‘lib, unda tabiblar bemorlarni davolar edilar. Bundan tashqari, Bog‘i Zag‘onda ham dorush shifo bor edi. O‘sha davrning yetuk shifokorlari shifoxonalarda bemorlarni davolash barobarida madrasalarda va boshqa o‘quv yurtlarida mudarrislik ham qilishar edi. Ularning ba‘zilari ajoyib she‘rlar yoki o‘zga shoirlarning she‘riy asarlariga o‘xshatish hamda o‘zidan avval o‘tgan olimlarning tibbiyotga oid asarlariga arab, fors va turkiy tillarda sharhlar yozishgan

SHarafuddin Ali Yazdiyning va Ibn Arabshohning ma’lumotlariga ko‘ra, Amir Temur SHom (Suriya)dan Samarqandga o‘zi bilan birga tabiblar sardori Mavlono Jaloliddin, Mavlono Sulaymonni olib kelgan. Mavlono Fazlulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi bo‘lgan. Bulardan tashqari, Amir Temur saroyida Mavlono



Izzaddin Ma'sud SHeroziy va Mavlono Farrux kabi mashhur tabiblar ham xizmat qilishgan. Kermonlik tabiblar oilasidan chiqqan Burhonuddin Nafis ibn Ivaz ibn Hakim al-Kermoniy Ulug'bek taklifiga ko'ra Samarqandga kelib shaxsiy tabiblik vazifasini bajargan.

U 1424 yili Najibuddin Samarqandiyning arab tilidagi "Kasalliklar sabablari va alomatlari" asariga sharh bitib, uni Ulug'bekka bag'ishlagan. Al-Kermoniy o'z asariga sharhlanayotgan asardan ba'zi parchalarni ham kitirgan. SHu tufayli uning asari fanga ma'lum bo'lib qolgan. G'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin tabib fanning turli sohalari bilimdoni edi. U "Muolajoti ilohiy" nomli asarga qisqa, lekin mazmunli sharh tuzib, tabobat ilmida o'zini ko'rsatgan. Darvish Alining tabiblik mahoratini Alisher Navoiy yuqori baholagan. U Milkat oqaning Dorush shifosida mudarrislik qilgan. U nafaqat tabiblikda, balki she'riyat va mantiq ilmlarida ham zo'r mahoratga ega edi. Keyinchalik u G'iyosiy madararasida dars bergan, tomirdan qon chiqarish uslubini puxta egallagan. U tibbiyotga doir 2 ta asar yozib qoldirdi.

Mavlono Nizomiddin Abdulhay tabib avval Alisher Navoiyning Dorush-shifosida bemorlarni davolash bilan shug'ullangan. U shu qadar shuhrat qozongan ediki, Xoja Axror betob bo'lib qolganida, uni Samarqandga taklif qilganlar va u tez orada Xoja Axroni davolab, oyoqqa turg'izgan. Hirotga qaytgach. U Xusayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan va xaramdagi bemorlarni davolagan.

Abdulxay tabib ko'proq qon tomirlar bilan bog'liq kasalliklarni davolash uslublarini puxta egallagan. Bu davrda yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu fan tarmog'ining keng rivojlanishiga qo'maklashdilar. Xalqni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun ko'pgina hovuz, kanallar, ariq qazilgan. Yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun ariq va hovuzlardagi suvlar nihoyatda toza tutilgan.

Amir Temur faoliyatini, xususan, uning boy shaxsiyatini badiiy adabiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Amir Temurning davlat siyosati tufayli turkiy tilda ham badiiy adabiyot keng rivojlana boshladi. XV asrning birinchi yarmida yashagan Yusuf Amiriyning "Dahnoma", Sayyid Ahmad Mironshohning "Tashshuqnoma", Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma" kabi asarlarida noma janri sohasidagi shunday vorisiylik ko'zga tashlanib turadi.

Amir Temur davrida forsiy she'riyatda jahonga mashhur Hofiz SHeroziy, Kamol Xo'jandiy, Salmon Sovajiy kabilar ijod qilganlar. Alisher Navoiy o'zining "Majolisun nafois" tazkirasida yozishicha, Sohibqiron hayotida adabiyot juda katta ahamiyat kasb etgan. U, garchi o'zi she'r yozmagan bo'lsada, lekin mavjud she'riy



va nasriy asarlardan shuncha ko'p yod olgan va ularni o'z vaqtida, o'z o'rnida shunday yaxshi o'qir ekanki, bunga hamma qoyil qolgan ekan.

Amir Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Navoiy "Majolisun-nafois" tazkirasida 22 ta temuriy ijodkorlarning ism-sharifini zikr etib, ularning o'zlari va ijodlariga qisqacha to'xtalib o'tgan. Xusayn Boyqaro ijodi va devoni tahliliga maxsus sakkizinchi bobni bag'ishlagan.

Shohrux va Ulug'bek hukmronlik qilgan davrlarda Xurosonda va Movarounnahrda, "Majolisun Nafois"da xabar qilinishicha, Amir Qosim Anvar, Kotibiy, Xoja Ismatulloh, Bisotiy, Yahyo Sebak, Tusiy, Bobo Savdoyi, Mir SHohiy, SHarafuddin ali Yazdiy, Muhammad Muammoiy, Xoja Qumiy kabi o'nlab forsiyzabon shoirlar she'riyatning turli janrlarida muvaffaqiyat bilan ijod etganlar. Bu davrda Xurosonda Navoiy qayd etishicha, turkiygo'y shoirlardan Lutfiy, Atoyi, Amiriy, Yaqiniy, Gadoiy, Muqimiy, Latifiy, Xaydar Xorazmiy, Sayyid Xasan Ardasher, Ahmadiy kabilar yashab, ajoyib she'r va dostonlar yaratgan.

Adabiy jarayonda o'zbek va forsiyzabon shoirlar barobar huquqqa ega bo'lib, turkiy she'r ishtiyoqmandlari qancha ko'p bo'lsa, forsiy she'r talbgorlari ham ulardan kam emasdi. Ulug'bek davrida Movarounnahrda shoirlar bilangina emas, Xurosondagi forsiyzabon va turkiyzabon ijodkorlar bilan ham do'stona munosabatda bo'lgan. Masalan, Ulug'bekning Lutfiy she'rlarini XV asrning mashhur shoiri Salmon Sovajiy she'rlari bilan yonma-yon qo'yganligi, ya'ni tirik shoirning yaqinda o'tgan mumtoz shoir bilan tenglashtirilishi Lutfiy uchun katta sharaf edi.

Amir Temur va temuriylar tarix faniga ham katta e'tibor bilan qaragan. Tarixnavislik bobida SHarqda dong taratgan G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Mu'iniddin Natanziy, Sharaffidin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar temuriylar panohida yashab ijod qilganlar, ular haqida asarlar bitib mashhur bo'lganlar. Mazkur ijodkorlar ba'zi birlarining asarlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Nizomiddin SHomiy. Asl ismi Ali ibn Muhammad, ammo ko'pincha Nizomiddin SHomiy yoki Nizomiddin SHanbiy nomi bilan mashhur. Tug'ilgan yili aniq emas. Vafoti 1404-1409 yillar orasida yuz bergan. 1383 yildan Amir Temur xizmatida bo'lgan. Boshqa asarlari ham bo'lsa-da, uni mashhur qilgan "Zafarnoma"dir. "Zafarnoma" 1404 yili tamomlangan bo'lib, uni yozish tashabbusi shaxsan Sohibqironidan chiqqan. 1404 yili Amir Temur Ozarbayjon yurishidan qaytgandan so'ng SHomiy asarni unga taqdim qilgan. Demak, bu "Zafarnoma"ga Sohibqironning muborak nazarlari tushgan. Asar Amir Temurning taxtga chiqqanidan to 1404 yilga qadar O'rta Osiyo va Qozog'iston, Afg'oniston, SHimoliy Hindiston, Eron, Kavkazorti, arab mamlakatlari, Kichik



Osiyoda ro‘y bergan Amir Temur va temuriylar faoliyati bilan bog‘liq muhim voqealar bayonidan iborat. SHomiy asarni yozishda Amir Temur xizmatida bo‘lgan bitikchilar tomonidan tayyorlangan har bir yurish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy voqealar haqidagi xisobotlar hujjatlarga tayangan. “Zafarnoma” Amir temur tarixini to‘la yoritgan ilk tarixiy asar hisoblanadi.

Amir Temur va temuriylar davri O‘rta Osiyo madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu davrdagi madaniy yutuqlar umumbashariy tsivilizatsiyasi (tamadduni) darajasida bo‘lgan. Madaniyat tarixidagi ushbu mumtoz davrda o‘zbek madaniyatining shakllanishi, bu davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liqdir. Temuriylar davrida tasviriy san‘at turli yo‘nalishlar bo‘yicha yuksaldi. O‘rta Osiyodagi qadimgi devoriy suratlar va umuman tasviriy san‘at an‘analari Amir Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Miniatyura san‘atiga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Samarqanddagi temuriylarning saroy, qarorgohlarida qabul marosimi, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri tushirilgan devoriy suratlar bo‘lgan. Ularda Amir Temur, o‘g‘illari, nabiralari, ayollari va kanizaklari tasviri aks ettirilgan. Ulug‘bek rasadxonasi devorida ham devoriy suratlar mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, uslubiy jihatdan miniatyura janriga yaqin bo‘lgan. Abdurahmon as-So‘fiyning falakiyotga oid asariga ishlangan bir suratda Andromeda yulduzlar turkumi chochlik ayol qiyofasida tasvirlanadi. Rasadxonada esa to‘qqiz falak ko‘rinishi, yetti gardish, yetti yoritqich yulduz daraja, vaqt bo‘limlari, Yer yuzining yetti iqlimi tasvirlangan.

Amir Temur davrida qurilgan SHirinbeka og‘a, Bibixonim, Tuman og‘a obidalarida naqqoshlik va hattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. SHirinbeka og‘a maqbarasida rangli tasvir ko‘p bo‘lsa, qolgan ikki bino devorlarida oq va moviy rangdagi islmiy naqshlar tasvirlanadi. Hattotlik san‘ati taraqqiyotiga XV asrda ananaviy kufiy, nash, devoniy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi suls va tezkor-nasta’liq uslublari rivojlandi. Noyob qo‘lyozma asarlar ko‘chiriladigan maxsus ustaxona kitobatchilikning ravnaqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

XIV-XV asrlar O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa san‘ati taraqqiyotida ham yangi bosqich bo‘ldi. Yangi kuy va qo‘shiqlar, cholg‘u asboblari va musiqa nazariyasiga doir asarlar yaratildi. Mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar yetishdi. Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad SHayxiy, Husayn Udiy, SHohquli G‘ijjakiy, Ahmad Qonuniy, Hoja Yusuf Andijoniy, ustod SHodiy, Najmiddin Kavkabiylar shular jumlasidandir. Mirzo Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy va Binoiylar musiqa ilmiga oid asarlar yozib yangi kuylar ijod qildilar. IX-XII asrlarda shakllangan 12 maqom bu davrda takomillashdi. SHuningdek, keng ommaga



mo'ljallangan teatrlashgan tomoshalar - xalq sayllarida masxarabozlar, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar o'z san'atini namoyish qilgan.

Amir Temur davrida Samarqandda miniatyura maktabi tashkil topdi, bu davrda yetakchi rassom Xoja Abdulhay Naqqosh edi. Hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko'chirilgan xomaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo'lib, ular alohida shaxslar, daraxtlar, gyllap, kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg'unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o'z o'rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi. Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar «Zafarnoma»ning dastlabki ko'chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotda (1467 y.) ko'chirilgan «Zafarnoma»da keltiriladi. Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Kamoliddin Behzod yakunlagan ushbu miniatyuralar tarxining murakkabligi va serjilo ranglarning uyg'unligi bilan ajralib turadi.

SHarq miniatyurasining taraqqiyoti badiiy adabiyotning rivoji bilan bog'liq bo'lgan. Musavvirlar ko'pincha Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, so'ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlashgan. XIV asrda Rashiduddin Fazlullohning «Jome' ut-tavorix» tarixiy asariga ham miniatyuralar ishlangan. Bu an'ana temuriylar davrida ham davom ettirilib, SHarafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Xotifiyning «Temurnoma» kabi asarlarida jang lavhalari tasvirlanadi. Ayrim hollarda diniy asarlarga ham Makka va Madina kabi muqaddam joylar tasviri tushirilgan. Badiiy asarlarning ba'zilarida Muhammad payg'ambarning (muborak yuzlari niqob bilan to'silgan) odamlar orasida turgan holatlari va me'rojga chiqishlariga oid lavhalar uchraydi.

XV asr miniatyuralarining aksariyatida SHarq she'riyatining qahramonlari Layli va Majnun, Xusrav va SHirin, Rustam, Iskandar, Bahrom bilan bog'liq jang lavhalari tasvirlanadi. Umuman miniatyura san'ati musulmon SHarqining Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr va Hindistongacha bo'lgan hududida muayyan bir davrning o'ziga xos badiiy - estetik hodisasi edi. Bu san'at temuriylarning homiylik faoliyati bilan bog'lik bo'lib, Isfaxon, SHeroz, Tabriz, Hirotda, Samarqand, Dehli kabi markaziy shaharlarda ilg'or miniatyura maktablari vujudga keldi. Samarqand miniatyura maktabi XIV-XV asrning birinchi yarmida shakllangan bo'lib, turli turkumda yaratilgan bu miniatyuralarda SHarqiy Turkiston san'atiga xos bo'lgan turkiy obrazlarda xitoy rassomchiligi ta'siri sezilib turadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning yuksalishining eng katta omillaridan biri mintaqaning yagona



davlatga birlashganligi va hududimizning Buyuk ipak yo‘li chorrahasiga aylanganligi bilan baholash mumkin. Jumladan, tadqiqod xulosalariga ko‘ra : Bu davrda ilmu fan taraqqiyotidagi muhim omillardan biri Amir Temur davlatining yirik saltanat bo‘lib shakllanganidadir. Bunda turli davlatlar orasida mavjud bo‘lgan to‘siqlar olib tashlangan va barcha sohalar ildam rivojlangan. Yigirma yetti davlatni birlashtirgan Amir Temur saltanatida katta integratsion jarayonlar uchun zamin yaratilgan hamda ilmu fan taraqqiyoti yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan .Bundan tashqari Amir Temur davrida ilm-fan tarqqiyotiga turtki bergan keyingi omillardan yana biri, Buyuk ipak yo‘lining muhim tarmog‘i shu hududdan o‘tganligi va uni rivojlantirilganligi dadir. Chunki Buyuk ipak yo‘li faqat savdo-sotiq rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, balki, ilm-fan tarqqiyotiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B. 140.
- 2.Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz. Qarang: Ma’naviy yuksalish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998, – B. 414.
3. «Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni» mavzusidagi xalqaro konferentsiya tezislari to‘plamiga yozilgan so‘z boshi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996, -B. 4.
4. Amir Temur tarixi, 2-kitob, – B. 69.
- 5.Natanziy. Muntaxab at-tavorix, – B. 279-280.
- 6.Mixail I. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur harbiy san’ati va strategiyasi va taktikasi, -B. 222.
- 7.Usmonov Q. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: Sharq, 2007..
- 8.O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. - T.: SHarq, 2000. 352. b.
- 9.O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T .: SHarq, 2000. 361. b.
- 10.Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. - T.: 2003. 253. b.
- 11.Murtazaeva R.X., Doroshenko T.I i dr. Istoriya Uzbekistana. Elektronniy uchebnik dlya vuzov. – Tashkent. 2010. 231. b.
- 12.Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademiya, 2010. 251. b.
- 13.Murtazaeva R.X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. O‘quv qo‘llanma – T., Universitet, 2007. 125. b.
- 14.Sa’dullaev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. O‘quv qo‘llanma – T.: Akademiya, 2000. 182. b.
- 15.Eshov B.J. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, Ma’rifat. 2009. 238. b.



MIGRANTLAR VA ULARNING OILA A'ZOLARI HUQUQLARINI HIMOYASIGA OID XALQARO MEXANIZMLAR

Xasanov Xusniddin

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs

DHF yo'nalishi A patok talabasi

Anotatsiya: Migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish global boshqaruvning ustunlaridan biri bo'lib, unda xalqaro mexanizmlar asosiy rol o'ynaydi. Migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilishning ko'p qirrali manzarasini o'rganadi, xalqaro tashkilotlar va milliy institutlarning rolini o'rganadi, muayyan muammolarni hal qiladi va ushbu tashabbusning murakkabligini ko'rsatadigan amaliy tadqiqotlarni yoritadi.

Tayanch so'zlar: Xalqaro mexanizmlar, milliy mexanizmlar, migratsiya, BMT, qo'mita, maxsus organ, tashkilot, sud, hokimiyat, sog'liqni saqlash, sud, daxlsizlik, chegara, Ombudsman, agentliklar, departament, xalqaro jinoiy sud. qurol,yordam, , nazorat.

Odamlar azaldan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib kelishgan. Kimdir yaxshi ish izlash, ta'lim olish, iqtisodiy manfaatlar yoki oilasi bilan birga bo'lish maqsadida ko'chib borsa, yana kimdir mojarolardan, huquqbuzarliklardan qochishga majbur. Bular tashqari iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar yoki boshqa ekologik xususiyatdagi omillar natijasida boshqa joylarga ketishi kuzatilmoqda. Ko'pgina kishilar uchun migratsiya ijobiy holat va boylik orttirish tajribasi hisoblansa, boshqa guruh kishilari uchun migratsiya jarayoni tahqirlash, eksplutatsiya va inson huquqlarining ko'p sonli buzilishlari bilan birga kechadi. Dunyoda umum e'tirof etilgan normalar bilan mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarini tan olish, himoya qilish hamda ta'minlash mustahkam huquqiy davlatdan rivojlangan faol fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu xalqaro standartlar qatorida migrantlarning harakatlanish erkinligi, yashash joyini tanlash, boshpana olish kabi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlari muhim o'rin egallaydi.

Aholini yer shari mintaqalari bo'ylab ko'chib yurishi bilan bog'liq bo'lgan migratsiya hodisasi xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi va takomillashtirilishi kerak bo'lgan sohalardan bo'lib, uning bugungi kundagi miqyosi va dinamikasi



davlatlar hamkorligini, o'zaro muvofiqlashtirilgan qonunlar qabul qilinishini, uni boshqarishning samarali yo'llari birgalikda axtarib topilishini taqazo qiladi. "migratsiya" so'zi lotincha migro so'zidan olingan bo'lib "o'taman", ko'chaman " degan ma'nolarni anglatadi. Migratsiyaning umumiy xususiyati aholining doimiy ko'chishida namoyon bo'ladi. Tashqi ya'ni xalqaro migratsiya davlat chegarasini kesib o'tish orqali amalga oshiriladi. Zeroki, nazorat qilinmaydigan migratsiya jarayonlari noxush oqibatlariga olib kelishi mumkinligi yangi tarixda o'z tasdig'ini topgan bo'lib, undan nafaqat ayrim insonlar jabr ko'radi, nafaqat muayyan davlatlar va xalqlar uchun ham kutilmagan oqibatlariga olib kelishi isbotlangan.

A.. Ahiezerning fikricha: " Barqaror ommaviy migratsiya o'z ahamiyatiga ko'ra yashash manzilini vaqtincha yoki doimiyga o'zgartirilishi orqali aholi muayyan guruhlari qadriyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan faoliyat bo'lib, odamlar turmush tarzi o'zgarib borishi elementlaridan sanaladi. Aholini hokimiyat organlari tomonidan bosim o'tkazib ko'chirib yuborilishi ham migratsiya sanaladi. Migratsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati shu darajada o'zgarishi mumkinki, hatto mazkur jamiyatning o'zi migratsiya mahsuli sanalishi mumkin (masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari, jahondagi boshqa ayrim mamlakatlar aholi migratsiyasi natijasida shakllangan va rivojlangandir. Shunga qaramasdan, migratsiya jamiyatning muhim muamosi, uning o'zgarish shart-sharoiti, natijasi, oshkora yoki yashirin jarayonlar oqibatidan iboratdir".

Aholi migratsiyasi haqida so'z yuritilganida ayrim fuqaro yoki yaxlit oilaning bir hududdan boshqa hududga ko'chib o'tilishi nazarda tutiladi. Davlat va mamlakatlarda, yer shari mintaqalariga nisbatan olganda ichki (bir mamlakat hududi doirasida) va tashqi (bir davlat hududidan boshqa mamlakat hududiga ko'chib o'tish bilan bog'liq) migratsiya jarayonlari o'zaro farqlanadi. Migratsiya tufayli mamlakat ichkarisidagi aholi zich joylashgan hududlardan yangi o'zlashtirilayotgan hududlarga, ish kuchi ortiqcha mamlakatlardan mehnat resurslariga talab kuchli bo'lgan hududlarga qayta taqsimlash, demografik vaziyatlarni boshqarish va barqarorlashtirish, mehnat resurslaridan maqsadga muvofiq va oqilona foydalanish imkoni tug'iladi.

BMT iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti(UNDESA) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholisining uch foizidan ortig'i muhojirlardir, bu 280,6 million kishini tashkil etadi. Muhojirlar soni bo'yicha jahon reytingida birinchi o'rinini AQSH egallaydi, uning hududida 46,6 million muhojir bor. Ikkinchi o'rinda Germaniya turadi, u yerda muhojirlar soni 15,6 million kishiga yetadi. Uchinchi o'rinda Saudiya Arabistoni 13,0 million kishi. Keyingi o'rinlarda Rossiya



Federatsiyasi – 11,6 million, Buyuk Britaniya – 9,3 million, Fransiya – 8,5 million, BAA – 8,4 million, Kanada – 8,0 million, Avstraliya – 7,6 million va Ispaniyada – 6,8 million kishini tashkil etadi.

Xalqaro migratsiya, o'zining kelib chiqishi mansub bo'lgan yoki odatda yashaydigan mamlakati hisoblangan davlatni boshqa davlatda doimiy yoki vaqtincha yashash maqsadida tark etadigan shaxslarning harakatlanishi sifatida baholanadi.

Turist, migrant va qochoqlarning o'zaro farqlari nimadan iborat?

Migratsiya xalqaro tashkiloti (MXT) ta'rifiga ko'ra, migrant bu- shaxsning yuridik maqomi bo'lib, o'z xohishiga ko'ra yoki majburan ko'chishi, ko'chish sabablari yoki boshqa yerda bo'lish davomiyligidan qat'iy nazar davlat chegarasidan o'tayotgan va o'zining odatdagi yashash joyini tark etgan shaxsdir.

Mehnat migranti deganda- o'zi fuqarosi bo'lmagan chet davlatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanuvchi, shug'ullanayotgan yoki shug'ullangan shaxs tushuniladi. Mehnat migranti o'zi ishlayotgan davlatga soliq to'laydi.

Quyidagilar Mehnat migrant hisoblanmaydi:

- 1) O'zi fuqarosi bo'lmagan davlatda ishlayotgan xalqaro tashkilotlar xodimlari, tadbirkorlar, investorlar;
- 2) Qisqa muddatga xorijga chiqib ketgan erkin kasb vakillari, san'atkorlar, ta'lim olayotganlar, stajyorlar.

Migrant turlari -uyushgan (tartibga solinadigan), ya'ni "aholi va ishchi kuchini oqilona qayta taqsimlash maqsadida davlat yoki jamoat organlari ishtiroki va ko'magida amalga oshiriladigan, - uyushmagan (tartibsiz, individual), ya'ni "hech qanday muassasa va organlarning tashkiliy va moddiy yordamisiz migrantlarning kuchi va vositalari bilan amalga oshiriladigan".

Migratsiya turlari- doimiy yoki qaytarib bo'lmaydigan; - vaqtinchalik (mavsumiy, tebranuvchan):

Mavsumiy migratsiya – migrantlarning yillik (mavsumiy) hududiy harakati hisoblanadi. Qoidaga ko'ra migratsiyaning bu turi ishning mavsumiy ko'payishi davri uchun qo'shimcha jalb qilinishi kerak bo'lgan muayyan sohani ishchi kuchi ta'minlanish zarurati bilan bog'liq. Ba'zan mavsumiy migratsiya o'qish, davolanish va dam olish uchun sayohatlarni o'z ichiga oladi.

Tebranuvchi migratsiya deganda aholining bir joydan ikkinchisiga ish yoki o'qish uchun muntazam ravishda ko'chishi tushiniladi. Tebranuvchi (mayatnik) migratsiya, ayniqsa, tutash hududlar aholisini o'ziga jalb qilish markazi bo'lgan yirik shaharlar uchun xosdir.



Tashqi migratsiya- bu odamlarning davlat chegarasini kesib o'tishi, asosan doimiy yashash joyining o'zgarishi bilan bog'liq. Tashqi migratsiya ba'zan xalqaro migratsiya deb ham ataladi. Qoida tariqasida, u ikkita oqim bilan ifodalanadi: emigratsiya va immigratsiya. Emigratsiya – doimiy yoki vaqtincha yashash uchun bir mamlakatdan boshqasiga ketish. Immigratsiya – bu doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun mamlakatga kirish.

Emigratsiyani tartibga solish. Emigratsiya siyosatining asosini ishchining mamlakatdan chiqib ketishi, uning xorijda bo'lishi va vataniga qaytishi bilan bog'liq bo'lgan reemigratsiya siklining to'liq uchta fazasi tartibga solish tashkil qiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, emigratsiya siyosati ishsizlikni qisqartirishga, eksport- import operatsiyalarini balanslashtirish uchun valyuta o'tkazmalarining kirib kelishiga, mehnat migrantiga xorijda munosib turmush darajasini ta'minlashga, migrantning xorijda o'zlashtirgan kasb va ta'limining o'z vataniga qaytib kelgan talabga moslashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Mehnat immigratsiyasini tartibga solish. Aksariyat ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlar immigratsiyani tartibga solishda selektiv usuldan foydalanadilar. Bunday usulning mohiyatini davlatning mamlakat uchun zarur bo'lgan bir qator kategoriyadagi ishchilarning kirib kelishiga qarshilik ko'rsatmasligi, qolganlarning esa, kirib kelishiga to'sqinlik qilishi bilan izoxlash mumkin. Qabul qiluvchi mamlakat tilini biluvchi yuqori malakali migrantlar darhol mamlakatning nettosoliq to'lovchisiga aylanadilar. Bunday siyosatdan AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya kabi boy mamlakatlar ko'p foydalanadilar.

Immigratsini tartibga solish, jalb qilinishi Afzal ko'riladigan immigrantlarning ro'yhati turli mamlakatlarda turlicha bo'lsada, odatda ular quyidagi kategoriyalarga tegishli bo'ladi:

- 1) Qurilish, qishloq va uy xo'jaligi, mavsumiy kabi og'ir, zararli, kir va malakasiz ishlarni minimal ish haqi evaziga bajarishga tayyor bo'lgan ishchilar;
- 2) Dasturchilar, ixtisoslashgan mutaxassislar kabi yangi va istiqbolli tarmoqlar uchun mutaxassislar;
- 3) Olmos kesuvchilar, sur'at restavratorelari, shifokorlar, davolashning noan'anaviy usullarini qo'llovchi noyob kasb vakillari;
- 4) Musiqachilar, artistlar, olimlar sportchilar kabi jahonga tanilgan mutaxassislar;
- 5) Ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatga o'z faoliyatini ko'chirib o'tkazuvchi, investitsiya kirituvchi va yangi ish o'rinlarini yaratuvchi yirik ishbiarmonlar.



Reemigratsiyani tartibga solish. Mamlakatdagi ishsizlikning asosiy sababini mamlakatga kirib kelayotgan katta miqdordagi immigrantlarga bog'lovchi kasaba uyushmalari tomonidan bosimning ortishi tufayli aksariyat g'arb mamlakatlari 1970 yildan boshlab immigrantlarni o'z vatanlariga qaytib borishga rag'batlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqa boshlanadilar.

Migratsiyani xalqaro-huquqiy tartibga solish kompleks xususiyatiga ega bo'lib, qabul qiluvchi davlatlarning hududida amalga oshiriladi, bu esa uni milliy-huquqiy asoslar bilan hamohanglikda olib borilishni belgilab beradi.

Zamonaviy xalqaro huquqda migratsiyaning turli shakllarini tartibga soluvchi norma va prinsiplar kodifikatsiyalashgan universal shartnoma hali mavjud emas. Hozirda migratsiyani tartibga solish inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq va xalqaro huquq va xalqaro iqtisodiy huquq bilan uzviy aloqada ekanligini ta'kidlash lozim.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq migrantlarning huquqlari, majburiyatlari va kafolatlari jamlanmasi bo'lmish ularning xalqaro-huquqiy maqomini, shuningdek boshpana izlayotgan shaxslar, qochoqlar va mehnatkash-migrantlarning mamlakatda bo'lmish rejimini tartibga soladi.

Xalqaro iqtisodiy huquq esa mehnat resurslarini o'zaro ayriboshlashni o'z ichiga oluvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar doirasida integratsiya shakllari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Bugungi kunda mehnat migratsiyasini xalqaro-huquqiy tartibga solish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda :

- Mehnatkash-migrantlar huquqlarining univerval darajada xalqaro-huquqiy himoyasini ta'minlash;

- Mintaqaviy integratsiya tashkilotlari doirasida ishchilarning harakatlanishini huquqiy tartibga solish.

Xalqaro-huquqiy hujjatlar: - Fuqaroviy va siyosaviy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 12- moddasi (1966 y.);

-Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to'g'risidagi paktning 6-moddasi (1966 y.);

-Xalqaro mehnat tashkilotining 97-sonli Mehnatkash-migrantlar to'g'risidagi konvensiyasi (1949 y.);

-Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi (1990 y.);

-BMT Bosh Assambleyasining 40/144 rezolyutsiyasi (1985 yil).

Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya. Konvensiya barcha ishchi-migrantlar va



ularning oila a'zolariga hech qanday farqlashlardan, ya'ni jinsi, irqi, terisining rangi, tili, diniy e'tiqodi, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy, etnik va ijtimoiy kelib chiqishi, fuqaroligi, yoshi, iqtisodiy, mulkiy, oilaviy va tabaqaviy holati yoki har qanday belgilardan qat'iy nazar qo'llaniladi. Konvensiya ishchi-migrantlar va ular oila a'zolari migratsiyasining butun jarayoni davomida qo'llaniladi.

Konvensiya quyidagilarga tatbiq etilmaydi:

- a) Xalqaro tashkilotlarining xizmatchilariga;
- b) davlat tomonidan o'zining hududidan tashqarida rasmiy vazifalarni bajarish uchun yollangan shaxslar;
- c) davlatlarining hududidan tashqarida davlat tomonidan yoki uning nomidan yollangan hamda turli hamkorlik dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslar;
- d) kelib chiqishi mansub bo'lgan davlatdan tashqarida yashayotgan investorlar;
- e) qochoqlar va apatridlar;
- f) ta'lim oluvchilar va amaliyotlar;
- g) dengizchilar va qabul qiluvchi davlatda yollanib mehnat faoliyatini olib borish uchun ruxsatnomaga ega bo'lmagan qirg'oqbo'yi statsionar qurilmalarda ishlayotgan ishchilar.

Konvensiyada "mehnatkash – migrant" tushunchasining ta'rifida ularning qabul qiluvchi davlat hududida qonuniy ravishda bo'lishi zarurligiga oid biror bir qoida mavjud emas. Shunga ko'ra, ushbu Konvensiyaning 2-moddasida mustahkamlangan ta'rif mehnat faoliyatini qonuniy asoslarda olib borayotgan mehnatkash-migrantlarga nisbatan ham, shuningdek noqonuniy holatda bo'lib ishlayotgan shaxslar uchun ham taalluqli hisoblanadi. Yollanib ishlaydigan davlat qonunchiligi va xalqaro shartnomalarga muvofiq mamlakatga kirish, unda bo'lish va haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomasi bo'lgan "hujjatlari mavjud bo'lgan yoki doimiy maqomga ega bo'lgan"; agar bunday shartlarga rioya qilinmasa "hujjatlari mavjud bo'lmagan yoki doimiy maqomga ega bo'lmagan" mehnatkash-migrantlar kabi turlarga bo'linadi. Noqonuniy migratsiya jarayonlari tartibga soluvchi aksariyat xalqaro-huquqiy hujjatlarda "noqonuniy mehnat migranti" tushunchasining ta'rifi berilmagan bo'lsada, **XMT** ning 97-sonli va 143-sonli konvensiyalari, shuningdek **BMT** ning 1990 yilgi Xalqaro konvensiyada noqonuniy mehnat migratsiyasini oldini olish va uni taqiqlashga qaratilgan qoidalarni nazarda tutuvchi moddalar mavjud.



Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya

- ham qonuniy, ham noqonuniy ishchi-migrantlar va ular oila a'zolarining huquqlarini ko'zda tutadi;

- ishchi – migrantlarni jamoaviy tarzda chiqarib yuborishni yoki ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari, ishlash uchun ruhsatnomasi, pasportini yo'q qilib yuborishni ta'qiqlaydi

- ishchi-migrantlarga mazkur mamkakat fuqarolariga berilgan hajmda rag'batlantirish, ijtimoiy nafaqa va tibbiy yordam olish, kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish yoki uning yig'ilishlarida qatnashish, mehnat bitimi tugaganidan so'ng ish haqlarini, omonatlari va shaxsiy buyumlarini olib chiqib ketish huquqini taqdim etadi;

- ishchi-migrantlarining farzandlari uchun tug'ilish va fuqarolikni ro'yhatga olish, shuningdek ta'lim olish imkoniyatini kafolatlaydi.

Shuningdek konvensiyada mehnatkash migrantlarining oila a'zolari deganda ular bilan nikohda yoki qo'llanilayotgan huquqqa muvofiq nikohga tenglashtirilgan munosabatlarda bo'lgan shaxslar, shuningdek ularning qaramog'ida bo'lgan bolalari va qo'llanilayotgan qonunchilikka, tegishli davlatlar o'rtasidagi ikki yoki ko'p tomonlama shartnomalarga muvofiq oila a'zolari sifatida tan olinadigan boshqa shaxslar tushiniladi. Barcha migrantlar va ular oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida xalqaro konvensiya bolalarni himoya qilishni, shu jumladan tug'ilganlikni ro'yhatga olish(29-modda) va ta'lim (30-modda) masalalarini ko'zda tutuvchi aniq qoidalarni belgilaydi. Konvensiyada shunday holat ko'zda tutilganki, unga ko'ra, agar ishchi-migrant ozodlikdan mahrum qilinsa, uni tutib turuvchi davlat uning xotini va voyaga yetmagan bolalari uchun vujudga keladigan muammolarga e'tibor qaratishi shart. (17-modda, 6-band). Barcha ishchi migrantlar va ularning oila a'zolari shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini noqonuniy musodara qilinishi va yo'qotilishidan himoyalani, jamoaviy tarzda chiqarib yuborilish huquqidan foydalanadi hamda konsullik himoyasi va yordamidan foydalanish huquqiga ega bo'lishadi.

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (MXT) 1951 yil 5 dekabrda tuzilgan.MXT faoliyatining huquqiy asosi 1953 yil 19 oktyabrda Brusselda qabul qilingan MXT Konstitutsiyasi hisoblanadi. Insoniy va tartibli migratsiya migrantlar va jamiyatga foyda keltiradi degan prinsipga tayangan holda, MXT migratsiya bo'yicha yetakchi xalqaro tashkilot sifatida uning faoliyati migratsiyani boshqarishning o'sib borayotgan tezkor vazifalarini qondirishga ko'maklashishga,



migratsiya orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga, inson qadri-qimmatini va migrantlarning farovonligiga ko'maklashishga yo'naltirilgan. Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot vazifalari ko'proq operativ xususiyatga ega. MXT Konstitutsiyasi huquqiy himoyani ta'minlash bo'yicha mandatni nazarda tutmaydi.

Tashqi mehnat faoliyati (tashqi mehnat migratsiyasi) bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vaqtinchalik mehnat transportida chiqish vaqtida xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi xuzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi Agentligining vakolatlarini ochish to'g'risida" gi qarori.

Statistik ma'lumotlar. 2022 yil 1 aprel holatiga ko'ra, mamlakat tashqarisidagi O'zbekiston mehnat muhojirlari soni 2,4 mln. Ulardan 76 foizini erkaklar va 24 foizini ayollar tashkil etadi. Bugungi kunda muhojirlarning aksariyati 51,6 foizi qurilish, 12,3 foizi qishloq xo'jaligi, 9,2 foizi sanoat, 8,5 foizi savdo va boshqalar kabi sohalarda ishlab kelmoqda. Jahon banki tomonidan "O'zbekiston fuqarolarini tinglab" loyihasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, mehnat muhojirlari bilan uy xo'jaliklarining ulushi bugungi kunda 2019 yil darajasiga ko'tarildi, ya'ni 20 foizini tashkil tashkil etdi, bu deyarli xar beshinchi oilada mehnat muhojirining mavjudligini tasdiqlaydi. 2021 yilda O'zbekistonda pul o'tkazmalari hajmi 8,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi, shundan 5,7 mlrd. AQSH dollari (ya'ni 70 foiz) Rossiya Federatsiyasidan kelib tushdi va har bir mehnat muhojiri uchun oylik pul o'tkazmalari miqdori 453 AQSH dollarni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda aholining umumiy daromadlari tarkibida pul o'tkazmalarining ulushi 16,6 foizini tashkil etib, bu daromad manbalarining oila uchun, ayniqsa, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band bo'lmagan qishloq joylarda ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Migratsiya huquqi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ So'zboshi muallifi va mas'ul muxarrir akademik A.X.Saidov. – Toshkent: "Lesson press", 2022. -320 b.

Foydalanilgan internet manbaalari:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/19/money-transfers/>
2. <https://library-tsul.uz>



IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR INKLYUZIV TA'LIMDA DUCH KELUVCHI QIYINCHILIKLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH

*Jizzax viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi pedagogika, psixologiya ta'lim texnologiyalari kafedra
o'qituvchisi **Shalola Rizayeva Mamir qizi***

1. Inklyuziv ta'lim tizimida harakat tayanchida nuqsoni bo'lgan bolalardagi qiyinchiliklar.

Tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo'lgan bolalar toifasiga motor funksiyalari buzilgan bolalar kiradi.

Harakatning buzilishi :

- harakatlarni muvofiqlashtirishning buzilishi
- Harakatlarning hajmi
- kuchning cheklanishi
- harakatlar tempi

Tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo'lgan imkoniyati cheklanganlar orasida o'quv materialini o'zlashtirish xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda quyidagi toifalarga bolalarni ajratish odatiy holdir.

-Mustaqil harakat qilish va o'z-o'ziga xizmat qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan, aqli zaif va nutqi tushunarli bo'lgan bolalar

-Og'ir motor patologiyasi , og'ir dizartriya buzilishlari, nutqning sust rivojlanishi bilan murakkablashgan aqliy zaif bolalar

- Har xil zo'ravonlikdagi aqliy zaiflashuvi bo'lgan og'ir motorli nuqsoni bor bolalar

- Turli og'irlikdagi eshitish va ko'rish buzilishlari bilan birgalikda og'ir motorli buzilishlari bo'lgan bolalar

Harakat buzilishi bo'lgan bola yoki o'smirni diagnostik o'rganish sxemasi

Harakat buzilishlari:

- Vertikal holatda ushlab turadi: (o'tirish; tik turish)

- Ishtirokchi qo'lining o'quv faoliyati va o'z-o'ziga xizmat qilish jarayonlarida qatnashuvi

- Harakat qiladi (nogironlar aravachasida; tayoq bilan; binolar ichida mustaqil ravishda; katta masofalarda).

- Yetakchi qo'l (o'ng; chap)

HTNB bolalarning aksariyati miya yarim pallasidan aziyat chekishadi:



- aqliy jarayonlar sekinlashadi
- hissiy-irodaviy soha
- ko'rish va eshitish qobiliyati
- fazoviy oriyentatsiya
- diqqat va xotira
- aqliy jarayonlar sekinlashadi
- umumiy vosita ko'nikmalari
- qo'llarning nozik motorli ko'nikmalari

Umumta'lim maktabida harakat buzilishi bo'lgan bolalarning integratsiyalashuviga to'sqinlik qiluvchi rivojlanish ko'rsatkichlari :

- Aqliy rivojlanishi buzilgan
- qo'llarning rivojlangan manipulyatsiya funksiyasining yetishmasligi;
- Konvulsiv(sudurgi) tutilishlar mavjudligi;
- nutqning past tushunarligi yoki uning qo'pol rivojlanmaganligi;
- ko'rish va yoki eshitish nuqsonlari mavjudligi;
- o'z-o'zini parvarish qilish ko'nikmalarining yetishmasligi

Inklyuziv ta'lim tizimida bola duch keladigan to'siqlar :

- maxsus ta'lim sharoitlarining yo'qligi(dastur va metodlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar)
- mavjud arxitektura yo'qligi
- tibbiy xizmatlarning yetishmasligi
- Pedagogik xizmatlar (o'qituvchilarning ushbu toifadagi bolalar bilan ishlashga tayyor emasligi)

2. Inklyuziv ta'lim tizimida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda uchraydigan qiyinchiliklar

Ekspressiv (tashqi) nutqdan aziyat chekadigan, buning natijasida bolaning tashqi dunyo bilan aloqasi qiyin bo'lgan bunday og'ir nutq nuqsonlarini tasniflash odatiy holdir. Bolalar o'zlariga qaratilgan nutqni tushunishlari mumkin, lekin ular uni ifoda eta olmaydilar.

Rinolaliya - ovoz tembrining buzilishi va ovozli talaffuz;

Alaliya - nutqning yo'qligi yoki rivojlanmaganligi;

Dizartriya - nutqning talaffuz tomonining buzilishi;

Duduqlanish - nutqning tempo-ritmik tashkil etilishining buzilishi;

Afaziya -nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi;



Barcha ishtirokchilari duch keladigan bir qator tashkiliy va mazmunli qiyinchiliklar :

- Bir qator ta'lim muassasalarida hamrohlik xizmati mutaxassislarining yo'qligi va shu munosabat bilan bolaga malakali va tegishli tuzatish va rivojlanish yordamini o'z vaqtida ko'rsatishning mumkin emasligi.

- Material-texnik ta'minot va dasturiy-uslubiy xavfsizlik yetarli emasligi

- Turli bo'limlarga qarashli tuzilmalar, xususan, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza hamda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar o'rtasida aniq o'zaro hamkorlikning yo'qligi.

- Mintaqada mavjud bo'lgan (eksperimental rejimda olingan) noyob tajribani keng qo'llash amaliyotiga o'tkazish bo'yicha boshqaruv mexanizmining yo'qligi;

- Maktabning inklyuziv amaliyotini amalga oshirishga tayyorligini baholash, inklyuziv jarayon sifatini baholashga qaratilgan monitoring tadqiqot dasturlarining yetishmasligi;

- Tuzatish dasturlarini ishlab chiqishga yondashuv ta'lim muassasasining ishi.

3. Harakat tayanchida nuqsoni bo'lgan va nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llari

Inklyuziv (qo'shma) ta'lim va tarbiya samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan omillar:

- to'siqsiz arxitektura va rejalashtirish muhitini yaratish;

- ortopedik rejimga rioya qilish;

- motor patologiyasi bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun maktabgacha tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish;

- o'quv jarayonini tashkil etish, yuklamalari rejimini aniqlash bo'yicha davolovchi shifokorning tavsiyalari mavjudligi (kun rejimini tashkil etish, ortopedik poyabzal kiyish rejimi, sinfdagi mashg'ulotlarni o'zgartirish, jismoniy tarbiya tanaffuslari va boshqalar).

- buzilgan aqliy funktsiyalarni tuzatish va maktabga tayyorlash uchun rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish;

- harakat buzilishi bo'lgan bolalarda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

- nutq buzilishlarini tuzatish uchun logoped yordamini tashkil etish;

- bolalarning ota-onalari bilan maqsadli ishlarni tashkil etish nogironligi bo'lganlar, ularga korreksion va rivojlantirish ishlarining mavjud usullarini o'rgatish;



normal rivojlanayotgan bolalar va ularning ota-onalarida imkoniyati cheklangan bolaga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

harakati buzilgan bolaning birgalikdagi bo'sh vaqtini va sport tadbirlariga majburiy kiritilishi.

Ko'p yillik xorijiy tajribani tahlil qilish integratsiya qanday sharoitlarda muvaffaqiyatli bo'lishini aniqlash imkonini beradi:

demokratik ijtimoiy tuzilmada shaxs huquqlari kafolatlangan holda

ommaviy muassasa tuzilmasida axloqni tuzatish va tarbiya jarayonini rivojlantirish va tashkil etish imkonini beradigan moliyaviy ta'minot

integratsiya jarayonlari oqimining zo'ravonliksizligi, tanlash imkoniyati

ta'lim dasturlarining o'zgaruvchanligi va turli darajadagi o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar uchun o'qitish tezligi va hajmini tanlash.

Ommaviy bog'chalarda o'qiyotgan nutqi buzilgan bolalar maxsus yordam va qo'llab-quvvatlash xizmatlarining homiyligida bo'lishi kerak:

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar

maslahat markazlari

logopediya markazlari

psixologik-tibbiy-ijtimoiy markazlari va boshqalar.

Ushbu xizmatlar bolalarga talaffuzni to'g'rilash, fonetik idrok etish, nutqning leksik va grammatik tuzilishi ustida ishlash, nutqning ta'sirchan va ifodali tomonlarini rivojlantirish, aqliy rivojlanishga yordam beradi.

Yordam doimiy bo'lishi mumkin, keyin u muntazam tuzatish nutq terapiyasi mashg'ulotlari tabiatida yoki epizodik bo'lishi mumkin - ota-onalar murojaat qilganidek.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. Xalqaro YUNISEF tashkiloti. – Toshkent, 1992. – 48 b.

2. Образование 2030. Инчхонская декларация и рамочная программа действий./ ООН. ЮНЕСКО. Инчхон. 2015.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2014 y.

4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / O`RQ-637-son 23.09.2020 y.

4. Ратнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. – 175 с.



5. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta'lim» /Toshkent «Chashmaprint» 2011.

6. Аналитическая записка. “Обзор законодательства и политики в области инклюзивного образования в Узбекистане” ЮНИСЕФ, Детский Фонд Организации Объединенных Наций Ташкент 2018 г.

7. Мониторинг инклюзивной образовательной среды: методические рекомендации по результатам мониторинга оценки доступности образовательной деятельности для обучающихся с ограниченными возможностями здоровья (по результатам проекта «Инклюверсариум») / под общ. ред. Л. М. Беткер; автономное учреждение дополнительного профессионального образования Ханты-Мансийского автономного округа – Югры «Институт развития образования». – ХантыМансийск : Институт развития образования. – Ханты-Мансийск, 2018. – 50 с.



UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIGA TAYYORLASH

*Jizzax viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi pedagogika, psixologiya ta'lim texnologiyalari kafedra o'qituvchisi **Shalola Rizayeva Mamir qizi***

Kadrlar malakasini oshirish - uzluksiz ta'lim tizimi turlaridan biri bo'lib, barcha sohada ishlovchi mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish jarayonidir. Kadrlarning raqobatbardoshlik sifatleri hamda bilim va ko'nikmalarining zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlaydi. Malaka oshirish har bir xodimning o'z mutaxassisligi bo'yicha so'nggi fan yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o'zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilg'or ish tajribalarini o'rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori, Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida nizomda asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

Buyurtmachi- Xalq ta'limi vazirligi va uning hududiy bo'linmalari, tizimida umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar, shuningdek, nodavlat umumta'lim tashkilotlari:

Kredit-tinglovchining alohida o'quv moduli bo'yicha o'qishi va o'zlashtirishi uchun sarflanadigan va ballarda ifodalanadigan, muayyan o'quv moduli bo'yicha belgilangan topshiriqlarni bajarib, tegishli nazorat shaklidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladigan o'quv yuklamasi;

Malaka talablari – kasbiy rivojlanish kursi (o'quv moduli) bitiruvchisining umumiy bilim va kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar;

Tinglovchi- ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotiga qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursiga qabul qilingan xalq ta'limi xodimi;

Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish- shaxs kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sish jarayoni;



О‘quv moduli- nisbatan mustaqil, mazmunan yaxlit o‘quv kursi yoki ta‘lim texnologiyasining minimal hajmdagi tarkibiy birligi hisoblanadi.

Malaka oshirish uzluksiz ta‘limning tarkibiy qismi tegishli ravishda kattalar ta‘limi jarayoni hisoblanar ekan, uning maqsadi ilgari egallangan kasbiy bilimlarni yangilash va chuqurlashtirish, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘limiy ehtiyojlarni qondirishdan iborat.

Malaka oshirish tizimi pedagoglarni ta‘lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar va modernizatsiya jarayonlarining mazmun-mohiyati bilan tanishtirishi, ta‘limdagi yangiliklarni targ‘ib qiluvchi ta‘lim maskani ekanini nazarda tutgan holda, mazkur muassasa innovatsiyalarni dastlab o‘zida joriy etishi, o‘qitish jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilishi muhim hisoblanadi. Malaka oshirish muassasalaridagi pedagogik jarayonlarga tatbiqan innovatsiya ta‘limning maqsadi, mazmuni, shakl va metodlariga, pedagoglar hamda tinglovchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga yangilik kiritishni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2022-2026 yillarda Xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida, rivojlantirish dasturining asosiy yo‘nalishlari etib;

Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari negizida Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari;

A. Avloniy nomidagi xalq ta‘limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarni belgilash ilmiy-tadqiqot instituti negizida A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda uning huzuridagi ta‘lim va ilmiy tashkilotlar Xalq ta‘limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazilishi haqida va bundan tashqari jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish, o‘qituvchilarning yoshlarga ta‘lim tarbiya berish jarayonidagi mas‘uliyatini doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish zarurligi haqida aytib o‘tilgan.

Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlarni ishlab chiqishda yetakchi oliy ta‘lim muassasasi etib belgilangan.

Pedagoglar malakasini oshirishda kasbiy bilimlar doirasini kengaytirish, aniq o‘quv fanlarining mazmunini ijodiy o‘zlashtirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, mustaqil ta‘lim olish malakalarini egallash ehtiyojini shakllantirishga yetarlicha e‘tibor qaratish zarurdir.

Ta‘lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri axborot-



kommunikatsiya texnologiyalari bilan malaka oshirish o'quv jarayonini tizimli integratsiyalash hisoblanadi. Bunda o'quv jarayonini tashkil etish va uning mazmunini tubdan yangilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o'qituvchining pedagogik faoliyati va tinglovchining ta'lim olish jarayonini tashkil etish strategik masala sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday yangilik axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali malaka oshirish jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish asosida ta'lim muassasalari pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish yo'llarini belgilash soha oldidagi muhim vazifalardandir.

Pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish qator imkoniyatlarni taqdim etadi: ta'lim resurslarini taqdim etish imkoniyatlari kengayadi; ta'lim olishga bo'lgan motivatsiya oshadi; ta'limiy masalalarni qo'yish va ularni hal etish jarayonlarini boshqarish imkoniyatlari kengayadi.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'limga tayyorlashda har bir dars jarayonida qanday yondashuv asosida dars jarayonlarini amalga oshirish, birinchi navbatda inklyuziv sinfga kirib kelgan o'quvchini jamoaga moslashtirish, sog'lom o'quvchi bilan imkoniyati cheklangan o'quvchini do'stlik, o'zaro hurmat, bir biriga ko'mak insoniylik tushunchalarini singdirish hisoblanadi. Inklyuziya – “inglizcha inclusion – uyg'unlashish” hamkorlikdagi ta'lim, butun hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan. **Inklyuziv ta'lim moduli:**

Ta'lim barcha uchun va tenglik;

Barcha uchun mos sharoitlar;

Barcha uchun mos dasturlar;

Barcha uchun mos pedagoglar;

O'qituvchi mahorati darsni aniq rejalashtirishda o'z aksini topadi. Darsni shunday rejalashtirish lozimki, unda nima qilishni mo'ljalalanayotganligi aniq o'z aksini topsin va boshqacha reja tuzish mumkinligiga o'rin qolmasin. Ba'zan yosh o'qituvchilar faoliyatida darsni rejalashtirish sohasida xatolarga yo'l qo'yilganligining guvohi bo'lamiz. Mana, masalan:

1. Maqsadda aniqlikning yo'qligi. Ya'ni, o'quvchilar aslida nima qilishlari va nimani o'rganishlari aniq belgilanmaydi.



2. Ta'lim maqsadining talablari darsning natijasi bilan to'g'ri kelmagan hollar bo'ladi.

3. O'rganish uchun tavsiya qilingan materiallar darsning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

4. O'qituvchi berayotgan yo'llanmalar o'quvchining darsda bilimlarni samarali o'rganishini ta'minlamaydi.

5. Dars rejasida ko'rsatilgan o'quvchilarning xatti xarakatlari dars maqsadini amalga oshirishning samarali vositasi bo'la olmaydi.

Bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun har bir buzulgan reja qayta ko'rib chiqilishi va xatolarni bartaraf etish ustida ishlanishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi, shunga doir metodik maslahatlar hali pedagogik va metodik adabiyotlarda o'z aksini to'liq topmayotir. O'qituvchi har bir darsni yaxlit holda ko'ra bilishi va uni tasavvur qilishi uchun loyihalashtirib olishi lozim. Bunda texnologik xaritaning tuzib olish muhim ahamiyatga ega. Chunki texnologik xarita har bir o'quv predmetining xususiyatlari, o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritalar asosida o'qituvchi dars loyahasini va algoritmini ishlab chiqarishi zarur. Dars algoritmidagi o'qituvchi barcha qilinadigan ishlarning aniq mo'ljalini belgilab, uni amalga oshirish yo'llarini tizimli, aniq ishlab chiqarishi zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bugungi kunda zamon talablari bilan to'liq qurollangan bo'lib shogirdlarni ta'lim tarbiya jarayonining fa'ol ishtirokchilariga aylantirishi lozim. Buning uchun esa o'qituvchining o'zi ta'lim – tarbiya tizimida o'qituvchining vazifasini to'liq anglab, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi talab qilinadi. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichida shu narsaga e'tibor qaratilmoqdaki, ijodkorlik, tashabbuskorlik bilan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va kerakli natijalarga erishish. Bu esa o'z-o'zidan shu narsani anglatadiki, ta'lim jarayonining maqsadi-malakali mutaxasislarni tayyorlashda, jahon ta'limi darajasiga yetkazish. Bunda albata ta'lim taraqqiyotining ko'rinishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari inklyuziv sinfga dars berish jarayonida bularni barchasiga e'tiborli bo'lishi zarur va shart. Chunki imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sinfga qanday moslashishi, o'quvchilar o'zlarini qanday his qilishi, sinf muhitini qanday shakllanishi ham bu ustozlarning pedagogik mahoratiga bog'liq,

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild.-T.: O'zME.2007.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild.-T.: O'zME.2004.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: «O'qituvchi» 1992. -160 bet.
4. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T: «O'qituvchi», 2004, - 95 bet.
5. Hasanov J.va boshq. Pedagogika. Darslik.- T.: "Nashr". 2011.
6. Farzandlari sog'lom mamlakatning kelajagi buyukdir G`G`Xalq so'zi, 2014 yil 22 fevral soni.



INKLYUZIV TA'LIM MAKTABI VA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR

*Pedagogika markazi Pedagogika va psixologiya,
ta'lim texnologiyalari kafedra mudiri
Mavjuda Tilakova, kafedra o'qituvchisi
Shalola Rizayeva Mamir qizi*

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, maxsus maktab, umumta'lim maktab, imkoniyati cheklangan bola, nutq nuqsoni, aqliy rivojlanish, harakat tayanch apparati, eshitishida nuqsoni bo'lgan bola, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola.

Keywords: Inclusive education, special school, general school, child with disabilities, speech impairment, intellectual development, mobility aid, hearing impaired child, visually impaired child.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, специальная школа, общая школа, ребенок с ограниченными возможностями, нарушение речи, интеллектуальное развитие, средства передвижения, ребенок с нарушением слуха, ребенок с нарушением зрения.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishda quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi:

- loyiha ishtirokchilari bo'lgan maxsus maktab-internatlar va birodarlashgan umumta'lim maktablari binosi va maktab-internatdan birodarlashgan maktabgacha bo'lgan yo'llarni ta'mirlandi;

- maktablar nuqson turlarini inobatga olgan holda rekonstruksiya qilishga erishildi;

- o'quvchilarni maktabga to'siqsiz qatnovini ta'minlash maqsadida maxsus avtobuslar ajratildi;

- maxsus ta'lim muassasalarini korreksion texnik vositalar, maxsus jihozlar bilan ta'minlashga erishildi;

- o'quv metodik baza yaratildi, metodik ta'minot ishlarini mustahkamlandi;

- umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun maxsus seminar o'quvlari tashkil qilindi joylarda ilgg'or pedagogik tajribalarni o'rgatish orqali ta'limning integratsiyalashgan jarayoniga tayyorlandi;

- modernizatsiya qilingan umumta'lim DTSlarni maxsus inklyuziv ta'limga moslashtirildi.



Bugungi kunda esa, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida inklyuziv ta'lim tan olinmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini jahon standartlariga tenglashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikadagi maxsus maktab-internatlari haqida qisqacha

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari 86 ta ni tashkil etadi.

Ulardan, 14 tasi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari; 18 tasi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari; 50 tasi aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab-internatlari; 1 tasi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari; 3 tasi harakat-tayanch a'zolarida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlaridir.

Hududlar kesimida mazkur maktab va maktab-internatlarini ko'rib chiqamiz:

ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari – Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 ta; Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari va Toshkent shaharida 1 tadan, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida 2 tadan,

aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab-internatlari – Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 ta; Andijonda -6 ta; Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida 2 tadan; Namanganda 3 ta; Samarqandda 4 ta; Toshkent viloyatida 10 ta; Farg'onada 5 ta; Toshkent shaharida 11 ta; Surxondaryo, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax va Xorazm viloyatlarida 1 tadan,

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida 1 tadan; Toshkent shaharida 3 ta; Andijon, Jizzax, va Xorazm viloyatlarida 2 tadan,

nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari – Namangan viloyatida yagona va faqatgina boshlang'ich sinflar faoliyatida ish yuritiladi,

harakat-tayanch a'zolarida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari – Toshkent viloyati, Farg'ona, Toshkent shaharida 1 tadan.



Bundan tashqari, Respublikamizda nogoronligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiy muhofazasi bilan shug‘ullanuvchi 7 ta “Muruvvat” uylari mavjud.

“Muruvvat” uylarida asosan murakkab nuqsonli bolalar va og‘ir darajadagi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ijtimoiy muhofaza qilinadilar va tarbiyalanadilar.

Maxsus maktab-internatlari faoliyati, ularning maqsad va vazifalari haqida

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari maqsadi – shaxsni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiyaning yuqori sifatli jarayonini ta’minlash.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari vazifalari:

- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — vazirlik) tomonidan tasdiqlangan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish maxsus o‘quv dasturlari talablari asosida bilim olishni ta’minlash;

- shaxsga va ijtimoiy yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning eng maqbul rivojlanishini ta’minlash maqsadida tabaqalashtirilgan va individual ta’limni tashkil etish;

- shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayotda va mehnat faoliyatida xulq-atvorning eng maqbul modelini shakllantirish orqali shaxsni tarbiyalash;

- o‘quvchilarni umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qishga tayyorlash;

- o‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlarining shakllanishi uchun zarur korreksion (tuzatuvchi) — rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish;

- o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida ularning psixik funksiyalari va salomatligi tizimli tarzda kuzatilishini tashkil etish.

Yuqorida berilgan imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror asosida amalga oshiriladi.



Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, ularning ixtisoslashuviga muvofiq quyidagi (I — VIII) turlarga bo'linadi:

I — kar (eshitmaydigan) bolalar uchun maktab-internatlar;

II — zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar (1, 2-bo'lim);

III — ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun maktab-internatlar;

IV — zaif ko'radigan va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

V — nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VI — tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VII — psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VIII — aqli zaif bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlar.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar soni 250 nafardan oshmasligi kerak.

O'quvchilar soni 250 nafardan oshishiga sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining o'quvchilar bilan to'ldirilish sig'imidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda vazirlikning roziligi asosida yo'l qo'yiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga bolalar 7 yoshga to'ladigan yilda, tayyorlov guruhlariga 6 yoshdan qabul qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yuborish hududiy xalq ta'limi boshqarmalari huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o'rinlarda — psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya) xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi bolalar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga qabul qilinishiga asos hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib o'qish istagini bildirgan bolalar bolani qabul qilayotgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi joylashgan hududning psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyasi yo'llanmasiga asosan qabul qilinadi.



Bolalarni qabul qilish o'quv yili davomida amalga oshiriladi va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Respublikamizda ilk maxsus maktab va maktab-internatlari ko'rishida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 1920-yilda tashkil etilgan hamda maktab faoliyati 20 nafar bolalardan iborat bo'lgan holda yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, Respublikamizda 1967-yildan boshlab, Tonkent davlat pedagogika univetsiteti qoshida defektolog kadrlar tayyorlash ishlari boshlandi. Ungacha esa defektolog kadrlar rossiyada ta'lim olganlar.

Keyinchalik, 1935-yilda aqli zaif bolalar va ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun alohida maktab va maktab-internatlari tashkil etilgan. Shu tariqa, barcha maktab va maktab-internatlarining faoliyati ajralgan holda olib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta'lim» /Toshkent «Chashmaprint» 2011.
2. Аналитическая записка. «Обзор законодательства и политики в области инклюзивного образования в Узбекистане» ЮНИСЕФ, Детский Фонд Организации Объединенных Наций Ташкент 2018 г.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan). Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O'zbekiston. 2020.



KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING O‘ZLASHTIRMA GAPGA AYLANTIRILISHI

Bahramov Fazliddin

Ishtixon tumani 36-maktab katta o‘qituvchisi

Ilm go‘yo cheksiz ummonga o‘xshaydi. Undan qay darajada bahra olmoq esa o‘zimizga bog‘liq. Yana shunisi borki, suv faqat chanqagan, unga tashna odamlar uchungina lazzatli bo‘ladi. Ilm ham shunday. Ummonning sarhadi cheksiz; ilmni o‘rganganing sari uning ham tubiga yetib bo‘lmaydi.

Biz shu ilm ummonidan bir tomchisi – Ko‘chirma gaplar xususida so‘z yuritmoqchimiz. Ko‘chirma gaplar, ularni o‘zlashtirma gapga aylantirish mavzulari 9- sinf ona tili darsligiga kiritilgan.

“So‘zlovchi ba‘zan o‘z nutqida birovning gapini aynan keltiradi. Birovning aynan keltirilgan gapi ko‘chirma gap, so‘zlovchining gapi esa muallif gapi deyiladi”

Muallif gapi va ko‘chirma gapdan tashkil topgan gapga ko‘chirma gapli qo‘shma gap deyiladi. Masalan:

Payg‘ambardan bir kishi so‘rabdi: “Ey, Rasululloh, men kimni hurmat qilay?”

Gapning: Payg‘ambardan bir kishi so‘rabdi, qismi muallif gapi; “Ey, Rasululloh, men kimni hurmat qilay?” gapi ko‘chirma gap hisoblanadi.

Ya‘ni: Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar doim ikki qismdan – muallif gapi va ko‘chirma gapdan tashkil topadi. Yozma nutqda ko‘chirma gap doim qo‘shtirnoq ichida beriladi.

Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirib, o‘zlashtirma gapga aylantirish mumkin. Masalan:

Donodan so‘radilar: “Ey, donishmand, kishi uchun eng yaxshi narsa nima?”

Gapini: Donishmanddan kishi uchun eng yaxshi narsa nima ekanligini so‘radilar, deb o‘zlashtirma gapga aylantirish mumkin.

9-sinf ona tili darsligining 2019-yilgi nashri, 176-mashqida berilgan gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish o‘quvchilarga biroz mavhumlik qilmoqda. Shu mashqdagi gaplarni tahlil qilib ko‘raylik.

1-gap. **” Rahmat, ona qizim”,- dedi muharrir mehri tovlanib.** Bu gapdagi “rahmat”- so‘z-gap. So‘z gaplarni biz o‘zlashtirma gapga aynan olib kirolmaymiz. ma`nosini ifodalovchi so‘z orqali ifodalaymiz. Ya‘ni “rahmat”ni o‘rniga “minnatdorchilik bildirmoq”ni kiritamiz. “Ona qizim” – undalma bo‘lib



kelgan.Undalmalar jo'nalish yoki chiqish kelishigidagi to'ldiruvchilarga aylantiriladi.Demakki: **Muharrir mehri tovlanib, qizga minnatdorchilik bildirdi.**

2-gap.” **Ke, picha dam ol, chirog'im,toza charchabsan**”,-dedi bobom. Gapdagi undalma bo'lib kelgan “chirog'im” so'zi ko'chma ma'noda, nevarasini erkalash uchun ishlatilgan.Demak: **Bobo nevarasini chaqirib,uningjuda charchaganini, biroz dam olishini aytdi.**

“Ke” so'zining o'rniga uning ma'nodoshi chaqirmoq fe'lini kiritamiz.

3-gap.**Kampir oyoq ostida o'sgan o'tdan yulib,kiyik tomon yura boshladi: “Ma, jonivor, ma!”**

Ko'chirma gapdagi “ma” so'zining o'rniga uning ma'nosi – bermoq so'zini kiritamiz.

Kampir oyoq ostida o'sgan o'tdan yulib, kiyik tomon yura boshladi va unga berdi.

4-gap.”**Shoshmang, Ahmadjon,**”- dedi yigit. Gapdagi “shoshmang” so'zi nutqimizda “toxtatish” ma'nosini ifodalaydi.

Yigit Ahmadjonni to'xtatdi.Ahmadjon- undalma,. Bu yerda undalma o'zlashtirma gapga aylantirilganda tushum kelishigidagi to'ldiruvchiga aylangan.

5-gap.**Xalil bobo nevarasiga girgитton bo'lib :”Hoy ,bolam,senga nima bo'ldi?A?Nima qildi, toychog'ima?”- der edi.**

Ko'chirma gap tarkibida kelgan “toychog'im” so'zi ko'chma ma'noda kelgan.Bunday so'zlar o'zlashtirma gapga aylantirilganda : **Xalil bobo nevarasiga girgитton bo'lib unga nima bo'lganligini, nima qilganligini so'radi,** tarzida yoziladi.

6-gap. “ **Zap yigit ekansizda, Tursunalijon. Barakalla, barakalla.**”- dedi u.

Olqishlamoq ma'nosidagi barakalla so'zining ma'nosini gapga kiritamiz:

U Tursunalijonning (zap so'zining o'rniga uning boshqa ma'nodoshini qo'yamiz) yaxshi yigit ekanligini aytib, maqtadi.

Xulosa shuki, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirganimizda faqat shaklga emas, ma'nosiga ko'proq urg'u bersak bu mavzularni o'quvchilarga muammolarsiz , oson o'rgatishga muvaffaq bo'lamiz.



XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “BESH BOLALI YIGITCHA” ASARIDAN OLGAN TAASSUROTLARIM

Muzaffarova Nilufar

Ishtixon tumani 36-maktabning

5-sinf o‘quvchisi

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, davlat arbobi Xudoyberdi To‘xtaboyev 1932-yil 17-dekabrda Farg‘ona viloyatida tug‘ildi. U o‘zining mehnat faoliyatini 1955-yildan boshlagan. “Sharq yulduzi” jurnalida muharrir, “Gulxan”, “Yosh kuch” jurnallarida bosh muharrir; “Iste‘dod” va “Oltin meros” jamg‘armalarining rahbari sifatida faoliyat olib borgan.

Katta bilim va tajribaga ega murabbiy sifatida ko‘p yillar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining bolalarga mo‘ljallangan “O‘yla, izla, top” dasturiga boshchilik qilgan.

Iste‘dodli adib oltmish yildan ziyot davom etgan ijodiy faoliyati natijasida “Shoshqaloq”, “So‘qmoqlar”, “Muhabbat qo‘shig‘i”, “Jonginam, shartingni ayt” singari hikoyalar to‘plamlari; “Sir ochildi”, “Omonboy va Davronboy sarguzashti” qissalari hamda “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Besh bolali yigitcha”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Yillar va yo‘llar”, “Shirin qovunlar mamlakati”, “Mungli ko‘zlar”, “Jannati odamlar”, “Qiz talashgan o‘smirlar”, “Quyvonlar saltanati”, “Qiz bolaga tosh otmang” romanlarini yozgan.

Ana shunday betakror asarlaridan biri “Besh bolalik yigitcha” romanidir. Asarning bosh qahramoni- Orif. Orif ukalariga juda mehribon edi. Onasining uy ishlariga ko‘makchi, jonkuyar; ukalarini eng qiyin kunlarda ham tashlab ketmaydi, balki ularga yordam beradi. Hattoki ukalarining yeguliklarini ham hech kimga bermaydi. Tabiatan quvnoq bo‘lganligi uchun do‘stlarini Afandi latifalaridan aytib kuldiradi, shunday og‘ir zamonda ularga xursandchilik ulashadi. Ammo do‘stlari uni masxara qilsa ularning ham ustidan kulardi. Ukalarini yelkasida opichlab kata qilgan Prifga hamisha ham oson bo‘lmadi. G‘afur G‘ulom aytganidek:

Iblisning g‘arazi bo‘lgan bu urush

Albatta yetadi o‘zin boshiga,- kunlar kelishigacha taqdir charxpalagi uni ne kunlarga solmadi deysiz... Onasidan ayrildi, otasi urushdan qaytmadi... Ammo Orif qaddini egmadi. Ukalariga suyanchiq bo‘la oldi.

Xudoyberdi to‘xtaboyev – kata iste‘dod egasi. Urush yillaridagi bir o‘smirning hayoti yoritilgan bu asari ham tengsiz asardir.

Besh bolali Orif achchiq sinovlarni boshidan kechirdi. Aytish mumkinki, u zafar quchgan Orifdir!



SO‘FI OLLOYOR “SABOT UL OJIZIN” VA XO‘JANAZAR HUVAYDONING “ROHATI DIL” ASARLARINING MUSHTARAK JIHLTLARI

Nigora Xalilova

*Ishtixon tumani 36- umumta`lim
maktabi birinchi toifali o`qituvchisi*

Adabiyotni chamanzorga qiyoslash mumkin. Bu bo‘stonda turfa xil gullar o‘sadi va ular turfa xil ifor taratadi.

Adabiyot bo‘stonini o‘zgacha ifor bilan boyitib turgan ijodkorlardan So‘fi Olloyor va Xo‘janazar Huvaydolarni aytishimiz mumkin. So‘fi Olloyorning “Sabot ul ojizin”, Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarlari ham ana shu bo‘stonning o‘ziga xos na`munasi hisoblanadi. Ayni paytda bu ikki asarning mushtarak jihatlari ham mavjud bo‘lib, bu go‘yoki bog‘dagi gullarning yonma-yon o‘sib, go‘zallik taratayotganiga o‘xshaydi.

“Sabot ul ojizin” va “Rohati dil” asarlarining mavzusi, mazmuni, g‘oyasi va hatto qofiyalanishi bir-biriga o‘xshab ketsada, ijodkorning san`atkorligi har ikkala asarda ham kishini lol qoldiraveradi. Misol uchun “Sabot ul ojizin” asarida shunday bayt bor:

Nechukki tutti to‘fon dashtu tog‘i
Va lekin bo‘lmadi ho‘l Nuh oyog‘i

Bu yerda shoir Nuh alayhissalom davrlarida sodir bo‘lgan to‘fon voqeasini eslatib, talmeh badiiy san`atini hosil qilmoqda. Ya`ni, butun dashtu tog‘ni to‘fon tutdi, lekin Nuhning hatto oyog‘i ham ho‘l bo‘lmadi demoqda shoir.

Shunga o‘xshash tasvirni biz “Rohati dil” da ham kuzatishimiz mumkin:

Duosidin birovning berdi to‘fon,
Qiribdi yer yuzinda qolmadi jon.
Anikim saqladi halloki dovar,
O‘shal suv etakini qilmadi tar.

Ya`ni to‘fon bo‘lganida yer yuzida tirik jon qolmadi, barchasi qirildi. biroq Olloh uni jonini saqlab qoldi, hatto suv uning etagin ham ho‘l qilmadi. Tar so‘zining ma`nosi ho‘l, nam deganidir. Yuqoridagi satrlarda yashirin talmeh san`ati qo‘llangan.

“Sabot ul ojizin” asarining “Qiyomat haqligi bayoni” qismida shunday satrlar bor:



Yig'ilganda yomon-u yaxshi banda,
Qulingni qilmag'il sharmanda anda.

Bu baytda bandaning Ollohga qilgan munojoti o'z aksini topgan. Qiyomat kunida barcha insonlar qayta tiriladilar va bir joyga jam bo'ladilar, ana shu yomon-u yaxshi banda yig'ilgan kunda men –qulingni sharmanda qilmagil, demoqchi bo'ladi shoir.

Endi buni Xo'janazar Huvaydo qanday tasvirlaganini ko'rib o'tamiz:

Ayirma bizni rohi bandalikdin,
Omon etkil o'shal sharmandalikdin.

Ya`ni bizni bandalik yo'ldan ayirmagin va o'sha(Qiyomat kuni)sharmandalikdan, izza bo'lishdan omon etkil, demoqda shoir.

Olloh kechirimli, Olloh rahmdil. Shuning uchun So'fi Olloyor ham ul Zotning marhamatiga umid bog'laydi:

Agar altofingga boqsam Ilohim,
Umidim ko'p bag'ishlangay gunohim.
Ya`ni shoir o'z gunohlarini bo'yniga olib, Ollohning lutfiga umid bog'laydi.
Xo'janazar Huvaydo "Rohati dil" asarida :

Gunohim vahmidin yo'qdur yuragim,
Va lekin ko'pdurur sendin tilagim.

Bu misralarda qilgan gunohlaridan yuragida qo'rquv bo'lsada, biroq Ollohdan tilagi, umidi ko'p bo'lgan shoir Ollohga munojot qiladi.

Qiyomat kuni gunohkor bandalar o'z gunohlariga yarasha jazolanadilar. So'fi Olloyor ham qiyomat kuni haqida yozar ekan, shunday deydi:

Havo misdek qizir, yer ham temirdek
G'azab qilgan kishi bo'lgay ko'mirdek.

Ya`ni, qiyomat kuni havo ham misdek qiziydi, yer esa temirdek. G'azab qilgan kishining yuzi xuddi ko'mirdek qora bo'ladi. deya yashirin tashbeh san`atini



qo‘llagan. Mana shu satrlarni bitar ekan shoir insonlarni gunoh ish qilishdan tiyilishga chorlaydi. Chunki qiyomat kuni barcha qilgan gunohlariga javob beradi.

“Rohati dil” asarida esa shunday yozilgan:

Alarning tanlari bo‘lgay ko‘murdek
Tanni kuydirib qilg‘ay temurdek

So‘fi Olloyor g‘azab qilgan kishini yuzi ko‘mirdek qorayadi degan bo‘lsa, Xo‘janazar Huvaydo gunohkorlarning tanalari ko‘murdek bo‘ladi, deydi. So‘fi Olloyor qiyomat kuni yer ham temirdek qiziydi, degan bo‘lsa, Huvaydo tanlarni ko‘mirdek kuydirib, temirdek qilib qo‘yadi deb yozadi.

Jannat haqida fikr yuritar ekan har ikkala ijodkorning fikrlari mushtarak ekanligini kuzatishimiz mumkin:

Tirikdir doimo ,andin so‘ng o‘lmas
Alamdin hiznu g‘amdin zarra bo‘lmas

Ya`ni Jannatga kirgan odamlar doimo tirikdir, ularga o‘lim yo‘q, o‘lmaydilar va ularga alamdin ham, g‘amdin ham zarra bo‘lmaydi, deb yozadi So‘fi Olloyor o‘zining “Sabot ul o‘jizin” asarida.

Huvaydo esa:

Degaylar ey bihisht ahli bilingiz
Tirikdir, o‘lum yo‘q sizga hargiz

Ya`ni aytadilarki, bihisht-jannat ahli doimo tirikdir, ularga o‘lum hargiz yo‘qdur, deb yozadi.

Ular jannat haqidagi fikrlarini davom ettirar ekanlar shunday misralarni bitadilar:

Hamisha aysh ila ishratda banda
Ko‘ngulda kechmog‘on ishratlar onda

So‘fi Olloyor aytmoqchiki, Jannatda banda doimo aysh-ishratda bo‘ladi, hatto ko‘nglidan kechirmagan, o‘ylamagan orzu umidlari, ishratlari ham u yerda ro‘yobga chiqadi.



Хо‘janazar Huvaydo esa:

Munodiy aylagay,ey ahli jannat
O‘lum yo‘q sizga ,emdi ayla ishrat

-deya jannat ahliga o‘lum yo‘qligini yana ta`kidlagan holda ,endi ishrat ayla,rohat-farog‘atda yasha deb yozadi.

Topilmas aningdek gavhari pok
Anga kiydirdi Tangri toji lavlok

Bu baytda Huvaydo payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. ni madh etmoqda.Baytni tahlil qilishdan oldin “lavlok”so‘zining ma`nosini tushunib olishimiz darkor.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati 2-tomi 162-betida “lavlok”so‘ziga “Agar sen bo‘lmaganingda (qisq.lavloka lamo xalaqtul afloka-agar sen bo‘lmaganingda falaklarni yaratmagan bo‘lur edim)deb ta`rif berilgan.

Demak shoir aytmoqchiki,seningdek pok gavhar topilmaydi,Tangri senga lavlok tojini kiydirdi.Ya`ni butun olamni faqat sen uchun yaratdi.

So‘fi Olloyorda ham xuddi shunday tasvir bor:

Emas mavjud aningdek gavhari pok
Dalil uldirki kiydi toji lavlok

Ya`ni bu dunyoda uningdek pok gavhar mavjud emas,bunga dalil uldirki,unga lavlok toji kiydirildi.

So‘fi Olloyorning «Sabot ul ojizin” asarida:

Xalilulloh uchun yondirdilar nor
Qadam qo‘ymay o‘shal o‘t bo‘ldi gulzor

Bu baytda shoir Ibrohim Xalilullohni eslaydi va talmeh san`atini qo‘llaydi.Rabg‘uziyning “Qissayi Rabg‘uziy”asarida Ibrohim va Namrud haqida hikoyat keltiriladi.Unda Namrud Ibrohim alayhissalomni o‘tda yoqishga farmon beradi,biroq Ollohning karomati birla ul zot olovdan omon qoladi.So‘fi Olloyor



aynan ana shu voqeaga ishora qiladi va Ibrohim Xalilulloh uchun olov(nor)yondirdilar lekin qadam qo‘ymay u gulzorga aylandi,demoqda.

Mana shu voqeaga ishorat Huvaydoning “Rohati dil”asarida ham uchraydi:

Qilur so‘zandalik da`vosini nor
Birovga na uchun ul bo‘ldi gulzor

Bunda ham yashirin talmeh san`ati qo‘llangan bo‘lib,Ibrohim alayhissalom voqeasi eslangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki har ikkala ijodkor lirikasi ikki alohida bino.Biroq ularning mushtarak jihatlari ham mavjud bo‘lib,go‘yo ikki asar bir-birini to‘ldiradi.Asarlardagi tasavvufiy ma`no,so‘fiyona qarash va omonim so‘zlarni san`atkorlik bilan qo‘llaganini kuzatishimiz mumkin.Bu asarlarning bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir.Chunki gunoh ishlardan tiyiladi,tarixda bo‘lgan voqealardan to‘g‘ri xulosa chiqaradi,nafs qoralanadi.”Sabot ul ojizin”va “Rohati dil” asarlari yoshlarni komil bo‘lishga,gunohlardan tiyilishga chorlaydi.



TARBIYA-IJTIMOIIY HODISA

Ilmiy rahbar: Ochilova Hilola Sheraliyevna
Maktabgacha ta'lim texnologiyasi kafedrası o'qituvchisi
Dhdhdiid625@gmail.com

Olimova Dilshoda Fayzulla qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
dilshodaolimova85@gmail.com

Qulbulova Rayhona Anvar qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
rayhonaqulbulova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiyaning ijtimoiylashuvda tutgan o'rnini, mavqeyi va bola rivojlanishidagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ijtimoiylashuv, hodisa, bola, jamiyat, tarbiyachi, munosabat, tarbiyaviy ta'sir.

Annotation: This article will talk about the role of upbringing in socialization, its position and its importance in the development of the child.

Keywords: Upbringing, socialization, phenomenon, child, society, educator, attitude, educational impact.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о роли воспитания в социализации, его положении и значении для развития ребенка.

Ключевые слова: Воспитание, социализация, феномен, Ребенок, общество, воспитатель, отношение, воспитательное воздействие.

Tarbiya- shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogikaning asosiy mezoni – tarbiya. Tarbiya – ijtimoiy hayotning abadiy va umumiy mezoni. Pedagogika bolalar tarbiyasini shaxs axloqiy xislatlarini shakllantirishning maqsadga qaratilgan jarayoni sifatida ko'rib chiqadi.



Biroq bu tarbiya jarayoni har doim ham yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Yuqorida ijtimoiy ta'lim vazifasini ko'rib chiqib, ko'rsatdiki, bolada muayyan bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanishi kerak. Ularning shakllanish jarayoni, masalan, otaga, onaga g'amxo'r, e'tiborli, mehribon, rahmdil munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq. Agar qandaydir sababga ko'ra bolada ijtimoiy bilimlar shakllanmagan bo'lsa, demak, munosabatlar shakllanmagan, ya'ni unga zarur bo'lgan ijtimoiylashuvda qandaydir shaxs xislatlari ham shakllanmagan. Shuning uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida boladagi shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xislatlar shakllangan bo'lishi kerak – shuni o'zi ijtimoiy tarbiyaning vazifasidir. Bolaning rivojlanishida tarbiya alohida o'rinni egallaydi. U, avvalo, jamiyatga moslashishida, ma'lum bir muhitda o'z o'rnini topishida muhit, tarbiya, irsiyat alohida katta o'rinni egallaydi. Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Bola tarbiyasi muvaffaqiyati to'g'ridan-to'g'ri shaxslararo aloqalarning intensevligi va boyligiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra keng va tor ma'nodagi tarbiyaga bo'linadi. Keng ma'nodagi tarbiya-shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda esa pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Sho'rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsning tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy



tadbirlarga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekti bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyligi, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchikovlik bilan o'rganilayapti. Natijada, O'zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olinib boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doyr hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o'z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir", deb yozib qoldiradi.

Shuning uchun ham yosh avlodning tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz".-T:"O'zbekiston".-2017-yil.448-bet
- 2.N.M.Egamberdiyeva Ijtimoiy pedagogika.-T:2014-yil darslik
- 3.B.G.Qodirov "Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari",Toshkent "Mehnat" 2001-yil.
4. Ochilova Hilola Sheraliyevna. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING GRAMMATIK TO'G'RILIGINI SHAKLLANTIRISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 179–185. Retrieved from
5. Ochilova, Xilola Sheraliyevna. МАКТАБГАЧА TARBIYA MUASSASALARIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH. 278-284
6. Ochilova Hilola Sheraliyevna. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 70–75



ALGEBRAIK TENGLAMALAR VA ULARNING YECHIMLARI

Abdufayozov Jahongir Faxriddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi

akademik litsey matematika fani

o'qituvchisi jahongirmom@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tenglamalar, ayniyat tushunchasi, tenglamalar sistemasi, ularning turlari, yechimlari hamda tenglamalarni yechish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tenglamalar, ayniyat, algebra, tenglik, kvadrat tenglama, vektor.

Tenglamalar mavzusi algebra fanining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, keng tatbiqqa ega. Ko'pgina amaliy va ilmiy masalarni yechishda biror kattalikni bevosita o'lchash yoki oldindan ma'lum bo'lgan formula bo'yicha hisoblash mumkin bo'lsa, bu miqdor qanoatlantiradigan munosabatni tuzishga to'g'ri keladi. Tuzilgan munosabatdagi noma'lum kattalikni topish uchun tenglama yoki tenglamalar sistemasi tuziladi.

Masalan: Asosi 6m ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni yuzasi 24 m^2 bo'lishi uchun, uning balandligi qanday bo'lishi kerak? Ravshanki, $S=ab$, tenglama tuzib, shu to'g'ri to'rtburchakning asosi topiladi. Shu o'rinda tenglama tushunchasiga alohida to'htalib o'tish joiz hisoblanadi. Chunki, ko'pincha tenglik, tenglama va ayniyat tushunchalari ortasidagi farqlarni ajratishga to'g'ri keladi.

Tenglama va ayniyat tushunchalari.

va h.k. ko'rinishdagi ifodalarga tengliklar deyiladi.

Ta'rif: “=” belgisi qatnashgan ifodalarga tengliklar deyiladi.

Tengliklar ikki xil bo'ladi: 1. Tenglamalar; 2. Ayniyatlar. **Ta'rif:** Tarkibidagi noma'lumning ba'zi bir qiymatlaridagina to'g'ri bo'ladigan tengliklarga tenglamalar deyiladi.

Ta'rif: Tarkibidagi noma'lumning istalgan qiymatlarida ham to'g'ri bo'ladigan tengliklarga ayniyatlar deyiladi.

Masalan: Yuqorida keltirilgan tengliklardan: ayniyat va lar tenglamalardir.

Haqiqatdan ham, tenglik ning istalgan qiymatida ham y'rinli.

tengliklardan birinchisi ning qiymatidagina, ikkinchisi esa ning va qiymatidagina to'g'ri tenglikka aylanadi. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki,



tenglamalar ham cheksiz ko'p qiymatlar qabul qilishi mumkin. Ammo, istalgan qiymatni emas. Maktab matematika darsliklarida noma'lumlar faqat son qiymat qabul qiladigan tenglamalar qaraladi. Umum matematikada noma'lumlari butun qiymatlardan iborat bo'lgan tenglamalar (Diofant tenglamalar), noma'lumlari vektorlar bo'lgan tenglamalar (vektorial tenglamalar), noma'lumlari funktsiyalar bo'lgan tenglamalar (integral, differentsial, funktsional tenglamalar) va boshqa tenglamalar ham qaraladi. Matematika fan sifatida shakillana boshlagan vaqtdan boshlab algebraning asosiy masalasi tenglamalarni yechish usullarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan. Tenglamalarni biz o'rganayotgan harflar orqali yozilishi XVI asrga kelib uzil-kesil shakillandi. Noma'lumlarning lotin alifbosining oxirgi x, y, z, \dots harflari, ma'lum (berilgan) miqdorlar (parametrlar)ni lotin alifbosining dastlabki a, b, c, \dots harflari orqali belgilashni frantsuz olimi R. Dekart (1596-1662) kiritgan. Tenglamalarni algebraik yechishning odatdagi usuli (analitik yechish) shundan iboratki, uni almashtirishlar yordamida soddaroq tenglamaga keltiriladi. Agar birinchi (dastlabki) tenglamaning barcha yechimlari ikkinchi (almashtirish natijasida hosil bo'lgan tenglama) tenglamaning ham yechimlari bo'lsa, u holda ikkinchi tenglama birinchisining natijasi deyiladi. Agar ikkita tenglamadan har biri boshqasining natijasi bo'lsa (ya'ni ularning yechimi bir xil bo'lsa), bunday tenglamalar teng kuchli deyiladi. Odatda tenglamalarni yechishda ularni eng sodda tenglamalarga keltirishga harakat qilinadi, chunki ularni yechish uchun tayyor formula mavjud (chiziqli tenglama, kvadrat tenglama, uchinchi va to'rtinchi darajali tenglamalar). Amalda esa hosil qilinadigan barcha tenglamalarni ham tayyor formulalar bilan yechib bo'lmaydi. **Masalan:** Beshinchi darajali tenglamani yechish uchun umumiy formula mavjud emas. Norvegiyalik matematik Abel Nils (1802-1829) beshinchi va yuqori darajali har qanday algebraik tenglamalarning radikallarda yechilmasligini isbotlagan. Endi ba'zi darajasi to'rtinchi darajadan oshmaydigan tenglamalarni yechish usullari va formulalari bilan tanishamiz:

Birinchi darajali bir noma'lumli tenglama.

(1)

Ko'rinishdagi tenglamaga birinchi darajali bir noma'lumli tenglama deyiladi. Biror ifoda, unda qatnashayotgan harf birinchi darajada bo'lsa, bu ifoda shu harfga nisbatan chiziqli deyiladi. Shu sababli (1) tenglama noma'lum ga nisbatan birinchi darajada qatnashgani sababli chiziqli tenglama deyiladi. (1) tenglamani yechish uchun ozod had b ni tenglikning o'ng tomoniga o'tkazib, so'ngra tenglikni 0 ga bo'lish kifoya, ya'ni



tenglama chiziqli tenglamaning eng sodda ko`rinishi bo`lib , boshqa ko`rinishdagi tenglamalar (1) ko`rinishga keltiriladi .

Masalan: chiziqli tenglamani yechish uchun qavslarni ochib chiqib (1) ko`rinishga keltiramiz:

berilgan tenglamaning yechimi (ildizi) dir.

Haqiqatan ham,

Agar berilgan tenglamada noma`lum kasrning mahrajida kelsa, avval kasr mahrajidan qutqazilib, yuqorida yechilgan tenglamaga o`hshash tenglamaga keltirilib yechiladi .

Misol.

Ravshanki, bu tenglamada bo`lsa, kasrning mahraji nolga teng bo`ladi. Shu sababli deb, tenglamani ga ko`paytirsak,

yoki

Haqiqatdan ham berilgan tenglamada x o`rniga 12 qo`ysak,

Kvadrat tenglama.

Ushbu , () (1)

Ko`rinishdagi tenglamaga kvadrat tenglama deyiladi, bu erda o`zgarmas koeffitsientlar. Kvadrat tenglamani ildizlarini topish uchun (1) tenglikni ga ko`paytiramiz:

yoki

(2)

(2) formula bilan topilgan x_1 va x_2 (1) tenglamaning ildizidir.

Misol. kvadrat tenglamani yeching.

Yechish. , , bo`lganida (2) formulaga asosan.

Agar kvadrat tenglamada bo`lsa, tenglikni ga bo`lsak, hosil bo`lgan kvadrat tenglamaga keltirilgan kvadrat tenglama deyiladi va

(3)

Ko`rinishda yoziladi , bu erda , bo`lib, (2) formula quydagi ko`rinishda bo`ladi. (4)

Agar (1) kvadrat tenglamaning b va c koeffitsientlaridan biri yoki ikkalasi bir vaqtda nolga teng bo`lsa , hosil bo`lgan tenglamaga chala kvadrat tenglama deyiladi.

Chala kvadrat tenglamalar quyidagi ko`rinishlarga ega bo`ladi:

1).



Agar va ning ishoralari qarama – qarshi bo`lsa, ikkita haqiqiy ildizga va bir xil ishorali bo`lsa, mavhum ildizlarga ega bo`lamiz.

2). , bo`lsa,

bo`ladi.

3). bo`lsa, $x_1=x_2=0$ bo`ladi.

Misollar. Quyidagi chala kvadrat tenglamalarni yeching:

Yechish: Ravshanki, berilgan kvadrat tenglamalar yuqorida ko`rilgan kvadrat tenglamalarning 1), 2), 3) ko`rinishiga mos keladi

(2) formulada ildiz ostidagi ifodaga kvadrat tenglamaning diskreminanti deyiladi va ko`rinishda belgilanadi.

Kvadrat tenglamani yechmasdan uni ildizlari qanday son bo`lishini aniqlashga, kvadrat tenglamani tekshirish deyiladi.

Kvadrat tenglamani tekshirganda quyidagi uch xol qaraladi:

1. $D>0$, bunda kvadrat tenglamaning iddizlari haqiqiy va har xil bo`lib, , bo`ladi.

2. $D=0$ bo`lsa, kvadrat tenglama ikkita bir xil haqiqiy ildizga ega bo`ladi, ya`ni .

3. $D<0$ bo`lsa, kvadrat tenglama ikkita qo`shma kompleks ildizga ega bo`ladi: ;

Misollar. Quyidagi kvadrat tenglamalarni tekshiring va ildizlarini toping.

Yechish: bo`lganidan

demak, kvadrat tenglamaning ildizlari haqiqiy va har xil.

Haqiqatdan ;

b). bo`lganda

c) bo`lganidan

;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.F.Usmonov, R.Isomov -«Matematikadan qo`llanma» Toshkent -2006

2.M.K.Potakov. «Algebra elementarnix funktsii» Moskva -1980

3. «Yosh matematik qomusiy lug`ati» - Toshkent 1991

4 M.Mansurov.«Matematikadan qisqacha ma`lumotnoma»Jizzax-2007



YUQORI TARTIBLI HOSILALAR

Abdufayozov Jahongir Faxriddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi

akademik litsey matematika fani

o'qituvchisi jahongirmom@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yuqori tartibli hosilalar hamda ularni yechish usullari, yuqori tartibli hosilalariga oid misol va masalalarni yechish hamda ularning yechimlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Yuqori tartibli hosilalar, teorema, simvollar, rekkurent, qiymat, hosila.

Faraz qilaylik, biror (a, b) da hosilaga ega $f(x)$ funksiya aniqlangan bo'lsin. Ravshanki, $f'(x)$ hosila (a, b) da aniqlangan funksiya bo'ladi. Demak, hosil bo'lgan funksiyaning hosilasi, ya'ni hosilaning hosilasi haqida gapirish mumkin. Agar $f'(x)$ funksiyaning hosilasi mavjud bo'lsa, uni $f(x)$ funksiyaning ikkinchi tartibli hosilasi deyiladi va y'' , $f''(x)$, $\frac{d^2 y}{dx^2}$, $\frac{d^2 f(x)}{dx^2}$ simvollarning biri bilan belgilanadi. Shunday qilib, ta'rif bo'yicha $y''(x) = (y')'$ ekan.

Shunga o'xshash, agar ikkinchi tartibli hosilaning hosilasi mavjud bo'lsa, u uchinchi tartibli hosila deyiladi va y''' , $f'''(x)$, $\frac{d^3 y}{dx^3}$, $\frac{d^3 f(x)}{dx^3}$ kabi belgilanadi. Demak, ta'rif bo'yicha $y''' = (y'')'$.

Berilgan funksiyaning to'rtinchi va h.k. tartibdagi hosilalari xuddi shunga o'xshash aniqlanadi. Umuman $f(x)$ funksiyaning $(n-1)$ -tartibli $f^{(n-1)}(x)$ hosilasining hosilasiga uning n -tartibli hosilasi deyiladi va $y^{(n)}$, $f^{(n)}(x)$, $\frac{d^n y}{dx^n}$, $\frac{d^n f(x)}{dx^n}$ simvollarning biri bilan belgilanadi. Demak, ta'rif bo'yicha n -tartibli hosila $y^{(n)} = (y^{(n-1)})'$ rekkurent (qaytma) formula bilan hisoblanar ekan.

Misol. $y = x^4$ funksiya berilgan. $y''''(2)$ ni hisoblang.

Yechish. $y' = 4x^3$, $y'' = 12x^2$, $y''' = 24x$, demak $y''''(2) = 24 \cdot 2 = 48$.

Yuqorida aytilganlardan, funksiyaning yuqori tartibli, masalan, n -tartibli hosilalarini topish uchun uning barcha oldingi tartibli hosilalarini hisoblash zarurligi kelib chiqadi. Ammo ayrim funksiyalarning yuqori tartibli hosilalari uchun umumiy qonuniyatni topish va undan foydalanib formula keltirib chiqarish mumkin.

Misol tariqasida ba'zi bir elementar funksiyalarning n -tartibli hosilalarini topamiz.

1) $y = x^\mu$ ($x > 0$, $\mu \in \mathbb{R}$) funksiya uchun $y^{(n)}$ ni topamiz. Buning uchun uning hosilalarini ketma-ket hisoblaymiz: $y' = \mu x^{\mu-1}$, $y'' = \mu(\mu-1)x^{\mu-2}$, ...

Bundan

$$(x^\mu)^{(n)} = \mu(\mu-1)(\mu-2)\dots(\mu-n+1)x^{\mu-n} \quad (8.1)$$



deb induktiv faraz qilish mumkinligi kelib chiqadi. Bu formulaning $n=1$ uchun o‘rinliliigi yuqorida ko‘rsatilgan. Endi (1) formula $n=k$ da o‘rinli, ya’ni $y^{(k)} = \mu(\mu-1)\dots(\mu-k+1)x^{\mu-k}$ bo‘lsin deb, uning $n=k+1$ da o‘rinli bo‘lishini ko‘rsatamiz.

Ta’rifga ko‘ra $y^{(k+1)} = (y^{(k)})'$. Shuning uchun

$$y^{(k+1)} = (y^{(k)})' = (\mu(\mu-1)\dots(\mu-k+1)x^{\mu-k})' = \mu(\mu-1)\dots(\mu-k+1)(\mu-k)x^{\mu-k-1}$$

bo‘lishi kelib chiqadi. Bu esa (8.1) formulaning $n=k+1$ da ham o‘rinli bo‘lishini bildiradi. Demak, matematik induksiya usuliga ko‘ra (8.1) formula $\forall n \in \mathbb{N}$ uchun o‘rinli.

(8.1) da $\mu=-1$ bo‘lsin. U holda $y = \frac{1}{x}$ funksiyaning n -tartibli hosilasi

$$\left(\frac{1}{x}\right)^{(n)} = (-1)(-2)\dots(-n)x^{-1-n} = \frac{(-1)^n \cdot n!}{x^{n+1}} \quad (8.2)$$

formula bilan topiladi.

2) $y = \ln x$ ($x > 0$) funksiyaning n -tartibli hosilasini topamiz. Bu funksiyainng birinchi hosilasi $y' = \frac{1}{x}$ bo‘lishidan hamda (8.2) formuladan foydalansak,

$$y^{(n)} = (y')^{(n-1)} = \left(\frac{1}{x}\right)^{(n-1)} = \frac{(-1)^{n-1} (n-1)!}{x^n} \quad (8.3)$$

formula kelib chiqadi.

3) $y = \sin x$ bo‘lsin. Ma’lumki, bu funksiya uchun $y' = \cos x$. Biz uni quyidagi

$$y' = \cos x = \sin\left(x + \frac{\pi}{2}\right)$$

ko‘rinishda yozib olamiz. So‘ngra $y = \sin x$ funksiyaning keyingi tartibli hosilalarini hisoblaymiz.

$$y'' = (\cos x)' = -\sin x = \sin\left(x + 2 \cdot \frac{\pi}{2}\right),$$

$$y''' = (-\sin x)' = -\cos x = \sin\left(x + 3 \cdot \frac{\pi}{2}\right),$$

$$y^{(IV)} = (-\cos x)' = \sin x = \sin\left(x + 4 \cdot \frac{\pi}{2}\right)$$

Bu ifodalardan esa $y = \sin x$ funksiyainng n -tartibli hosilasi uchun

$$y^{(n)} = \sin\left(x + n \cdot \frac{\pi}{2}\right) \quad (8.4)$$

formula kelib chiqadi. Uning to‘g‘riligi yana matematik induksiya usuli bilan isbotlanadi.

Xuddi shunga o‘xshash

$$(\cos x)^{(n)} = \cos\left(x + n \cdot \frac{\pi}{2}\right) \quad (8.5)$$

ekanligini ko‘rsatish mumkin.

Masalan,



$$(\cos x)^{(115)} = \cos\left(x + 115 \cdot \frac{\pi}{2}\right) = \cos\left(x + \frac{3\pi}{2}\right) = \sin x.$$

Ikkinchi tartibli hosilaning mexanik ma'nosi.

Ikkinchi tartibli hosila sodda mexanik ma' noga ega. Faraz qilaylik moddiy nuqtaning harakat qonuni $s=s(t)$ funksiya bilan aniqlangan bo' lsin. U holda uning birinchi tartibli hosilasi $v(t)=s'(t)$ harakat tezligini ifodalashi bizga ma' lum. Ikkinchi tartibli $a=v'(t)=s''(t)$ hosila esa harakat tezligining o' zgarish tezligi, ya' ni harakat tezlanishini ifodalaydi.

Misol. Moddiy nuqta $s=5t^2+3t+12$ (s metrlarda, t sekundlarda berilgan) qonun bo' yicha to' g' ri chiziqli harakat qilmoqda. Uning o' zgarish kuch ta'rsirida harakat qilishini ko'rsating.

Yechish. $s'=(5t^2+3t+12)'=10t+3$; $s''=(10t+3)'=10$, bundan $a=10m/s^2$ bo' lib, harakat tezlanishi o' zgarish ekan. Nyuton qonuni bo' yicha kuch tezlanishga proporsional. Demak, kuch ham o' zgarish ekan.

Yuqori tartibli hosilaning xossalari. Leybnits formulasi

1-xossa. Agar $u(x)$ va $v(x)$ funksiyalar n -tartibli hosilalarga ega bo' lsa, u holda bu ikki funksiya yig' indisining n -tartibli hosilasi uchun

$$(u(x)+v(x))^{(n)}=u^{(n)}(x)+v^{(n)}(x)$$

formula o' rinli bo' ladi.

Aytaylik $y=u+v$ bo' lsin. Bu funksiyaning hosilalarini ketma-ket hisoblash natijasida quyidagilarni hosil qilamiz: $y'=u'+v'$, $y''=(y')'=(u'+v')'=u''+v''$.

Matematik induksiya metodidan foydalanamiz, ya' ni $n=k$ tartibli hosila uchun $y^{(k)}=u^{(k)}+v^{(k)}$ tenglik o' rinli bo' lsin deb faraz qilamiz va $n=k+1$ uchun $y^{(k+1)}=u^{(k+1)}+v^{(k+1)}$ ekanligini ko' rsatamiz.

Haqiqatan ham, yuqori tartibli hosilaning ta' rifi, hosilaga ega bo' lgan funksiyalar xossalariidan foydalanib $y^{(k+1)}=(y^{(k)})'=(u^{(k)}+v^{(k)})'=(u^{(k)})'+(v^{(k)})'=u^{(k+1)}+v^{(k+1)}$ ekanligini topamiz.

Matematik induksiya prinsipiga ko' ra $y^{(n)}=u^{(n)}+v^{(n)}$ tenglik ixtiyoriy natural n uchun o' rinli deb xulosa chiqaramiz.

2-xossa. O' zgarish ko' paytuvchini n -tartibli hosila belgisi oldiga chiqarish mumkin: $(Cu)^{(n)}=Cu^{(n)}$.

Bu xossa ham matematik induksiya metodidan foydalanib isbotlanadi. Isbotini o' quvchilarga qoldiramiz.

Misol. $y=\frac{2x+3}{x^2-5x+6}$ funksiyaning n -tartibli hosilasi uchun formula keltirib chiqaring.

Yechish. Berilgan kasr-ratsional funksiyaning maxrajini ko' paytuvchilarga ajratamiz: $(x^2-5x+6)=(x-2)(x-3)$. So' ngra

$$\frac{2x+3}{(x-2)(x-3)} = \frac{A}{x-2} + \frac{B}{x-3} \quad (8.6)$$



tenglik o‘rinli bo‘ladigan A va B koeffitsientlarni izlaymiz. Bu koeffitsientlarni topish uchun tenglikning o‘ng tomonini umumiy maxrajga keltiramiz va ikki kasrning tenglik shartidan foydalanamiz. U holda $2x+3=A(x-3)+B(x-2)$, yoki

$$2x+3=(A+B)x+(-3A-2B)$$

tenglikka ega bo‘lamiz. Ikki ko‘phadning tenglik shartidan (ikki ko‘phad teng bo‘lishi uchun o‘zgaruvchining mos darajalari oldidagi koeffitsientlar teng bo‘lishi zarur va yyyetarli) quyidagi tenglamalar sistemasi hosil bo‘ladi:

$$\begin{cases} A+B=2, \\ -3A-2B=3 \end{cases}$$

Bu sistemaning yechimi $A=-7$, $B=9$ ekanligini ko‘rish qiyin emas. Topilgan natijalarni (8.1) tenglikka qo‘yamiz va yuqorida isbotlangan xossalardan foydalanib, berilgan funksiyaning n -tartibli hosilasini quyidagicha yozish mumkin:

$$y^{(n)} = -7 \left(\frac{1}{x-2} \right)^{(n)} + 9 \left(\frac{1}{x-3} \right)^{(n)} \quad (8.7)$$

Endi $\frac{1}{x-2}$ va $\frac{1}{x-3}$ funksiyalarning n -tartibli hosilalarini topishimiz lozim.

Buning uchun $u = \frac{1}{x+a}$ funksiyaning n -tartibli hosilasini bilish yyyetarli. Bu

funksiyani $u=(x+a)^{-1}$ ko‘rinishda yozib, ketma-ket hosilalarni hisoblaymiz. U holda

$$u' = -(x+a)^{-2}, u'' = 2(x+a)^{-3}, u''' = -2 \cdot 3(x+a)^{-4} = -6(x+a)^{-4}.$$

Matematik induksiya metodi bilan

$$u^{(n)} = (-1)^n \cdot n! (x+a)^{-n-1} \quad (8.8)$$

Shunday qilib, (8.7) va (8.8) tengliklardan foydalanib quyidagi

$$y^{(n)} = -7 \cdot (-1)^n \cdot n! (x-2)^{-n-1} + 9 \cdot (-1)^n \cdot n! (x-3)^{-n-1} = (-1)^n \cdot n! \left(\frac{9}{(x-3)^n} - \frac{7}{(x-2)^n} \right)$$

natijaga erishamiz.

3-xossa. Agar $u(x)$ va $v(x)$ funksiyalar n -tartibli hosilalarga ega bo‘lsa, u holda bu ikki funksiya ko‘paytmasining n -tartibli hosilasi uchun

$$(uv)^{(n)} = u^{(n)}v + C_n^1 u^{(n-1)}v' + C_n^2 u^{(n-2)}v'' + \dots + C_n^k u^{(n-k)}v^{(k)} + \dots + C_n^{n-1} u'v^{(n-1)} + uv^{(n)} \quad (8.9)$$

formula o‘rinli bo‘ladi. Bunda $C_n^k = \frac{n(n-1)\dots(n-k+1)}{k!}$.

Isboti. Matematik induksiya usulini qo‘llaymiz. Ma‘lumki,

$(uv)' = u'v + uv'$. Bu esa $n=1$ bo‘lganda (8.9) formulaning to‘g‘riligini ko‘rsatadi. Shuning uchun (8.9) formulani ixtiyoriy n uchun o‘rinli deb olib,

uning $n+1$ uchun ham to‘g‘riligini ko‘rsatamiz. (8.9) ni differensiyalaymiz:

$$\begin{aligned} (uv)^{(n+1)} &= u^{(n+1)}v + u^{(n)}v' + C_n^1 u^{(n-1)}v'' + C_n^2 u^{(n-2)}v''' + \dots + C_n^k u^{(n-k)}v^{(k+1)} + \dots \\ &+ \dots + C_n^k u^{(n-k+1)}v^{(k)} + C_n^k u^{(n-k)}v^{(k+1)} + \dots + C_n^{n-1} u''v^{(n-1)} + C_n^{n-1} u'v^{(n)} + \\ &+ u'v^{(n)} + uv^{(n+1)} \end{aligned} \quad (8.10)$$



Ushbu

$$1 + C_n' = 1 + n = C_{n+1}', \quad C_n' + C_n^2 = n + \frac{n(n-1)}{2} = \frac{(n+1)n}{2} = C_{n+1}^2,$$

$$C_n^{k-1} + C_n^k = \frac{n(n-1)\dots(n+2-k)}{(k-1)!} + \frac{n(n-1)\dots(n-k+1)}{k!}$$

$$= \frac{(n+1)n\dots(n+1-(k-1))}{k!} = C_{n+1}^k$$

tengliklardan foydalanib, (8.10) ni quyidagicha yozamiz:

$$(uv)^{n+1} = u^{(n+1)}v + C_{n+1}^1 u^{(n)}v' + C_{n+1}^2 u^{(n-1)}v'' + \dots + C_{n+1}^k u^{(n+1-k)}v^{(k)} + \dots + uv^{(n+1)}$$

Xulosa:

Demak, (8.9) formula $n+1$ uchun ham o'rinli ekan. Isbot etilgan (8.9) formula *Leybnits formulasi* deb ataladi.

Misol. $y=x^3e^x$ ning 20-tartibli hosilasi topilsin.

Yechish. $u=e^x$ va $v=x^3$ deb olsak, *Leybnits formulasiga* ko'ra

$$y^{(20)} = x^3(e^x)^{(20)} + C_{20}^1(x^3)'(e^x)^{(19)} + C_{20}^2(x^3)''(e^x)^{(18)} + C_{20}^3(x^3)'''(e^x)^{(17)} +$$

$$+ C_{20}^4(x^3)^{(4)}(e^x)^{16} + \dots + (x^3)^{(20)}e^x \quad \text{bo' ladi.} \quad (x^3)' = 3x^2, \quad (x^3)'' = 6x,$$

$$(x^3)''' = 6, \quad (x^3)^{(4)} = 0 \quad \text{tengliklarni va } y=x^3 \text{ funksiyaning hamma keyingi}$$

hosilalarining 0 ga tengligini, shuningdek $\forall n$ uchun $(e^x)^{(n)} = e^x$ ekanligini e'tiborga

olsak,

$$y^{(20)} = e^x(x^3 + 3C_{20}^1 x^2 + 6C_{20}^2 x + 6C_{20}^3) \text{ tenglik hosil bo' ladi.}$$

Endi koeffitsientlarni hisoblaymiz:

$$C_{20}^1 = 20, \quad C_{20}^2 = \frac{20 \cdot 19}{2} = 190, \quad C_{20}^3 = \frac{20 \cdot 19 \cdot 18}{3!} = \frac{20 \cdot 19 \cdot 18}{6} = 1140$$

Demak,

$$y^{(20)} = e^x(x^3 + 60x^2 + 1140x + 6840).$$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azlarov. T., Mansurov. X., *Matematik analiz. T.: «O'zbekiston». 1 t: 1994, 2 t . 1995*
2. Toshmetov O' . *Matematik analiz. Matematik analizga kirish. T., TDPU. 2005y.*
3. Hikmatov A.G' ., Turdiyev T. *«Matematik analiz», T.1-qism.1990y.*
4. Sa' dullayev A. va boshqalar. *Matematik analiz kursi misol va masalalar to'plami. T., «O'zbekiston». 1-q. 1993., 2-q. 1995.*
5. Vavilov V.V. i dr. *Zadachi po matematike. Nachala analiza. M.Nauka.,1990.- 608s.*
6. www.ziyonet.uz



PROYEKSIYALASH USULLARI. NUQTANING FAZODAGI O'RNINI PROYEKSIYALARI BO'YICHA ANIQLASH

Urolov G'ulom Berdiyov o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi akademik litsey

Matematika o'qituvchisi gulomurolov95@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chizma geometriyasida proyeksiyalash usullari hamda nuqtaning fazodagi o'rnini proyeksiyalari bo'yicha aniqlash.

Kalit so'zlar: Geometriya, fazo, tekkislik, uchburchak, proyeksiyalash, uchburchakning proyeksiyasi.

Fazoda berilgan geometrik jismlarni tekislikka tasvirlash uchun proyeksiyalash usulidan foydalaniladi. Proyeksiyalash usuli ikki xil bo'ladi: *markaziy proyeksiyalash va parallel proyeksiyalash. Markaziy proyeksiyalash usuli.* Fazoda biror P tekislik va unda yotmagan S nuqta berilgan deylik (1-shakl). Fazoda biror ixtiyoriy A nuqta olib, uni S bilan tutashtiramiz. Hosil bo'lgan SA to'g'ri chiziq (nur)ni P tekislik bilan kesishguncha davom ettiramiz va ularning kesishgan nuqtasini a bilan belgilaymiz, bu a nuqta fazodagi A nuqtaning P tekislikdagi *markaziy proyeksiyasi bo'ladi.* Bunda, S nuqta - *proyeksiyalash markazi, P-proyeksiyalash tekisligi, SA esa proyeksiyalovchi nur* deyiladi. Ma'lumki, har qanday fazoviy shaklni nuqtalar to'plamidan iborat deb qarash mumkin. Shunga ko'ra istalgan fazoviy shaklning proyeksiyasini yasash uchun uning harakterli nuqtalari orqali proyeksiyalovchi nurlar o'tkaziladi va ularning proyeksiyalar tekisligi bilan kesishgan nuqtalari topiladi. Bu topilgan nuqtalar to'g'ri chiziq yoki egri chiziq orqali o'zaro tutashtiriladi va fazoviy shaklning markaziy proyeksiyasi hosil qilinadi. Masalan, ABC uchburchakning proyeksiyasini yasash uchun uning A , B , va C uchlarining P tekislikdagi proyeksiyalari a , b va c ni to'g'ri chiziq orqali o'zaro tutashtirish kifoya (2-shakl). Proyeksiya markazi va berilgan nuqta orqali faqat bitta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin. Shu sababli fazodagi har qanday nuqtaning bir tekislikda faqat bitta proyeksiyasi bo'ladi. Demak, proyeksiya tekisligi va proyeksiyalash markazi berilgan bo'lsa, fazodagi ixtiyoriy nuqtaning proyeksiyasini tekislikda aniqlash mumkin ekan. Lekin nuqtaning tekisliqdagi proyeksiyasiga qarab uning fazodagi vaziyatini aniqlab bo'lmaydi, chunki o'sha proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq ustida juda ko'p nuqta yotishi mumkin. Masalan, SD nurdagi D , D_1 va D_2 nuqtalarning proyeksiyalari d , d_1 , va d_2 lar R tekislikka bir joyga ustma-ust tushadi (2-shaklda, d nuqta). Agar proyeksiyalovchi nur proyeksiyalar tekisligiga parallel



bo'lsa, u holda bu nurda yotgan nuqtalardan hech qaysisining markaziy proyeksiyasi P tekislikka tushmaydi (masalan, M nuqtaning). Bular markaziy proyeksiyalash usulining nuqsoni hisoblanadi. Perspektiva bo'limida bu nuqson bartaraf etiladi va bu usul batafsil o'rganiladi. Parallel proyeksiyalash usuli. Agar proyeksiyalash markazi S cheksiz uzoqda deb faraz qilinsa, fazodagi nuqtalarni proyeksiyalovchi nurlar o'zaro parallel bo'lib qoladi. Bu yerda S proyeksiyalash yo'nalishi, P -proyeksiya tekisligi (3-shakl, a). ABC uchburchakning P tekislikdagi proyeksiyasini hosil qilish uchun uning A , B va C uchlaridan S yo'nalishga parallel nurlar o'tkazish va ularning P tekislik bilan kesishgan nuqtalarini topish va topilgan nuqtalarni o'zaro tutashtirish kifoya. Agar parallel proyeksiyalarda proyeksiyalar tekisligi P va proyeksiyalash yo'nalishi S berilgan bo'lsa, fazoda berilgan nuqtaning tekislikdagi proyeksiyasini aniqlash mumkin. Lekin bu usulda ham nuqtaning bitta proyeksiyasiga ko'ra uning fazodagi o'rnini aniqlab bo'lmaydi (masalan, d nuqta yordamida). Proyeksiyalash yo'nalishining proyeksiya tekisligi bilan tashkil etgan burchagiga qarab parallel proyeksiyalar ikkiga bo'linadi: 1) qiyshiq, burchakli va 2) to'g'ri burchakli parallel proyeksiya. Proyeksiyalash yo'nalishi proyeksiyalar tekisligi bilan o'tkir burchak tashkil etsa, *qiyshiq burchakli parallel proyeksiyalash* deyiladi (3-shakl, a). Proyeksiyalash yo'nalishi proyeksiyalar tekisligi bilan to'g'ri burchak tashkil etsa, *to'g'ri burchakli parallel proyeksiyalash* deyiladi (3-shakl, b). Bundan keyin to'g'ri burchakli parallel proyeksiyalarni qisqacha *tug'ri burchakli proyeksiya* yoki *ortogonal proyeksiya* deb aytamiz. To'g'ri burchakli proyeksiyalashda proyeksiyalar tekisligi berilgan bo'lsa, proyeksiya yo'nalishi va aksincha proyeksiya yunalishi berilgan bo'lsa, proyeksiya tekisligi berilmaydi. To'g'ri burchakli proyeksiyalash usuli bilan hosil qilingan chizma shartli bo'lishiga qaramay, aniq o'lchash ishlarini bajarish qulay bo'lganligi sababli chizma tuzishning asosiy usuli hisoblanadi. Chizma geometriyaning ortogonal va aksonometrik proyeksiyalar hamda son bilan belgilangan proyeksiya bo'limlari ana shu usulga asoslangan. 3-shaklni ko'zdan kechirib, parallel proyeksiyalashning tubandagi asosiy xossalarini payqab olish mumkin:

1. Nuqtaning proyeksiyasi nuqta bo'ladi.

2. Proyeksiyalash yo'nalishiga parallel bo'lmagan to'g'ri chiziqning proyeksiyasi to'g'ri chiziq bo'ladi.

Berilgan yo'nalishga parallel bo'lgan to'g'ri chiziq proyeksiyalovchi chiziq deyiladi va uning proyeksiyasi nuqta bo'ladi. To'g'ri chiziqning barcha nuqtasini proyeksiyalovchi nurlar bitta tekislikda yotadi. Bunday tekislik *proyeksiyalovchi*



tekislik deyiladi. Masalan, 3-shakl, a dagi AabB to'rtburchak berilgan AB to'g'ri chiziqning proyeksiyalovchi tekisligini ifodalaydi.

Egri chiziq berilgan bo'lsa, uning barcha nuqtasini proyeksiyalovchi nur yig'indisi proyeksiyalovchi sirt hosil qiladi.

3. Nuqta biror chiziqda yotgan bo'lsa, bu nuqtaning proyeksiyasi o'sha chiziqning proyeksiyasida yotadi. C nuqta AB da yotgani uchun uning proyeksiyasi ab da yotadi (4-shakl).

4. Proyeksiyalash yo'nalishiga parallel bo'lmagan tekislikdagi nuqta va chiziqlarning proyeksiyalari proyeksiya tekisligining hammasini qoplaydi. Berilgan yo'nalishga parallel bo'lgan tekislik proyeksiyalovchi tekislik bo'ladi. Proyeksiyalovchi tekislikdagi nuqta va chiziqlarning proyeksiyalari uning proyeksiyalar tekisligi bilan kesishish chizig'iga tushadi.

5. To'g'ri chiziq kesmalarining nisbati uning proyeksiyalari nisbatiga teng, ya'ni $\frac{AC}{CB} = \frac{ac}{cb}$ bo'ladi (4-shakl). Xususiyl holda, agar C nuqta AB kesmani teng ikki bo'lakka bo'lsa, nuqtaning proyeksiyasi s ham ab ni teng ikki bo'lakka bo'ladi.

6. Parallel to'g'ri chiziqlarning proyeksiyasi ham o'zaro parallel bo'ladi (5-shakl). Ya'ni $AB \parallel CD$ bo'lsa, $ad \parallel cd$ bo'ladi.

7. Ikki parallel to'g'ri chiziq kesmacining nisbati ularning proyeksiyasi nisbatiga teng. Ya'ni $AB \parallel CD$ bo'lsa, $\frac{AC}{CB} = \frac{ac}{cb}$ bo'ladi (5-shakl). Buning isboti ABE va CDF uchburchaklarning o'xshashligidan kelib chiqadi. Parallel proyeksiyalashda teng va parallel kesmalarining proyeksiyasi ham teng va ham parallel bo'ladi. Bu xossalarning isboti o'rta maktab "geometriya»sida bo'lgani uchun bu yerda ularning isbotini keltirmadik. Parallel proyeksiyaning bu xossalariidan keyinroq ortogonal va aksonometrik proyeksiyalarni o'rganishda foydalaniladi.

Tekislik (qog'oz) da ortogonal proyeksiyalash usuli bilan chizilgan har qanday tasvirga ko'ra unda tasvirlangan narsaning fazodagi haqiqiy shakli, ya'ni uni hosil qiluvchi nuqtalarning fazodagi o'rinini aniqlash hamma vaqt ham mumkin bo'lavermaydi. Masalan, fazodagi A nuqta berilgan yo'nalish bo'yicha P tekislikka proyeksiyalansa, proyeksiya tekisligida unga faqat bitta a proyeksiya mos keladi. Aksincha, agar d nuqta proyeksiyasi berilgan bo'lsa, nuqtaning fazodagi o'rnini topib bo'lmaydi (3-shakl). Chunki D nuqtani proyeksiyalovchi nurda yotgan istalgan nuqta (D, D_1, D_2)ning proyeksiyasi ham d nuqtaga tushadi. Demak, nuqtaning bitta proyeksiyasiga ko'ra uning fazodagi o'rnini aniqlab bo'lmaydi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, jismning bitta proyeksiyasi uning fazodagi shaklini to'liq aniqlab bera olmas ekan. Bu ortogonal proyeksiyaning nuqsoni hisoblanadi. Bu nuqson turli usullar bilan bartaraf etiladi. Quyida narsaning ortogonal proyeksiyasi bo'yicha uning fazodagi vaziyatini aniqlashning ikkita usulini qarab chiqamiz.

Son bilan belgilangan proyeksiyalar usuli. Bunda narsaning bitta proyeksiyasi berilgan bo'lib, uning Shu tekislikdan uzoqligi sonlar bilan ko'rsatiladi va bu sonlar



проекции на α и β плоскостей. Например, проекция точки A на α плоскость P (рис. 6, а). По известной проекции a на α плоскости P и расстоянию $aA=4$ (рис. 6, а) можно найти истинную проекцию A на α плоскости P . Для этого из точки a на α плоскости P проводим перпендикуляр к α плоскости P и откладываем от a на этом перпендикуляре отрезок $aA=4$ (рис. 6, б). Точка A и есть истинная проекция точки A на α плоскости P . Аналогично можно найти истинную проекцию B на β плоскости Q . Точка B и есть истинная проекция точки B на β плоскости Q . Таким образом, истинные проекции точек A и B на α и β плоскостях P и Q найдены. Аналогично можно найти истинные проекции точек C и D на α и β плоскостях P и Q . Таким образом, истинные проекции точек A , B , C и D на α и β плоскостях P и Q найдены.

Вспомогательные проекции a_4 и b_3 точек A и B на α и β плоскостях P и Q найдены. Аналогично можно найти истинные проекции точек C и D на α и β плоскостях P и Q . Таким образом, истинные проекции точек A , B , C и D на α и β плоскостях P и Q найдены.

Вспомогательные проекции a_4 и b_3 точек A и B на α и β плоскостях P и Q найдены. Аналогично можно найти истинные проекции точек C и D на α и β плоскостях P и Q . Таким образом, истинные проекции точек A , B , C и D на α и β плоскостях P и Q найдены.

Вспомогательные проекции a_4 и b_3 точек A и B на α и β плоскостях P и Q найдены. Аналогично можно найти истинные проекции точек C и D на α и β плоскостях P и Q . Таким образом, истинные проекции точек A , B , C и D на α и β плоскостях P и Q найдены.

Таким образом, истинные проекции точек A , B , C и D на α и β плоскостях P и Q найдены.

Вывод. При известной проекции точки A на α плоскости P и расстоянии $aA=4$ можно найти истинную проекцию A на α плоскости P . Аналогично можно найти истинную проекцию B на β плоскости Q . Таким образом, истинные проекции точек A и B на α и β плоскостях P и Q найдены. Аналогично можно найти истинные проекции точек C и D на α и β плоскостях P и Q . Таким образом, истинные проекции точек A , B , C и D на α и β плоскостях P и Q найдены.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Horunov. Chizma geometriya kursi. "O'qituvchi", Toshkent, 1997.
2. S. Murodov va b. Chizma geometriya kursi. "O'qituvchi", Toshkent, 1988.
3. I. Rahmonov. Chizma geometriya kursi. "O'qituvchi", Toshkent, 1984.
4. Y. Qirg'izboyev. Chizma geometriya. "O'qituvchi", Toshkent, 1973.
5. E. Sobitov. Chizma geometriya qisqa kursi. "O'qituvchi", Toshkent, 1973.
6. J. Yodgorov. Chizma geometriya, «Buxoro», Buxoro, 2000.
7. J. Yodgorov va b. Chizma geometriya. "O'qituvchi", Toshkent, 1989.
8. J. Yodgorov. Chizma geometriya elementlari. "O'qituvchi", Toshkent, 1973.



ICHKI ISHLAR ORGANLARI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILKATIKASI MAHALLA HUQUQ TARTIBOT MASKANI FAOLIYATI

Hakimova Dilshoda Otabek qizi
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishini
3-kurs 307-guruh Kursanti

Annotatsiya: Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga qaratilayotgan e'tibor natijasida hozirgi kunga kelib huquqbuzarliklarning sodir etilish darajasi sezilarli kamayib bormoqda va ishonamizki, yaqin yillar ichida bu ko'satkichlar bundanda ijobiyroq ko'rinishga keladi. Shu sabab sohaga e'tiborni bir zumga ham kamaytirmaslik lozim. Tinchlik bu buyuk ne'mat. Tinchlikni saqlovchilar esa bu ne'matning qanchalik muhim va totli ekanligini juda yaxshi bilishadi. Aholi ham bu ne'matning qanchalik muhim va kerak ekanligini anglab yetmoqda, shu sabab jamiyat, davlat rivojlanmoqda va yuksalmoqda.

Kalit so'zlar; Profilaktika, mahalla huquq tartibot maskani ,tizim,

Tanlangan mavzuning dolzarbligi. Xozirgi kunda Respublikada huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi. Shu bilan birga, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Hozirgi kunda mahalla darajasida mahalla huquq tartibot maskanlari o'z faoliyatini boshlagan bo'lsalar ham lekin ko'p sonli hududlarda bu jarayon haligacha boshlanmagan yaniki aytadigan bo'lsak bu jarayon bu mahalla huquq tartibot maskanidan oldin vujudga kelgan tayanch punklari bilan cheklanib qolayotganligidas o'z aksini topayapti. Bu avvalo profilaktika inspektorlari ozzligidan dalolat beradi bunga yechim shtablarni ko'paytirish va kata inspektorlarni ham o'z navbatida ko'paytirish kerak bo'ladi sababi chekka joylarda 5 ,6 ta tayanch punkti bitta mahalla huquq tartibot maskanini tashkil qilyapti lekin bu tayanch punklar hamkorligi unchalik ham ayrtarli darajada emas. Avvalo butun tizimni isloh qilish uchun quyi bo'gindan boshlash kerak bo'ladi.

Maqola obekti ; Mahalla huquq tartibot maskanidagi sohaviy xizmat xodimimlari va shu xodimlar vazifa va funksiyalari va hamkorlikda ishlashi.

Mahalla huquq-tartibot maskani (keyingi o'rinlarda — Maskan) mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va



jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

Maskanlar binolariga qo'yiladigan talablar va ularda faoliyatni olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.

Maskanlar o'z faoliyatini:

profilaktika katta inspektori, profilaktika inspektori, profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi (har kunlik asosida);

hududda xizmat qilish uchun birlashtirilgan tuman (shahar) ichki ishlar organining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, probatsiya bo'linmasi inspektori, tezkor vakil, patrul-post xizmati xodimlari;

hududda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ko'maklashish uchun yuborilgan Milliy gvardiya bo'linmasi, boshqa vakolatli davlat organlarining xodimlari va jamoat tuzilmalarining vakillari tarkibida amalga oshiradi.

Maskan faoliyatini tashkil etish

Profilaktika katta inspektori Maskanning bevosita rahbari hisoblanadi va uning zimmasiga mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kunlik ishni samarali tashkil etish mas'uliyati yuklanadi.

Maskan rahbari:

Maskan faoliyatiga yuklatilgan vazifalarning lozim darajada bajarilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi;

Maskanda faoliyat ko'rsatadigan xodimlarga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qiladi, hududda patrul yo'nalishlarini belgilaydi va patrullik xizmatini tashkil etadi;

hududda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ko'maklashish uchun yuborilgan Milliy gvardiya bo'linmasi, boshqa vakolatli davlat organlarining xodimlari va jamoat tuzilmalari vakillarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Maskanning ish rejalarini tasdiqlaydi;

vazifalarini sidqidildan bajarib kelayotgan profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisiga ichki ishlar organlarida xizmatga belgilangan tartibda qabul qilish uchun tavsiyaviy taqdimnoma kiritadi;

Maskanda samarali faoliyat ko'rsatadigan xodimlarni rag'batlantirish to'g'risida hududiy ichki ishlar organi rahbariga to'g'ridan to'g'ri taklif kiritadi;

Maskan vakolatiga kiradigan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Profilaktika katta inspektori yo'qligida uning vakolatlari profilaktika inspektori tomonidan amalga oshiriladi.



Qonuniylikning ta'minlanganligi, mahalladagi (qishloqdagi) kriminogen vaziyatning barqarorligi va huquq-tartibot organlari faoliyati to'g'risida jamoatchilikda ijobiy fikrning shakllanganligi Maskan faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari hisoblanadi.

Quyidagilar Maskanning asosiy vazifalari hisoblanadi:

mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish;

fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etish;

aholi muammolarini hal etish, shuningdek, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

mahallaning (qishloqning) kirish-chiqish joylarida va hududdagi boshqa obyektlarda o'rnatilgan videokuzatuv moslamalaridan foydalangan holda, yagona markazlashgan elektron kuzatish va monitoringni amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etish.

XULOSA; 2021-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonda ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etilishi belgilandi. Ta'kidlash joizki, mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadi.

Maskan negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etiladi. Shuningdek, maskan tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklandi.

FOYDALLANGAN ADABIYOTLAR;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil

Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun 2016-yil 16- sentabr

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014-yil 14-may

2021-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni



ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ФУҚАРОЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИГА ТАЖОВУЗ ҚИЛУВЧИ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ БЎЙИЧА ФАОЛИЯТИ

*Ўзбекистон Республикаси ИИВ
Академияси 306-гуруҳ курсанти
Азимов Ойбек Адҳам ўғли*

Аннотация

Ушбу битирув малакавий ишида тадқиқот мавзусининг долзарблиги, профилатика инспекторининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш бўйича фаолияти тушунчаси, инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг бугунги кундаги ҳолати ва профилатика инспекторининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш бўйича фаолиятининг узига хос хусусиятлари ёритилган. Бундан ташқари профилатика инспекторларининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш бўйича фаолияти доирасидаги нормаларнинг амалиёт таҳлили ҳамда ушбу фаолият доирасида юритиладиган процессуал ҳужжатлар, ушбу фаолиятдаги муаммо ва камчиликлар, шунингдек, айрим турдаги мавжуд муаммо ва камчиликларни бартараф етиш бўйича бир катор таклифлар илгари сурилган. Шунингдек, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш фаолияти бўйича бошқа хорижий давлатларнинг илғор тажрибаси ҳамда миллий қонунчилигимиздан фарқли ва ўхшаш томонлари, шунингдек, юқорида келтириб ўтилган жихатлари фойдаланган ҳолда ушбу фаолиятни такомиллаштириш йўналишлари ёритиб ўтилган.

Annotation

This dissertation focuses on the relevance of the research topic, the concept of the prophylactic inspector's work to ensure human rights and freedoms, the current state of human rights and freedoms, and the nature of the prophylactic inspector's role in ensuring human rights and freedoms. In addition, the operational analysis of the norms of the activities of prevention inspectors to ensure human rights and freedoms, as well as procedural documents in this area, the problems and shortcomings in this area, as well as a number of shortcomings and shortcomings. In addition, the best practices of other foreign countries in the field of human rights and freedoms, as well as similar and different aspects of our national legislation, as well as the above-mentioned aspects will be used to improve this activity.



АСОСИЙ ҚИСМ

Ҳар бир фуқаро шахсий ҳуқуқ ва эркинликларга эга. **Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси** — БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1948-йил 10-декабрда қабул қилинган бўлиб, у муқаддима ва 30 моддадан иборат. Уни қабул қилишдан мақсад ҳар бир инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларининг дахлсизлигини таъминлаш ҳисобланади. Шунинг назарда тугган ҳолда маърифат ва таълим орқали шу ҳуқуқ ва эркинликлар ҳурмат қилинишига кўмаклашиши лозим. Декларация ҳар бир инсоннинг табиий ва ажралмас ҳуқуқ ва эркинликлари эълон этилган асосий халқаро ҳужжатдир. Шу тариқа халқаро муносабатлар тарихида биринчи марта инсоннинг ҳамма риюя этиши зарур бўлган асосий ҳуқуқлари ва эркинликлари доираси белгилаб берилган. Декларацияда “инсоният оиласининг ҳамма аъзоларига хос кадр-қимматни, уларнинг тенг ва ажралмас ҳуқуқларини тан олиш — эркинлик, адолат ва ялпи тинчлик негизи” эканлиги эълон этилган бўлиб, бу ҳужжатда ҳар бир фуқаронинг шахсий ҳуқуқ ва эркинликлар ҳуқуқи алоҳида мустаҳкамланади. Декларацияда инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилиш, инсон ҳуқуқларининг тенглиги, инсон эркинликлари, инсон ҳуқуқларини амалга оширишнинг демократик жараёни, инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг адолатлиги. Декларацияда эълон этилган мазкур инсон ҳуқуқларига оид тамойилларга кўра барча кишилар эркин туғилади ва ўз кадр-қиммати ҳамда ҳуқуқлари жиҳатдан тенг бўлиб, улар қонун олдида тенг ва қонун томонидан баб-баравар ҳимояланиш ҳуқуқига эгадирлар (1, 2, 7-моддалар).

Мазкур декларация қоидалари давлат ёки айрим шахслар томонидан инсон ҳуқуқларини бузиш учун ишлатилиши мумкин эмас. Ҳар бир шахс учун ўзгаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳурмат қилиш жамият аъзоларининг бурчидир. Хусусан, декларациянинг 7-моддасида барча одамлар қонун олдида тенгдир ва ҳеч қандай айирмачиликсиз қонун томонидан баб-баравар муҳофаза этилиши ҳуқуқига эгадир. Барча одамлар мазкур декларацияни бузадиган ҳар қандай камситишидан тенг муҳофаза қилиниш ҳуқуқига ва ана шундай камситишга гиж-гижлашдан тенг муҳофаза қилиниш ҳуқуқига эгадирлар¹ деган норма белгиланган. Бу эса миллий қонунчилик нормаларида ҳам ўз аксини топган. Конституциямизда ҳам улар алоҳида эътироф этилиб 19-21, 25-35-моддаларда бу қоидалар мустаҳкамланган бўлиб, унга кўра Ўзбекистон Республикасида инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари халқаро ҳуқуқнинг умумжэтироф этилган нормаларига биноан ҳамда ушбу Конституцияга мувофиқ эътироф этилади ва кафолатланади. Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари ҳар кимга туғилганидан бошлаб тегишли бўлади. Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, эътиқоди, ижтимоий келиб чиқиши, ижтимоий мавқеидан қатъи



назар, қонун олдида тенгдирлар. Ҳар бир инсон ўз шахсини эркин камол топтириш ҳуқуқига эга. Ҳеч кимга унинг розилигисиз қонунчиликда белгиланмаган мажбурият юклатилиши мумкин эмас.

Ҳар бир инсон шахсий ҳаётининг дахлсизлиги, шахсий ва оилавий сирга эга бўлиш, ўз шаъни ва кадр-қимматини ҳимоя қилиш ҳуқуқига эга. Ҳар ким ёзишмалари, телефон орқали сўзлашувлари, почта, электрон ва бошқа хабарлари сир сақланиши ҳуқуқига эга. Ушбу ҳуқуқнинг чекланишига фақат қонунга мувофиқ ва суднинг қарорига асосан йўл қўйилади. Ҳар ким уй-жой дахлсизлиги ҳуқуқига эга. Ҳеч ким уй-жойга унда яшовчи шахсларнинг хоҳишига қарши кириши мумкин эмас. Уй-жойга киришга, шунингдэк унда олиб қўйишни ва кўздан кечиришни ўтказишга фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибда йўл қўйилади. Уй-жойда тинтув ўтказишга фақат қонунга мувофиқ ва суднинг қарорига асосан йўл қўйилади. Шунингдэк, 55-моддада бу ҳуқуқлар кафолатланган. Ҳар ким ўз ҳуқуқ ва эркинликларини қонунда тақиқланмаган барча усуллар билан ҳимоя қилишга ҳақли. Ҳар кимга ўз ҳуқуқ ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш, давлат органларининг ҳамда бошқа ташкилотларнинг, улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ва ҳаракатсизлиги устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи кафолатланади.

Фуқороларнинг бундай ҳуқуқларига тажовуз қилиш мамурий ҳамда жиноий жавобгарликка сабаб бўлади. Давлат бундай ҳуқуқларни ҳимоялаш борасида уларга қилинган ҳар қандай тажовузларнинг оилдини олиш мақсадида бундай нормалар киритади. Жумладан Ўз Рес МЖТКнинг В боби фуқаронинг шахсий ҳуқуқ ва эркинликларга тажовуз қилувчи ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарлик дэб номланиб 40-51⁹гача моддаларни ўз ичига олади. Бундай ҳуқуқлар нафақат мамурий балки жиноят қонунчилиги билан ҳам муҳофаза этилади. Ўз Рес Жиноят кодэссининг ВИ-ВИИ бобларида бундай турдаги жиноятлар учун жавобгарлик бэлгиланган.

Ҳозирги кунда фуқаролар ҳуқуқлари учун қуйидаги янги тажовузлар юзага келмоқда:

- атроф муҳит
- кибэрхуружлар

йўналишларида бўлмоқда. Шунингдэк, бундай ҳуқуқларга нафақат фуқаролар ҳамда давлат органлари ва мансабдор шахслар томонидан тажовуз қилинишининг олдини олиш мақсадида 2017-йил 30-ноябрда ПФ-5268 қабул қилинди. Шахсни ноқонуний ушлаб туриш, қамоққа олиш, жиноий жавобгарликка тортиш ёки ҳукм қилишга сабаб бўлган, ҳужжатлар ёки ашёларга била туриб ёлғон маълумотлар ва бошқа бузиб кўрсатилган фактларни киритиш, ҳақиқатга тўғри келмайдиган кўрсатув беришга мажбурлаш, иш бўйича ҳақиқий



ҳолатларни бузиб кўрсатиш орқали далилларни қалбакилаштирганлик учун, ёлғон гувоҳлик ва ёлғон хабар берганлик учун жавобгарликни кучайтиришни назарда тутган ҳолда, жиноий жавобгарлик киритилсин¹.

Профилактика инспекторлари айнан давлатнинг юқорида кўрсатилган ҳимоя чораларини тامينловчи механизмнинг бир қисми бўлиб, айнан улар фуқароларни бундай тажовузлардан ҳимоялайди. Профилактика инспекторларининг бундай фаолиятини шартли равишда 2 йўналишга ажратиш мумкин:

1. Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган профилактик тадбирлар.

2. Содир этилган ҳуқуқбузарликка жавобгарлик белгилаш орқали.

Биринчи фаолият бевосита “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги” қонунда алоҳида келтирилган. Бу фаолиятнинг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги” қонуннинг 22-моддасида белгиланган умумий профилактика орқали амалга ошириш мумкин. Унга кўра ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар ҳамда муассасаларнинг ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлаш, бартараф этиш бўйича фаолияти ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикаси содир. Бу борада қуйидаги чора тадбирлар мавжуд:

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат дастурларини ва бошқа дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш;

Аҳоли ўртасидаги ҳуқуқий тарғибот;

Ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлаш, бартараф этиш ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимномалар киритиш.

Юқоридаги бу фаолият профилактика инспекторларининг бевосита вазифалари рўйхатига киритилган. Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепсияси 4-иловага мувофиқ Маҳаллада жамоат хавфсизлигини самарали таъминлаш мақсадида ички ишлар органлари профилактика инспекторлари зиммасига юклатилган вазифалар мақбуллаштирилади ва уларнинг ягона рўйхати тасдиқланди. Бу вазифалардан:

3. Бириктирилган маҳалла (қишлоқ, овул) ҳудудида аҳоли ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг умумий, махсус ва виктимологик профилактикасини амалга ошириш.



8. Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган шахсларга ҳимоя ордерини бериш ва ҳимоя ордери талабларининг ижроси устидан назоратни амалга ошириш.

10. Жисмоний шахсларни ва юридик шахсларнинг вакилларини қабул қилиш, уларнинг мурожаатларини белгиланган тартибда кўриб чиқиш.

11. Ваколатли давлат органлари ва ташкилотлар билан яқин ҳамкорликда бириктирилган маҳалла (қишлоқ, овул) ҳудудида ҳар бир оилани бевосита жойидаўрганган ҳолда, фуқароларнинг жамоат хавфсизлигига оид ва ҳуқуқбузарликларга сабаб бўлиши мумкин бўлган муаммолари ва норозилиklarини аниқлаш, уларни бартараф этиш бўйича зарур чораларни кўриш.

16. Давлат органлари, жамоат ва бошқа ташкилотлар раҳбарларига ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ҳамда уларга имкон берувчи шарт-шароитларни бартараф қилиш ҳамда маҳалладаги мавжуд ижтимоий муаммоларни ҳал этмаганлик юзасидан тақдимномалар киритиш¹ кабиларни келтириш мумкин.

Шу мақсадда айнан профикактика инспекторларига бу борада маъмурий ҳуқуқбузарликларни кўриб чиқуш ваколати берилган. Бу эса 2 йўналишнинг ёрқин мисолидир.

Аmmo бу фаолиятда ҳам баъзи муаммоли ҳолатлар мавжуд бўлиб, булар асосан бу фаолиятда профлактика инспекторлари томонидан мустақил кўриб чиқилувчи моддаларнинг сони камлигидир. Агар амалдаги Ўз Рес МЖтКнинг 248-моддасига қарасак, профилактика инспекторлари томонидан мустақил кўриб чиқилувчи моддаларнинг рўйхати мавжуд бўлиб, булар 47-моддаси [биринчи қисмида](#), [47³](#), [54](#), [56¹-моддаларида](#), 110-моддасининг [биринчи қисмида](#) (фуқароларга нисбатан), 111-моддасининг [биринчи қисмида](#), 113-моддасининг [биринчи](#), [иккинчи](#), [тўртинчи](#) ва [бэшинчи қисмларида](#), [114](#), [122](#), [123-моддаларида](#), [127-моддасида](#) (товуш сигналини сабабсиз беришга доир қисмида), [128⁶-моддасида](#), 147-моддасининг [биринчи қисмида](#) (автомобил йўлларини ўзбошимчалик билан қазийш, уларда сунъий нотекистиклар ва тўсиқлар яратганлик, автомобил йўлида ишларни амалга ошириш учун берилган рухсатнома талабларини бажармаганлик, шунингдек йўлларни сақлаш қоидаларини бузганлик учун), [148-моддасида](#) (ажратилган минтақаларда ва ёғоч кўприклардан 100 метргача бўлган масофада олов ёққанлик, тахта тўшамали кўприкларда чекканлик учун), [161-моддасида](#) (фуқароларга нисбатан), 187-моддасининг [биринчи қисмида](#), [188](#), [188²](#), [192](#), [221-моддаларида](#), 223-моддасининг [биринчи қисмида](#), [223¹](#), [223³-моддаларида](#), 224-моддасининг [биринчи қисмида](#) назарда



тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлардир¹. Бу рўйхатнинг кенгайтирилиши бу фаолият самарадорлигини янада оширишга хизмат қилади.

РЕФЕРЕНЦЭС

- [1] [“Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонун](#) // 2014
- [2] [“Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент Қарори](#) // 2019
- [3] [Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳайъатининг кенгайтирилган йиғилишидаги Президент Шавкат Мирзиёевнинг нутқи](#) // 2021
- [4] Арипова, А. Х. (2021). Нутқ моҳиятини ташкил этувчи муҳим восита. Сциентици прогресс, 1(6).
- [5] Абдужалилов, Д., & Арипова, А. (2021). КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ СОТРУДНИКОВ ОВД. Сциентици прогресс, 2(1), 328-332.



**ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ФУҚАРОЛАРНИНГ
ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИГА ТАЖОВУЗ ҚИЛАДИГАН
ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ БЎЙИЧА
ФАОЛИЯТИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ ВА
ДОЛЗАРБЛИГИ**

*Ўзбекистон Республикаси ИИВ
Академияси 306-гуруҳ курсанти
Азимов Ойбек Адҳам ўғли*

Аннотация

Ушбу битирув малакавий ишида тадқиқот мавзусининг долзарблиги, профилатика инспекторининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш бўйича фаолияти тушунчаси, инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг бугунги кундаги ҳолати ва профилатика инспекторининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш бўйича фаолиятининг узига хос хусусиятлари ёритилган. Бундан ташқари профилатика инспекторларининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш бўйича фаолияти доирасидаги нормаларнинг амалиёт таҳлили ҳамда ушбу фаолият доирасида юритиладиган процессуал ҳужжатлар, ушбу фаолиятдаги муаммо ва камчиликлар, шунингдек, айрим турдаги мавжуд муаммо ва камчиликларни бартараф етиш бўйича бир катор таклифлар илгари сурилган. Шунингдек, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш фаолияти бўйича бошқа хорижий давлатларнинг илғор тажрибаси ҳамда миллий қонунчилигимиздан фарқли ва ўхшаш томонлари, шунингдек, юқорида келтириб ўтилган жихатлари фойдаланган ҳолда ушбу фаолиятни такомиллаштириш йўналишлари ёритиб ўтилган.

Annotation

This dissertation focuses on the relevance of the research topic, the concept of the prophylactic inspector's work to ensure human rights and freedoms, the current state of human rights and freedoms, and the nature of the prophylactic inspector's role in ensuring human rights and freedoms. In addition, the operational analysis of the norms of the activities of prevention inspectors to ensure human rights and freedoms, as well as procedural documents in this area, the problems and shortcomings in this area, as well as a number of shortcomings and shortcomings. In addition, the best practices of other foreign countries in the field of human rights and freedoms, as well as similar and different aspects of our national legislation, as well as the above-mentioned aspects will be used to improve this activity.



АСОСИЙ ҚИСМ

Ўзбекистон Республикаси мустақилликнинг илк кунлариданоқ ривожланишининг дунё тажрибасида синалган ўзига хос ва мос тараққиёт йўлини танлаб олди. Бу йўлнинг моҳияти миллий ва умуминсоний қадриятларни ўзида акс эттирувчи, бозор муносабатларига асосланган ҳуқуқий демократик давлат ва одил фуқаролик жамиятини қуриш, халқимизга ҳеч кимдан кам бўлмаган муносиб турмуш шароитларини яратиш беришдан иборатдир. Конституциямизнинг муқаддимасида Ўзбекистон халқи инсон ҳуқуқларига ва давлат суверенитети ғояларига содиқлигини тантанали равишда эълон қилиб, ҳозирги ва келажак авлодлар олдигаги юксак масъулиятини англаган ҳолда, ўзбек давлатчилиги ривожининг тарихий тажрибасига таяниб, демократия ва ижтимоий адолатга садоқатини намоён қилиб, халқаро ҳуқуқнинг умумэтироф этилган қоидалари устунлигини тан олган ҳолда, республика фуқароларининг муносиб ҳаёт кечиришларини таъминлашга интилиб, фуқаролар тинчлиги ва миллий тотувлигини таъминлаш мақсадида инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш вазифаси қўйилганлиги белгиланган. Ҳозирги дунёда инсон ҳуқуқлари етакчи ўринни эгаллаши умумэтироф этилган далилдир. Инсон ҳуқуқлари масаласининг ҳар қандай цивилизациялашган, адолатли фуқаролик жамиятини қуришдаги ролини камайтириб бўлмайди. Демократик, ҳуқуқий давлат қуришнинг бош шarti асосий ҳуқуқ ва эркинликларни рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш ҳамда жамиятда ҳар бир инсоннинг ҳуқуқларини кафолатлашнинг ҳақиқий тизимини яратиш ҳисобланади. Ҳар қандай давлатда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаши ва уларга бўлган муносабати ушбу давлатдаги демократия ва унинг “сиёсий имиджи”ни кўрсатиб беради.

Барча демократик давлатларда ҳокимиятнинг асосий таянчи бўлган инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилади. Конституция ва қонунлар билан уни мустаҳкамлаб қўяди. Шу ўринда ушбу ҳуқуқ ва эркинликларни таъминлашни давлат ўз зиммасига олади. Ҳуқуқий давлатда шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, шунингдек ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, бартараф этиш ва тергов қилиш қонуний воситалар ёрдамида олиб борилиши лозим. Давлатнинг барча ҳокимият-ижро етувчи тузилмалари ва айниқса, ички ишлар органлари (ўз ваколатлари доирасида) фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаб бериши, уларни ҳимоя қилиш функциясини амалга ошириши даркор. Мазкур ҳуқуқларни ҳимоя қилиш зиммасига юклатилган ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар орасида ички ишлар органлари алоҳида ўрин эгаллайди. Ички ишлар органларининг асосий вазифаларига қуйидагилар киради:

– фуқаролар ҳавфсизлигини таъминлаш;



- жиноятлар ва маъмурий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва бартараф этиш; – жиноятларни тезда ва тўлиқ очиш;
- жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш;
- мулкни ноқонуний тажовузлардан ҳимоя қилиш;
- ўзининг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини амалга оширишда фуқароларга, мансабдор шахсларга ва бошқа субъектларга ҳуқуқий ва ташкилий ёрдам кўрсатиш ва бошқалар.

Ички ишлар органлари тузилмавий бўғинларининг фаолияти Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва бошқа қонунчилик ҳужжатларида мустаҳкамланган ҳуқуқларга таҳдид солаётган турли ҳуқуқбузарликларга қарши кураш олиб боришга қаратилган.

Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрда қабул қилинган “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги қонунинг 2-моддада:

“Ички ишлар органларининг асосий вазифалари фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини, жисмоний ва юридик шахсларнинг мулкни, конституциявий тузумни ҳимоя қилишдан, қонун устуворлигини, шахс, жамият ва давлатнинг хавфсизлигини таъминлашдан, шунингдек ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактикадан иборат” деб белгилаб қўйилган. Шунингдек, қонуннинг 4-(асосий принциплар) ва 8-моддалари (Фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига риоя этиш ҳамда ушбу ҳуқуқлар, эркинликлар ва қонуний манфаатларни ҳурмат қилиш принципи)да ҳам асосий вазифалар белгилаб қўйилган.

Шуни эътиборга олиш керакки, қонунда белгиланган Ички ишлар органларининг мажбуриятларида фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини, юридик ва жисмоний шахсларнинг мулкни, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини ҳимоя қилиш бўйича ўз ваколатлари доирасида барча зарур чораларни кўриши энг биринчи – асосий мажбурият сифатида белгилаб берилган. Бу эса ушбу мажбуриятнинг нақадар долзарблигини ва ушбу фаолиятни амалга оширишда Ички ишлар органларига алоҳида маъсулиятли вазифа юклайди.

Айни пайтда Ички ишлар органларининг фуқаролар билан бевосита ва яқиндан мулоқатга киришувчи бўғини ҳисобланган ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари ходимлари – профилактика инспекторлари фаолиятида бу катта аҳамиятга эга. Бугунги кунда фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ошириш борасида амалга оширилиб борилаётган ишлар доирасида бевосита профилактика инспекторининг ўрни ва рўли катта аҳамият касб этиб боради. Чунки аҳолининг ҳуқуқий онгини шакллантириш ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришда уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминловчи, ҳимоя қилувчи профилактика инспекторлари ўз фаолиятида аҳолига ҳуқуқий



маслаҳат беради ҳамда уларга ўз ҳуқуқ ва эркинликлари ҳақида маълумот беради, уни амалга ошириш йўллари ва буларни таъминлаб берувчи механизмларни тушунтиради. Бу жиҳатдан профилактика инспекторлари аҳолининг энг биринчи даражали ва яқин “адвокати”- ҳуқуқий маслаҳатчи-ёрдамчиси ҳисобланади.

Профилактика инспекторининг фуқаролар конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш фаолиятининг аҳамиятига тўхталадиган бўлсак, юқорида такидланганидек ҳар бир ходимнинг хизмат бурчини бажаришда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларини бажариши лозимлигини айтиб ўтиш жоиз. Ички ишлар органлари ходимларининг асосий вазифалари қонунга мувофиқ, жамиятда тинчлик ва осойишталикни сақлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш, уларнинг олдини олиш, бартараф этиши белгилаб берилган. Шунга эътибор қаратиш керакки, шахс ҳуқуқ ва эркинликлари қачонки жиноят ёки ҳуқуқбузарлик содир этилган тақдирда бузилиши мумкин. Бундан келиб чиқадики, ички ишлар органлари ходимлари. Шу жумладан профилактика инспекторлари жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка қарши курашиш, уларни барвақт олдини олиш, аниқлаш, тўхтатиш, бартараф этиш орқали бевосита фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилади ҳамда бузилган ҳуқуқларини тиклайди.

Профилактика инспекторлари ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда содир этилаётган ёки содир этилиши мумкин бўлган жиноят ёки ҳуқуқбузарликни олдини олади, бартараф этади ҳамда ундан жабрланганларга ёрдам кўрсатади. Мазкур фаолиятнинг ўзида профилактика инспектори фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлайди.

Профилактика инспекторининг фаолияти серқирра ва кўп йўналишли эканлиги яхши маълум. Шу сабабли, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш фаолияти фақатгина ҳуқуқбузарликларни олдини олиш билан чегараланиб қолмайди. Давлат томонидан кафолатланган ҳуқуқ ва эркинликларнинг барчасини амалга оширишда профилактика хизмати фуқароларга энг яқиндан ёрдам беради.

Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш, шахсларга қонунга ҳурмат ва қонун бузилишининг ҳар қандай кўринишига мурасасизлик муносабатини сингдириш, профилактик ишларни мувофиқлаштириш, ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг замонавий ташкилий-ҳуқуқий механизмларини жорий этиш бўйича қонунчилик нормалари ва уларни қўллаш амалиёти билан боғлиқ муаммоларнинг илмий ечимини топиш долзарб ҳисобланади.

2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг еттига устувор йўналиши бўйича Тараққиёт стратегиясида инсон ҳуқуқларини таъминлаш, давлат органларининг ҳисобдорлиги ва очиклигини кучайтириш



хамда фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситаларининг роли, аҳоли ва жамоат бирлашмаларининг сиёсий фаоллигини ошириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилиши каби вазифалар назарда тутилган. Бу эса республикамизда ички ишлар органлари фаолиятига илғор тажрибалар, иш усуллари ва инновацион технологияларни жорий этиш, улар фаолиятини ҳуқуқий, ташкилий-методик, моддий-техник жиҳатдан ва малакали кадрлар билан таъминлашни такомиллаштириш, таянч пунктлари негизида ўзаро мақсадли ҳамкорликни ташкил этишда жамоатчилик тузилмалари иштирокининг самарадорлигини оширишни тақозо этади.

Ўтган давр мобайнида ички ишлар органлари тизимини такомиллаштириш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Айниқса, ички ишлар органларининг маҳаллаларда жамоат тартибини сақлаш, фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш учун ташкил этилган қўйи бўғинини ривожлантириш ва мустаҳкамлаш бўйича салмоқли ишлар қилинди. Бу эса ўз навбатида республикамизда жиноятчиликнинг камайишига хизмат қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йилнинг 28 январь куни “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 60-сонли Президент Фармони
4. Хўжакулов С.Б. Ҳуқуқбузарликлар умумий профилактикасини такомиллаштириш: Монография / Масъул муҳаррир ю.ф.д., доц. И.Ю. Фазилов. Ў Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019.



HUQUQBUZARLIKLAR VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASI SOHASIDAGI XORIJIY TAJRIBALAR

Yuldashev Rasulbek Tulibay o'g'li

IIV Akademiyasi 3-kurs 307-guruh kursanti

KIRISH. Ayrim davlatlarda ma'muriy hududlarda jamoat tartibi saqlash va huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyati turlicha yo'llar, usullar bilan ta'minlanadi. Ushbu sohada har bir davlat o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ularni o'rganish hamda yurtimizda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarni oldini olish tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir. Ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasida xorijiy davlatlar to'plagan tajribani o'rganish bu masalaga tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagicha yondashish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz Xorijiy davlatlar jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimlari. Har bir davlatning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi boshqa mamlakatlarnikidan muayyan xususiyati bilan ajralib turadi. Ma'lumki, Sobiq ittifoq davrida hatto huquqbuzarliklarni oldini olish sohasida ham sinfiylik nuqtai nazaridan kelib chiqdilar, mafkuraviy mazmunga e'tibor qaratdilar. Kommunistik jamiyat qurilishi bilanoq, jinoyatchilik o'z-o'zidan yo'qolib ketadi, degan utopistik tasavvurlarni zo'r berib odamlar ongiga singdirdilar, natijada Sobiq ittifoqdosh Respublikalar hayotidagi jinoyatchilikning asl holatini buzib ko'rsatdilar. Huquqbuzarliklarga qarshi kurash real voqealik talablariga javob bermas, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatida ba'zi jihatlarga, jumladan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi faoliyatini amalga oshirishga umuman e'tibor berilmas, bu sohada jinoyat sodir etilishi bilanoq darhol jinoyatchini jazolash siyosatiga urg'u berilar, tergov va sud jarayonida sodir bo'lgan huquqbuzarliklarning barcha tafsilotlari aniqlab o'tirilmas, profilaktika inspektorlari faoliyatida ko'rsatkich uchun ishlash kabi salbiy holatlar shakllangan. Natijada huquqbuzarliklarning oldini olish, jumladan viktimologik profilaktika sohasidagi ahvol buzib talqin etilardi.

Kalit so'zlari; viktimologik profilaktika, takomillashtirish, asoslar,.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi; Jahonda shaxsni turli tajovuzlardan himoya qilish maqsadida viktimologik profilaktikaning samaradorligini oshirishga, uni tashkil etishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, shuningdek davlat organlari, jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini tashkil etish hamda fuqarolar faolligini oshirishga, qolaversa aholi o'rtasida o'zlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish usul va shakllarini keng targ'ib qilishga qaratilgan



chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda davlat va jamiyat manfaatlari, ayniqsa fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmatini va mol-mulkini turli tajovuzlardan himoya qilishga oid qonun normalari talablarining ijrosini ta'minlash bo'yicha huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi choralarining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini tashkil etish va uni takomillashtirish bo'yicha, yangi zamonaviy tizim yaratish uchun biz bu borada avvalo bir kator davlatlarning amaliy tajribalari o'rganib chiqmog'imiz lozim. Jinoyatdan qurbon bo'lib qolishini oldini olish bo'yicha xorijiy tajribalarga e'tibor karatsak BMT doirasida 1948 yildagi Inson xuquqlari umumjaxon deklaratsiyasi, unga ixtiyoriy protokol bilan fuqarolik va siyosiy xuquqlar to'g'risidagi pakt, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xuquqlar to'g'risidagi pakt kabi xujjatlarni qabul qilishi bu xar bir davlatlarda inson xuquqlariga bo'lgan e'tibor birinchi o'ringa chiqqanligini anglatadi. Qabul qilingan fuqarolik va siyosiy xuquqlar to'g'risidagi pakt qiynoqlar va shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan munosabatlarni taqiqlaydi. Ayrim Yevropa davlatlarida, xususan, Germaniyada huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda fuqarolarning imkoniyatidan keng foydalanish amaliyoti mavjud. Mazkur amaliyotga ko'ra, har qanday huquqbuzarlik, shu jumladan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning guvohi bo'lgan Germaniya fuqarolari bu haqda darhol davlat organlariga telefon orqali og'za-ki, SMS yoki MMS ko'rinishida xabar beradi. Xabar asosida tezkor profilaktik choralar ko'rib, natijasi haqida fuqaroga ma'lum qilinadi.

1902 va 1910 yillarda Parijda o'tkazilgan konferentsiyalar natijalariga ko'ra «Oq qullar savdosiga qarshi kurash» butunjahon konventsiyasi qabul qilingan. Keyinroq ushbu konventsiya «Ayollar va bolalar savdosini yo'qotish» va «Voyaga yetgan ayollar savdosini yo'qotish» nomli butunjahon konventsiyalari bilan to'ldirilgan. Odam savdosi muammosiga qarshi kurashishning keyingi tarixiy jarayonlari asta-sekin rivojlanib, 1948 yilda «Inson huquqlari» umumjaxon Deklaratsiyasi qabul qilingan. Shundan so'ng «Inson huquqlarining Yevropa konventsiyasi», «Qullik xususida»gi konventsiya, «Qullikni yo'qotish amaliyoti to'g'risida»gi qo'shimcha konventsiya, «Bola huquqlari to'g'risida»gi konventsiya, «Ayollarga qarshi diskriminatsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash to'g'risida»gi konventsiyalar qabul qilinib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida qo'llanila boshlandi.

Mazkur amaliyotning ilk belgilarini mamlakatimizda 2018 yil 8 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida»gi 15-



son qarorining qabul qilinganida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevraldagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi PQ-3528-son qarorida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida «Jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasining belgilanganligida ko'rish mumkin. Bundan tashqari, Toshkent shahridagi Inxa Universiteti talabalari A. Siyayev, Sh. Sodiqov, Yu. Xo'jaeva va Z. Usmonovalar tomonidan Rossiyadagi «Nash gorod», AQShdagi «Bos» ton 311», Janubiy Koreyadagi «e-people» dasturlarning analogi sifati «ProActive» innovatsion dasturni ishlab chiqilishi huquqbuzarliklar profilaktikasi shakllarini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Mualliflarning izoh berishicha, mazkur dastur xalq qabulxonalarining yangicha shakli sifatida talqin etilib, fuqarolarning ijtimoiy ogohligi, jamoat tartibi, xavfsizligi va osoyishtaligiga daxldorligini oshiradi. Dastur mazmuniga ko'ra, fuqarolar jamoat joyidagi ko'ngilsiz yoki favqulotda holatlar haqida murojaatlarni SMS yoki MMS ko'rinishida qo'l telefoni orqali tegishli davlat organlariga yuboradilar va SMS orqali javob oladilar. Shu o'rinda, V.N. Kudryavtsevning «yangi, ko'ngilli asosda huquqni muhofaza qilish organlarining aholi bilan o'zaro aloqasini, fuqarolarning ularga nisbatan yo'qotilgan ishonchini qayta tiklash va mustahkamlash zarur»mazmunidagi fikriga qo'shilmiz. Yaponiya, Niderlandiya, Frantsiya, GFR, AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston davlatlarining shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimgining oldini olishga doir ilmiy tadqiqot muassasalari, milliy assotsiatsiyalari faoliyati va viktimglikning oldini olishga doir qonun normalarini qiyosiy tahlil qilishi natijasida tegishli xulosalarni shakllantirgan. Jumladan, Angliyada «Jinoyatlardan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash Milliy assotsiatsiyasi» (National Association of Victim Support Schemes) 1979 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelishi, u muvofiqlashtiruvchi organ vazifasini bajarishi, Frantsiyada «Jinoyatlardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish Milliy instituti» (National Institute for Assistance for Victims (INAVEM) 1986 yilda tashkil etilgan bo'lib, u 60 ga yaqin viktimgologik tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishini aniqlagan. Niderlandiyada «Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash Milliy tashkiloti» (National Organisation for Victim Support (NOVS) faoliyati, AQShda rasman mazkur vazifani amalga oshiruvchi organ mavjud bo'lmas-da, bu faoliyatni «Jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish Milliy markazi» bajarishi, Italiyada ham rasman viktimgologik tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ bo'lmas-da, lekin terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, o'g'irlik, bosqinchilik va talonchilikdan aziyat chekkan fuqarolarga yordam ko'rsatish assotsiatsiyasining faoliyatidagi mazkur vazifani bajarishi yuzasidan vazifalarni o'rganib, tahlillar olib borgan. Shuningdek, AQShda 1984 yilda qabul qilingan «Jinoyatdan jabrlanganlar to'g'risida»gi, 1991 yildagi «Ayollarga qarshi zo'ravonlik ishlatishga qarshi kurash to'g'risida»gi, AQSh



Kongressi tomonidan esa 1994 yilda «Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash haqida»gi (the Violence Against Women Act), 1999 yildagi «Bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash to'g'risida»gi (Megan's Law and the Jacob Wetterling Crimes Against Children and Sexually Violent Offender Registration Act) qonunlari hamda «Zo'ravonlik bilan sodir etilgan jinoyat jabrlanuvchilariga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida»gi Yevropa Konventsiyasi, «Jinoyat jabrlanuvchilariga yordam ko'rsatish va 23 viktimlashuvning oldini olish haqida»gi Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasining tavsiyalarini o'rganib, qiyosiy tahlil natijasida tegishli tavsiyalar bergan .

XULOSA: Viktimlik bu huquqbuzarlikning kelib chiqishi asosiy sabablaridan biri deb olsak adashmagan bo'lamiz ayni damda yurtimiz tinch, insonlar farovon hayot kechirishayotgan bir davrda viktimlik juda yuksak darajaga yetgandir. Yaniki aytadigan bo'lsak insonlar e'tibotsizligi ularning viktimlik darjasini belgilab beryabdi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy islohotlar jamiyat hayotidagi munosabatlarning tubdan o'zgarishiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari to'la ta'minlanishiga, olib keldi. Ayniqsa, huquq-tartibni mustahkamlashda islohotlarning amalga oshirilishi profilaktika inspektorlari huquqiy maqomining va uning huquqbuzarliklarni oldini olish jumladan viktimologik profilaktikani amalga oshirishga, fuqrolarning turli jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilinishiga sharoit yaratilmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi faoliyatining asosiy istiqbollari jinoyatlarning alohida turlari, toifalari va guruhlariga nisbatan talkomillashtirishga muhtoj. Ma'lumki, odamlar ongida o'z-o'zini tarbiyalash hatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga o'rganish o'z hulq-atvorini hattiharakatlari natijasida kutilmaganda yuzaga kelgan kriminogen vaziyatni to'g'ri baholay olish ko'nikmalarini shakllantirish huquqbuzarliklarninig viktimologik profilaktika faoliyatini amalga oshirishdagi muhim ijtimoiy-ruhiy omil hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil

Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun 2016-yil 16- sentabr

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014-yil 14-may

2021-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

Ismailov I. Saitqulov Q.A., Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.

Saitqulov Q.A. ИО huquqbuzarliklar viktimologik

profilaktikasi bo'yicha faoliyati takomillashtirish // Yurid. fan. buy. fal. dok. diss. T.: 2020.



HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyshukurov Otajon Navro'z o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 306-guruh kursanti

Negmatov Rutfullo Olimovich

Ilmiy rahbar: O'z Res IIV Akademiyasi boshlig'i o'rinbosari polkovnik

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari tushunchasi tasnifi hamda uni takomillashtirish, bu faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, faoliyatni amalga oshirish jarayonidagi nazariy tahlillar bunday faoliyatni talab qiluvchi obyektiv hamda subyektiv omillar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslarining profilaktik faoliyatdagi o'rni, ahamiyati faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlarning huquqiy asoslar to'g'risidagi munosabati tahlil qilinadi. Bundan tashqari huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslarini ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish ularni milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda milliy qonunchilikka tadbiq qilish. Bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muamolar ularning nazariy yechimlari haqida fikr bildiriladi.

ANNOTATION

This dissertation focuses on the relevance of the research topic, the concept of the prophylactic inspector's work to ensure human rights and freedoms, the current state of human rights and freedoms, and the nature of the prophylactic inspector's role in ensuring human rights and freedoms. In addition, the operational analysis of the norms of the activities of prevention inspectors to ensure human rights and freedoms, as well as procedural documents in this area, the problems and shortcomings in this area, as well as a number of shortcomings and shortcomings. In addition, the best practices of other foreign countries in the field of human rights and freedoms, as well as similar and different aspects of our national legislation, as well as the above-mentioned aspects will be used to improve this activity.

Aynan faoliyatning amalga oshirilishi huquq normalari orqali belgilanishi bu faoliyat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilashga va faoliyat yo'nalishini qat'iy belgilashga xizmat qiladi. Bunday normalar jamiyat taraqqiyotidan kelib chiqqan holda doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. Shu o'rindayunon faylasufi Suqrotning "Nimaiki qonuniy bo'lsa o'sha adolatli bo'ladi" degan fikrini keltirish joiz. Aynan ushbu adolatni qanday qay darajada bo'lishi u tayangan qonunlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu sababdan har qanday demokratik davlat huquq tizimini shundan kelib chiqqan holda rivojlantirib boradi. O'zbekiston ham



mustaqillikka erishgandan buyon o'z qonunchilik tizimini takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratmoqda. Sh .M mirziyoyevning Mustaqilikning 32 yillik bayram tantanaliaridagi tabrigida keltirgani quyidagi junlari «Bugungi xalqimiz — kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham, kechagi O'zbekiston emas»² keltirish mumkin. Shuningdek 2022-2026- yillarga mo'ljllangan taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi yamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy hamda zarur shartyiga aylantirish deb nomlanib quydagi maqsadlar belgilandi

13-maqsad: Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash.

14-maqsad: Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash.

15-maqsad: Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish.

16-maqsad: Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.

17-maqsad: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish.

18-maqsad: Sud va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash.

19-maqsad: Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish.

20-maqsad: Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.

Bu maqsadlar orasida 16-maqsad aynan huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyat alohida tuxtalib quyidagi vazifalar belgilangan: Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.

Jamoat tartibini saqlash bo'yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlar bo'limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish. Barcha sohalar kabi huquqbuzarliklar profelaktikasio tizimida ham islohotlar olib borilmoqda. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining asoslari to'g'risida"gi qonun loyihasi e'lon qilindi. unda bazi o'zgarishlar ham mavjud

**Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, muhokama qilish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;

voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

ijtimoiy vaziyati og'ir bo'lgan shaxs va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish;

voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- insonparvarlik;
- tizimlilik;
- ishontirish usulining ustuvorligi;
- ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish.

Huquqbuzarliklar profelaktikasining huquqiy asoslari deganda mazkur jarayondza yuzzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va qonun osti normative huquqiy hujjatlardan iborat.

Prezident farmon , farmoyish ,qarorlari bevosita bu faoliyatni tartibga solish maqsadi qonun normalarining ijro tizimini aniq ishlashini taminlashdan iboratdir.So'ngin 7 yil davomida bu faoliyatfa doir juda ko'plab Prezident farmon , farmoyish ,qarorlari qabul qiliinib yangi Mexanizm ishlab chiqildi. O'zbekiston



Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5005-son bo’lib unda nafaqat HPBlar balki IIO tizimidagi kamchiliklar haqida so’z boradi bular qatoriga :

birinchidan, respublika, o’rta va quyi bo’g’indagi bo’linmalar o’rtasida asosiy vazifa va funksiyalar aniq taqsimlanmagani har bir xodimning faoliyati ustuvor yo’nalishlarini va ishning pirovard natijasi uchun shaxsiy javobgarligini belgilashni qiyinlashtirmoqda;

ikkinchidan, amaldagi tashkiliy-shtat tuzilmalari kuch va vositalardan oqilona foydalanishni ta’minlamayapti, oqibatda markaziy va o’rta bo’g’inning ba’zi xizmatlarida yetarli ish hajmi bo’lmay turib, keragidan ham ortiqcha shtat birliklari saqlanib turgan bir paytda, quyi bo’linmalar zimmasiga haddan ziyod xizmat vazifalari yuklanishiga olib kelmoqda;

uchinchidan, ichki ishlar organlari mansabdor shaxslari, shu jumladan profilaktika inspektorlarining aholi bilan muloqoti yo’lga qo’yilmagan, fuqarolar bilan muomala madaniyati pastligicha qolmoqda, aholining eng muhim muammolarini hal etish borasida fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik ta’minlanmayapti;

to’rtinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari yuzaki ko’rib chiqilmoqda, ularda ko’tarilayotgan masalalar har tomonlama chuqur tahlil qilinmayapti, murojaatlarga rasmiyatchilik uchungina javob berilayotgani fuqarolarning noroziligini keltirib chiqarmoqda, ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va boshqa tashkilotlarga shikoyat bilan murojaat etishga majbur qilmoqda;

beshinchidan, ichki ishlar organlari mansabdor shaxslarining aholi oldida hisobot berib borishining ta’sirchan tizimi, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik, parlament va deputatlik nazoratining samarali mexanizmlari joriy etilmagan, bu esa xodimlarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishi uchun mas’uliyatini oshirish imkonini bermayapti;

oltinchidan, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo’yicha ishlar asosan, sodir etilgan g’ayriqonuniy qilmishlarning oqibatlariga qarshi kurashishdan iborat bo’lib qolmoqda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo’yicha tizimli va samarali chora-tadbirlar ko’rilmayapti;

yettinchidan, o’sib kelayotgan avlodni buzg’unchi g’oyalardan himoya qilishga, yoshlar jinoiy faoliyatga, avvalambor, terrorizm va diniy ekstremizmga jalb etilishining oldini olishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti, ichki ishlar organlarining tarbiyaviy o’rni sezilmayapti;



sakkizinchidan, ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi hozirgi talablarga javob bermaydi, poraxo‘rlik va xizmat mavqeyini suiiste‘mol qilish holatlari hamon uchrab turibdi;

to‘qqizinchidan, eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimga joriy etish, ichki ishlar organlarini zamonaviy vositalar va asbob-uskunalar bilan jihozlash darajasi qoniqarsizligicha qolmoqda ekanligi belgilanib shu asosida ishlar amalga oshirildi shuningdek 2017-yil 18-apreldagi Pq 2896, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-sonlar qabo‘l qilinib, Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi shuningdek Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining eng muhim vazifasi deb belgilandi

birinchi — huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarining respublika, o‘rta va quyi pog‘onalari faoliyatining sifat jihatidan yangi tartibini o‘rnatish, bunda ularning asosiy vazifalari, funksiyalari hamda javobgarligini aniq belgilash va chegaralash, profilaktika inspektorlari zimmasiga ular faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalar yuklatilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

ikkinchi — profilaktika ishini aholi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish, ushbu ishni, birinchi navbatda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni ta‘minlashga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik munosabatini singdirishga qaratish;

uchinchi — voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash tizimini ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, o‘sib kelayotgan yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan holda rivojlantirish;

to‘rtinchi — profilaktika inspektorlarining zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarning talab darajasida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shu jumladan o‘zlarining faoliyati haqida jamoatchilik oldida tizimli ravishda hisobot berishlarini yo‘lga qo‘yish, ularning aholini tashvishga solayotgan muammolarga yuzaki munosabatda bo‘lish holatlariga chek qo‘yish;

beshinchi — profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini baholashning ta‘sirchan mezonlarini joriy etish, bunda, birinchi navbatda jamoatchilik fikri, ularning



faoliyati natijalaridan fuqarolarning qanoatlanishi hamda aholi bilan hamkorlik darajasini hisobga olish;

Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari takomillashtirishni o'z navbatida bir qancha omillar talab etadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari takomillashtirish talab etuvchi omillar obyektiv hamda subyektiv omillar ajratish maqsadga muvofiq. So'ngi yillardagik islohotlar chuqurlashuvi nafaqat qonun doirasida undan o'tib subyektlar doirasigacha ko'chdi xususan Mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi, huquqbuzarliklarning, ijtimoiy-maishiy tushdagi jinoyatlarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash, ularga chek qo'yish, sodir etilganlarini fosh etish, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida tizimli va samarali chora-tadbirlari amalga oshirilishida sezilayotgan kamchiliklar, tizimli ishlarning sustligi, bu borada ishlarning samarali tashkil etish maqsadida yana bir organ — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilgan bo'lib, uning huquqiy asosi, ya'ni "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu organning tashkil etilishiga ehtiyoj sezildi va 2017-yilda tashkil etildi, biroq faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy asos mavjud emasdi. aynan bu qonunning mavjud bo'lishi han bu biradagi islohotlarning bir qismi sifatida qarash mumkin Qonunning qabul qilinishi bilan Milliy gvardiyaning faoliyatini huquqiy tartibga solindi va unda organning huquqiy maqomi hamda asosiy vazifalari belgilab berildi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo'shinlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo'lgan maxsus turi ekanligi o'rnatildi. Shuningdek, Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishlarini qo'zg'atish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish;

davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash;

qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;



jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash;

favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash;

qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish;

chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo'yishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog'ida rasmiy marosimlarni o'tkazish;

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;

O'zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo'llash rejalari bo'yicha maxsus vazifalarni hal etish, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash hamda himoya qilishda ko'maklashish.

Obektiv omillargainson jamiyatiga yangi texnologiyalar qo'llanilishi bunuing natijasi ijtimoiy munosabatlar yangilanishini keltirsak, subektiv omillarga jinoyatchilik sonining oshishini keltirish mumkin. Jumladan 2022 –yilda O'zbekistonda har 100 ming kishiga o'rtacha 33,42 ta jinoyat to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich bo'yicha 136 ta davlat ichida 99-o'rinda qayd etilgan². 2022 yilda 105 200 jinoyat sodir etilgan bo'lib, 100 ming aholiga nisbatan 298 ta. Hozirda jinoyatlar aniqlanadigan va oldi olinadigan jinoyatlarga bo'lingan. Deylik, qotillik, o'g'rilik, bosqinchilik kabi jinoyatlar oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarga kiradi. Qo'shmachilik, narkotik, qurol savdosi kabilar esa aniqlanadigan jinoyatlar sirasiga kiradi. Shu o'rinda jinoiy jazolarning samaradorligining pastligini ham keltirish mumkin 2022 yilda 90 mingdan ortiq odam jinoyat sodir etgan bo'lsa, shulardan 11 ming nafardan ko'prog'i muqaddam sudlangan shaxslar hisoblanadi. Bu degani 13 foiz (1/9) jinoyatlarni avval jinoyat sodir etganlar amalga oshirgan. **Ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanganlar so'nggi 4 yilda qariyb 3 barobar oshgan. 2019 yilda 6,9 mingdan 2022 yilda 17 mingga oshgan. Bu esa ular bilan ishlashning yanada yangi tizimi yangi profelaktik choralar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.**

Shu o'rinda gap huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari takomillashtirish haqida borar ekan avvalo uni davlatning bosh qomusimiz konstitutsiya darajasiga ko'tarish lozim. Amaldagi Konstitutsyamizda bevosita huquqbuzarliklar profelaktikasini tartibga soluvchi norma mavjud emas faqat 55-moddada "Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli" va 54-moddada Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi degan norma



mavju bu normalar qatoriga Davlat jinoyatlarning oldini olish hamda ularda barcha fuqorolarini himoya qilish uchun yetrli chora tadbirlarni

ko'rishga majbur degan normani qoshish mumkin. Bu normaning qo'shilihi mamlakat siyosatida huquqbuzarliklar profilaktikasining rolini oshirish va uni asosiy yo'nalishga aylantirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek mamlakatimizda sodir etilgan jinoyatlar qasddan odam o'ldirish jinoyatining 422 ta nomusga tegish jinoyatining 170 sodir etilganligi bu turdagi jinoyatning qaryib 2 baravar o'sganini ko'rsatadi. Bu esa yangi profelaktik chorani yani nafaqat ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, ijtimoiy profelaktika qatoriga psixalogiyani kiritish yani ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishdeb kiritish mumkin. Qonun loyihasida esa bu quyidagi shaklda keltirilgan:

Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlari qonunchilikda belgilangan tartibda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi sub'yektlar tomonidan jabrlanuvchilarga, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda qolgan, psixoaktiv moddalarni notibbiy maqsadlarda iste'mol qiluvchi, narkologik kasalliklarga chalingan, ruhiy holati buzilgan yoxud nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoki ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan shaxslarning, shuningdek huquqbuzarliklarni yoxud boshqa g'ayriijtimoiy harakatlarni sodir etayotgan shaxslarning hisobini yuritish;

